



FARMAKOGNOZIYA ASOSLARI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

Farmakognoziya va farmatsevtik texnologiya kafedrasи

Farmatsiya fakulteti 3-kurs talabalari uchun

Farmakognoziya

fanidan

nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha

Farmakognoziya asoslari

O'quv - qo'llanma

I-QISM



Samarqqand-2022

Tuzuvchilar:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Farmakognoziya va farmatsevtik

texnologiya kafedrasi mudiri PhD,

N.D.Kodirov

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

farmakognoziya va farmatsevtik

texnologiya kafedrasi assistenti

M. B.Usmonova

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

farmakognoziya va farmatsevtik

texnologiya kafedrasi assistenti

G.R.Xasanova

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

farmakognoziya va farmatsevtik

texnologiya kafedrasi assistenti

S.M.Olimov

Taqrizchilar:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

biokimyo kafedrasi mudiri, f.d dotsent

Q.M. Xalikov

SamVMI, "Veterinariya farmasevtikasi"

kafedrasi v.f.n.dotsent

A.A.Xoliqov


O'quv qo'llanma Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashining
2022 – yil ____ “___” - son yig'ilishida muhokama qilindi va chop etishga
tavsiya etildi.

Илмий кенгаш raisi, профессор

Илмий кенгаш котиби, PhD

Ж.А.РИЗЛЕВ

У.У.ОЧИЛОВ



Annotatsiya Farinakognoziya fani amaliyotida har bir talaba dorivor o'simliklarni aniqlay bilishi, har bir o'simlikning lotin tilida va o'zbek tilida nomlanishini, qaysi oilaga mansubligini aniqlash, geografik tarqalishini, o'simlikni hayotiy shaklini, asosiy ta'sir etuvchi moddasi o'simlikning qaysi qisniida ko'proq ishlab chiqarishni, ulardan mikropreparat taylorlanishini va ularga xos sifat reaksiyalarni, miqdoriy taxlilini o'tkazishni va ,o'simlikdan damilama, qaynatma, ekstraktlar va suvli ajratmalar olishni bilishi kerak. O'quv qo'llannmada dorivor o'simlik mahsulotlarini va preparatlarini tahlildan uitkazish borasidagi malumotlar farmasiya fakulteti 3-kurs talabalari uchun mos holda, oson va tushunarli tarzda keltirilgan.

Аннотация. В фармацевтической практике каждый фармацевт должен уметь определять лекарственные растения. Определить название каждого растения на латыни и узбекском языке, а также к какому семейству оно принадлежит, его географическое распространение, жизненную форму растения, основное действующее вещество. 'должны знать, в какой части проволоки производить больше, чтобы приготовить из них микропрепараты и провести их характерные качественные реакции, чтобы получить экстракты растений, водные экстракты. Информация по анализу лекарственных средств растительного происхождения и лекарственных Препаратов представлена в учебной пособии для студентов 3 курса фармацевтического факультета.

Annotation. In pharmaceutical practice, every pharmacist must be able to identify medicinal plants. Determine the name of each plant in Latin and Uzbek, as well as to which family it belongs, its geographical distribution, the life form of the plant, the main active ingredient. 'must know in which part of the wire to produce more in order to prepare micropreparations from them and carry out their characteristic qualitative reactions in order to obtain plant extracts, water extracts. Information on the analysis of herbal medicines and medicinal products is presented in the textbook for 3rd year students of the Faculty of Pharmacy.

MUNDARIJA

KIRISH	5
TURLI MORFOLOGIK GURUHLARGA KIRUVCHI DORIVOR O'SIMLILARNING BARG MAHSULOTLARINI FARMAKOGNOSTIK TAHLIL QILISH USULLARI.....	6
PO'STLOQLARNING FARMAKOGNOSTIK TAHLIL QILISH USULLARI.....	18
ILDIZ, ILDIZPOYA, TUGANAK, PIYOZBOSHLARNI FARMAKOGNOSTIK TAHLIL QILISH USULLARI.....	29
DORIVOR O'SIMLIK MAHSULOTLARINI QABUL QILISH VA ME'YORIY HUJATLAR ASOSIDA TAXLIL QILISH.....	42
TARKIBIDA POLISAXARIDLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLILAR VA MAHSULOTLAR.....	57
TARKIBIDA VITAMINLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLILAR VA ULARNING MAHSULOTLARI.....	78
TARKIBIDA EFIR MOYLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLILAR VA MAHSULOTLAR.....	99
TARKIBIDA IRIDOIDLAR (ACHCHIQ GLIKOZIDLAR) BO'LGAN DORIVOR O'SIMLILAR VA MAHSULOTLAR.....	121
TARKIBIDA ALKALOIDLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLILAR VA MAHSULOTLAR	134

KIRISH

Ushbu mavzular buyicha laboratoriya mashg'uloti farmatsiya yunalishi tulabalari uchun 114 soatga muljallangan. o'quv qo'llanmada "Kadro r tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'llim lo'g'risidagi qonunlarda ko'zda tutilgan g'oyalar asosida ta'llim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida tashkil etilgan. Tibbiyot universiteti farmatsiya fakultetida tahsil olayoigan talabalarga farmakognoziya fanini chuqurroq o'rGANishlariga yordam beradi.

Tibbiyotda bemonlarni davolash uchun hamda dorivor preparatlarni yanushida saqal yuqori sisatli dorivor o'simlik mahsulotlardan foydalaniadi. Hususan mavzulardan kelib chiqqan holda turli xil kasalliklaridan Vcilego, havfli o'smalarga rakqa qarshi, spazmolitik (muskullarning ihtiyyorsiz qisqarishi va tarang tortilishiga qarshi), anticoagulant (qon ivishiga qarshi) yurak etishmovchilida, oshqozon-ichak kasalliklarida, akusher gnikologik kasalliklarida, teri kasalliklarida, va boshqa kasalliklarni davolashda ishlataliadi. Dorivor modda saqlovchi usimliklarni o'stirish, yig'ib olish, qyritish, dorivor maxsulotlarga kifat reaksiyalar o'tkuzish, chindigini aniqlash, ulardan dorivor moddasini ajratib olishni . Tibbiyotda nima maqsidda ishlatalishini, va shu tuyorlangan dorivor maxsulotlurni qanday taribda istemol qillishni mazkur o'quv qo'llanmada to'siq ko'nikmalarini beradi. Malaka lablarida ko'natilgan barcha bilim malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan olly hov'g'in muuxuusslarni layyorlab berish vazifasi qo'yilgan. Bu vazifani uddalash uchun farmatsiya fakultetlarida ilg'or pedagogik usullardan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil gilish hamda mustaqil o'rGANishda ham imkoniyat beruvchi zamionaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratish kerak Dastur asosida farmakognoziya fanidan mavzularidan nazariy va amaliy o'tilishi ko'zda tutilgan. o'quv qo'llanmada har bir mavzu fizika, kimyo, farmkimyo, fizkolloid kimyo, lotin tili va tibbiyot terminologiyasi, farmakologiya asoslari va jarrohlik fanlari bilan bog'lab o'tiladi.

Ushbu o'quv qo'llanmada tibbiyot universiteti farmatsiya fakultetlari talabalarining farmakognoziya fanidan bilimlarini yanada mustahkamlashda yordam beradi

TURLI MORFOLOGIK GURUHLARGA KIRUVCHI DORIVOR O'SIMLIKLARNING BARG MAHSULOTLARINI FARMAKOGNOSTIK TAHLIL QILISH USULLARI

Amaliy farmakognoziyaning asosiy maqsadi dorivor o'simlik mahsulotlarining chinligi va sifatliliginini aniqlashdan iborat.

Dorivor o'simlik mahsuloti *chinligi* deb uni o'z nomiga to'g'ri kelishiga aytildi. Dorivor o'simlik mahsuloti *sifatliliği* deb uning tegishli me'yoriy-texnik xujjat talablarga javob berishi tushuniladi.

Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilish dastlab ularning chinligini aniqlashdan boshlanadi. Chunki mahsulotning o'z nomiga to'g'ri kelishi aniqlanmay, ya'ni tekshirishga qanday mahsulot yuborilganligini bilmay turib, mahsulotning yuqori sifatliligi, tarkibidagi biologik faol moddalarning miqdorini aniqlash va uni me'yoriy-texnik xujjat talablariga javob berishi to'g'risida fikr yuritish xam mumkin emas. Dorivor o'simlik mahsulotlarining chinligini aniqlash makroskopik, mikroskopik va kimyoviy tahlil (kimyoviy reaksiyalar) yordamida amalga oshiriladi.

Mazkur uslubiy qo'llanma yuqorida qayd etilgan farmakognostik tahlil usullarini o'zlashurishga yordam beradi.



Farmatsevtika amaliyotnda «barg» (list — Folia) deb kutilgan bandli yoki bandsiz barg yoki murakkab bargning alohida bargchalaridan tashkil topgan mahsulot tushuniladi. Bargni makroskopik tahlil qilishda uning shakli, barg plastankasining katta-kichikligi, barg bandining uzunligi, tomirlanishi va barg chetiga e'tibor beriladi. Mayda va qalin barglar tekshirilayotganda material quruq bo'lsa ham, yuqoridaq belgilaryaxshi ko'rindi. Yirik va yupqa barglarni o'rganilayotganda ular mahsulotda burishgan holatda bo'lgaui uchun ularni nam kameradayumshatiladi va issiq suvda bir necha minut ho'llaniladi. Ho'llanilgan bargni oyna plastinkasiga tekislab yoyib qo'yib qo'yiladi. Barg mikroskopiyasini o'rganshssa yupqa bargdan kesim tayyorlamay, uning ustki tomoni mikroskopda ko'rildi. Buning uchun barg ishqor eritmasida yoki xloralgidratning 30% li eritmasida 10—15 minut qaynatiladi. Mayda barg butunligicha, yirik bargdan esa diagnostika uchun ahamiyatli, alohida qismlari: bargning cheti, bargning uchi, asosi va asosiy tomiri ajratib olinib mikroskopda ko'rildi. Yoritigich va suv bilan yuvilgan bargni yoki uning bo'lakchasini skalpel yoki preparat ninasi bilan ikki bo'lakka bo'lib, bir bo'lagini to'ntarib qo'yiladi. Barg bo'laklari qoplagich oyna bilan berkitiladi va qolgan havoni chiqarish uchun bir oz qizdiriladi va sovutib mikroskop ostida ko'rildi. Barg qalin bo'lsa, epidermisni mezofildan ajratish uchun preparal ninasi bilan barg eziladi.

Qalin bargni mikroskopik tuzilishini o'rganilayotganda, ulardan ko'ndalang kesim tavyorlansadi. Buning uchun quruq barg oldin suvda namlanib keyin suv—glitserin — spirit (1:1:1) aralashmasiga solinadi. Yumishatilgan bargni marjon daraxti o'simligi poya o'zagining ikki yarimita bo'lagi o'rtasiga joylab, undan ko'ndalang kesim tayyorlanadi. Barg kukuni (poroshok) holida bo'lsa, buyuun oynachasiga 2—3 tomchi xloralgidrat eritmasidan solib, unga preparat ninasi bilan tekshirilayotgan barg kukunidan solinadi va qoplagich oynacha bilan berkitib, barg to'qimalarini ravshanlashsurish uchun 2—3 minut qizdiriladi. Keyin sovutilib qoplagich oynachaning ustidan qisman bosiladi va mikroskopda ko'ryladi. Barg mikropreparatining ustki tomonini mikroskop ostida ko'rildiganda quyidagi asosiy diagnostik belgilarga: epidernisning tuzilishiga, ustitsalarning turiga trixomalarining (tuklar, bezlar) tuzilishiga, kristallarning shakli va ularning bor yoki yo'qligiga, mexanik to'qimalar, har xil joylar, sut naylari, kanalchalarining bor yoki yo'qligiga va boshqalarga e'tibor beriladi.

Barg epidermisi ma'lum bir hujayra shakli — izodiametrik yoki cho'ziq to'gri yoki egri-bugri yon devorli, yupqa—diatsit (yoki kariofilloidlar, filloid) ustitsa ikkita yoki ko'p hujayralar bilan o'ralgan bo'lib, birlashgan hujayra devori ustitsa yorig'iga ko'ndalang yoki boshqacha joylashgan bo'lishi mumkin. Bir pallali o'simliklar quyidagi bciliga xos ustitsalar bilan farqpanadi: aperogen xildagi ustitsa, ustitsa atrofida o'ziga xos hujayralari bo'lmagan ustitsa; biperilgan xildagi ustitsa — ustitsa atrofida hujayraga nisbatan lateral joylashgan 2 xujayrali ustitsa; tetraperen xiddagi ustitsa — ustitsa atrofida 4 ta hujayra bo'lib, ularning ikkitasi lateral va boshqa ikkitasi polyar yoki ikki tomonga ikkitadan lateral joylashgan ustitsalar yoki qalin qavatli va ko'pincha devorlari tasbehsimon qalin tuzilishi bilan ifodalanadi. Ustitsalaring (barg og'izchasi) xili, ularning atrofini o'rabi olgan epidermis hujayralarining soni va qay tarzda joylashishi ham xarakterli hisoblanadi. Ikki pallali o'simliklar quyidagi to'rt xildagi ustitsa kompleksi bilan farq qiladi: anomotsit (yoki ranunkuloid) ustitsa shakli va o'lchamini bilan farqlanmaydigan, noaniq miqdordagi epidermis hujayralari bilan o'ralgan; anizotsit (yoki krutsiferoid) ustitsa uchta epidermis hujayrasi bilan o'ralgan bo'lib, ulardan

bittasi boshqalardan birmuncha kichik Bitta yoki bir nechta epidermis hujayrasi bilan o'ralgan; geksaperigen xilidagi ustitsa — ustitsa atrofida 6 tahujayra bo'lib, 2 tasi polyar va 4 tasi lateral joylashgan; multiperigen xilidagi ustitsa — ustitsa atrofidagi hujayralar soni 6 tadan ortiq bo'lib, ular ustitsa atrofida halqa bo'lib yoki tartibsiz joylashgan.Ba'zi o'simlik barglarida suv ustitsalari bo'lishi o'ziga xos bo'lib, ular yirik o'lchami bilan farqlanadi va ular barg uchiga yoki qirralaridagi tishlariga, gidatod ustiga joylashadi. Epidermisda sekretorli yoki sisxolit saqlovchi hujayralar ham uchrashi mumkin.Tuklar atrofini o'rab olgan epidermis hujayralari ko'pincha rozetka hosil qiladi va bu ham diagnostik ahamiyatga ega. Barg sirtini qoplagan kutikula qavatiga ham e'tibor berish kerak. Kutikula asosan tekis, qalin yoki qat-qat va ba'zida do'ng bo'lib chiqqan bo'ladi.Tuzilishi turlicha bo'lgan trixomalar kaltga diagnostik ahamiyatga ega . Eng keng tarqalgan trixomaga tuklar kiradi. Ular bir va ko'p hujayrali, oddiy va boshchali (bezli) tuklarga bo'linadi. Oddiy tuklar bir qatorli, ikki qatorli, ko'p qatorli yoki to'p-to'p joylashgan, shoxlanmagan yoki shoxlangan (yulduzsimon, shoxlangan, T-shaklli) yupqa yoki qalin devorli bo'lishi mumkin. Ularning sirti tekis, so'galli yoki uzunasiga qat-qat bo'lishi mumkin.bu tuk ustidagi kutikulaning ko'rinishiga bog'liq. Boshchali tuklar bargda idioblastlar, oksalat kalsiy kristallari, sistolitlar yoki boshqa kristallar saqlangan maxsus hujayralar uchraydi.Oksalat kalsiy kristallari har xil shaklli va o'lchamli bo'lishi mumkin: prizma, romboedrik oktaedrik va boshqa shaklli yakka qristallar, o'zun ninasiimon yoki to'p bo'lib joylashgan mayda ninacha shaklli kristallar (rafidlar), tutashgan kristallar (druzlar,sferokristallar), mayda kristallar to'plami (qum shaklidagi) xalta hujayralar.Kristalli hujayralar mefozill hujayralari orasida joylashib o'tkazuvchi to'qimalar yoki tolalar to'plami atrofida kristalli qoplama hujayralarni hosil qiladi. Boshqa mineral moddalar karbonat kalsiy, qum (kreminneczem) to'plami kam uchraydi.Bargdan ko'ndalang kesim tayyorlash uchun asosiy tomir joylashgan barg bo'lagini, barg mayda bo'lsa, uni butunligicha olinadi.Ko'ndalang kesim shunday tayyorlanadiki, bunda preparatda asosiy tomir va mezofilning bir qismi bo'lishi kerak. Bunda asosiy tomirning shakliga, unda joylashgan o'tkazuvchi to'qimalar to'plamining soniga va

shakliga e'tibor beriladi. Utkazuvchi to'qima to'plamida floema va ksilemaning joylanishi, mexanik to'qimalar, kristalli qoplamlar bor yoki yo'qligiga e'tibor beriladi. Mezofilning tuzilishi — bargni dorziventral yoki izolateral (qoziqsimon to'qimani ikki tomonda bo'lishi) tuzilishi, paerenximani, oksalat kalsiy kristallarining joylar, shira saqlagan (sekretor) hujayralar va kanalchalar, sut naylari va boshqalarning bor yoki yo'qligiga ahamiyat beriladi. Barg sirtida qalin yoki qat-qat kutikula, tuklar, bezlar va boshqalar bo'lsa yaxshi ko'rindi. Poroshokdan tayyorlangan mikropreparatda butun barglarda ko'rish mumkin bo'lgan hamma diagnostik elementlarni uchratish mumkin. Ya'ni epidermisning xarakterli tuzilishi, to'qima bo'laklari, tuklar va ular bo'lagi, bezlari, oksalat kalsiy kristallari, kristalli qoplama bo'laklari, mexanik hujayralar — tolalar, toshsimon hujayralar, sekretor kanallar bo'lagi, suv naylari bo'laklari, etir moyli, smolali, pigmentli joylar, sut naylari va boshqalar ko'rindi.

Mahsulotni mikroskopda tekshirishga taylorlash.

Dorivor o'simlik mahsulotidan mikropreparat taylorlash uchun uni uymshatish kerak. Mahsulotni turli usullar bilan sovuq, issiq, suv bug'l yordamida yoki nam kamerada yumshatiladi.

QALAMPIR YALPIZ BARGLARI –*Folia Menthae piperitae*

O'simlikning nomi. Qalampir yalpiz – *Mentha piperita* L.

Oilasi. Yasnotkadoshlar – Lamiaceae



Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Mahsulot cho'ziq tuxumsimon yoki lantsetsimon, qisqa bandli, o'tkir uchli, arrasimon notekis qirrali barglardan iborat. Barglaming uzunligi 8 sm gacha, eni 3 sm gacha bo'lib, ustki tomoni to'q yashil, pastki tomoni esa och yashil rangda. Ikkinchi tartibdagi tomirlar yo'g'on tomirdan burchak hosil qilib chiqqan va uchlari bilan birlashib, barglar chetida parallel chiziq hosil qilgan. Mahsulotning hidi o'tkir va yoqimli bo'lib, mazasi tilni achitib, uzoq vaqtgacha muzdek qiladi.

Mahsulotning mikroskopik tuzilishi. Ishqor eritmasida qaynatib va suvda yuvilgan bargning tashqi tuzilishi mikroskop ostida ko'rildi (1-rasm).

Epidermis xujayralar devori egri-bugri, og'izchalar bargning har ikkala tomonida uchragan, ular ikkita epidermis xujayra bilan o'ralgan (yasnotkadoshlar oilasiga xos). Barg epidermisining ustida ikki-to'rt xujayrali, qalin devorli, uzun, so'galli tuklari mavjud. Uzun tuklar kam bo'lib, faqat barg chetida va tomirlar ustida, bezli boshchali tuklar esa barg plastinkasining ustida tarqoq holda joylashgan. Bundan tashqari, bargning har ikkala tomonidan epidermisda kalta oyoqchasi bilan birikkan efir moyli bezlari mavjud. Bu bezlar 8 ta radius bo'yicha joylashgan efir moyi ishlab chiqaradigan xujayralardan tuzilgan. Efir moyi ishlab chiqaradigan bezlarda yig'ilgan moy kutikula qavati ostiga to'plangan. Yuqorida takidlanganidek barcha dorivor o'simliklarni mikroskopik tahlil qilish uchun avvalom bor dorivor o'simliklarni o'stirishni to'g'ri yo'lga qo'yish zarur. Mikroskopik tahlilda kutilgan natijalar o'z natijasini ko'rsatmasa demak o'simlik to'g'ri 'stirilmagan yoki o'simlik mahsulotlari o'z vaqtida yig'ib olinmagan yoki o'simlik mahsulotlari to'g'ri quritilmagan. Shuning uchun farmakognostik tahlilni to'g'ri olib boorish uchun farmakopeya talablariga asoslangan holda olb boriladi. Farmakognoziya amaliyotida amaliy ko'nikmalarni to'g'ri bajarish uchun labaratoriya jixozlarini to'liq taminlanishi zarur. Bunda mikraskop, buyum oynachalari, lupa, shpatel, nurli o'lcha undagi elaklar, pinset, suvli ajratmalarni ajratib olish uchun kolba, menzurka, suv hamomi, labaratoriya quritgichlari, mahsulotni taxlash uchun mini stilyajlar, reaktivlardan ishqor, fenol ftalien, metilen ko'ki, qora

tush, parafin bo'lakechalari, xlor-tux-yod eritmasi, mis oksidining ammiakdag'i eritmasi, floroglutsining spirtdag'i eritmasi, konsentrangan xlorid kislota, aniline sulfat kislota, lugol eritmasi, sudan III-eritmasi, a-naftol eritmasi, konsentrigan sulfat kislota, xloralgidrat eritmasi, yorituvchi suyuqlik, glitserin, qizdirish uchun spirtovka, elektro plitka, suv haminomi va turli o'lchamdag'i keskichlar yordamida olib boriladi. Yuqorida qayd qilingan jixozlami amaliyotda qo'llash uchun eng birinchi navbatda ularni texnik sozligi va ayniqsa mikroskoplarni yorug'likni obektga nisbatan nur sindirish ko'rsatgichini to'g'ri o'lchamda berishini tanuinlashni farmatsevt mikroskop vintlari, nur yig'uvchi oynalarini, to'g'irlab olishi zarur. Mahsulot chinligini va uning o'z nomiga to'g'rilibini fuiqlash uchun birinchi navbatda umumiy reaksiyalar undan keyin o'ziga xos sisat va rangli reaksiyalarni o'tkaziladi va shu tartib bo'yicha keying tahlillar olib boriladi bularga albatta bularga organoleptik usullardan foydalanish maqsadga muvoffiq.



Qalampir yalpiz bargining tashqi ko'rinishi.

A – bargning yuqori epidermisi; B- bargning pastki epidermisi: 1 – efir moyli bezlar; 2 –oqizcha; 3 – boshchali tuk; 4 – qat-qat joylashgan kutikula; 5 – oddiy tuk.

Mikrokimyoviy reaksiya. Alovida tayyorlangan mikropreparatga sudan III tomizilib qizdirilib, bezlar mikroskop ostida ko'rildi, bezlar zarg'aldoq-qizil rangga bo'yaldi (efir moyi). Tekshirilayotgan mahsulot o'zining tashqi ko'rinishi,

mikroskopik tuzilishi va mikrokimyoviy reaksiya natijasi bo'yicha qalampir yalpiz barglari – Folia Menthae piperitae nomiga javob beradi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Mavzuga oid dorivor o'simliklarning barglari ularning morfologik diagnostik belgilarini tasvirlang.
2. Barglar, gullar va yer ustki qismi morfologik guruhlarga kiruvchi dorivor o'simlik mahsulotlarining namunalarini va ularga oid me'yoriy-texnik xujjatlamni o'rganib, ularni lotincha va o'zbekcha nomlarini yod oling.
3. O'rganilayotgan mahsulotning mikroprerparatini tayyorlang va uni mikroskop ostida o'rganib, mazkur mahsulotga tegishli me'yoriy-texnik xujjatning «Mikroskopiya» bo'limida keltirilgan diagnostik belgilarini toping. Bayonnomda daftarga o'rganilgan mahsulotning anatomik tuzilishini chizing.
4. O'rganilayotgan dorivor o'simlik mahsulotiga tegishli me'yoriy-texnik xujjatda ko'rsatilgan sifat reaksiyalarini bajaring. Reaksiya jarayonini va olingan natijalarni tushuntiring.
5. O'rganilayotgan dorivor o'simlik mahsuloti chinligi (mahsulotning nomiga to'g'ri kelishi) haqida xulosa bering.

Masala: Dorivoro'simlikmahsuloti–qalampir yalpiz barglari chinligini XI DF ning 2-qismidagi 18-maqolasi bo'yicha aniqlang.

Nazorat savollar

1. Farmakognoziya fani haqida tushuncha bering
2. Quyidagi iboralarni izohlang: a) dorivor o'simlik; b) dorivor o'simlik mahsuloti; v) dorivor vosita; g) ta'sir etuvchi modda; d) birga uchraydigan yoki yo'ldosh birikmalar.
3. Barglar – Folia, yer ustki qismi – Herba va gullar – Flores morfologik guruhlarga kiruvchi dorivor o'simlik mahsulotlariga tushuncha bering.
4. Farmakognostik tahlil maqsadlari.

5. Farmakognostik tahlil usullariga qisqacha tavsif bering: a) makroskopik tahlil; b) mikroskopik tahlil; v) kimyoviy tahlil (sifat reaksiyalari); g) lyuminessent tahlil.

6. Dorivor o'simlik mahsulotini makroskopik tahlildan o'tkazishda barglar, yer ustki qismi va gullarning diagnostik ahamiyatga ega muhim bo'lgan morfologik belgilarini ko'rsating.

7. Dorivor o'simlik mahsulotini mikroskopik tahlildan o'tkazishda barglar, yer ustki qismi va gullarning anatomik tuzilishidagi diagnostik ahamiyatga ega bo'lgan muhim belgilarini ko'rsating.

Nazorat testlar

1. “Farmakognoziya” so‘zining ma’nosil?

“pharmacon” – zahar, dori; “gnasis” – ilm
“pharmacon” – kitob; “gnasis” – so‘z
“pharmacon” – atrof; “gnasis” – o’simlik
“pharmacon” – o’simlik; “gnasis” – so‘z

2. Fan sifatida o‘rganilayotgan Farmakognoziya qanday so‘zdan olingan?

yunoncha
lotincha
nemischa
ingilizcha

3. DF da tasvirlangan dorivor mahsulotlar qanday mahsulotlar hisoblanadi?

offitsional mahsulotlar
noofitsional mahsulotlar
dorivor mahsulotlar
dori preparati

4. Ko‘hna Rimda qaysi shifokorlar farmakognoziya bilan chuqr shug‘ullanganlar?

Teofrast va Galen

Aristotel va Galen

Galen va Pliniy Starshiy

Gipokrat va Aristotel

5. Shifekor Galen yozgan kitobida nechta dorivor o'simlik, hayvon va mineral moddalar tasvirlagan?

150 ta dorivor o'simlik, 30 ta hayvon, 20 ta mineral modda

100 ta dorivor o'simlik, 50 ta hayvon, 30 ta mineral modda

200 ta dorivor o'simlik, 40 ta hayvon, 50 ta mineral modda

304 ta dorivor o'simlik, 80 ta hayvon, 60 ta mineral modda

6. O'zbekiston "Qizil kitobi"ga nechta dorivor o'zimlik kiritilgan?

163 ta

140 ta

230 ta

420 ta

7. "As-Saydana fit-tib" yoki "Tibblyotda Farmakognoziya" asarini yozgan olim?

Abu Rayhon Beruniy

Ismoil Jurjoniy

Abdul Axundov

Abu Mansur Muvafiq

8. Farmatsiya professori Yu.K.Trapp qachon birinchi marta farmakognoziya darsligini rus tilida yaratgan?

1725-yilda

1745-yilda

1858-yilda

1916-yilda

9. 1978-yilda "Ibn Sino" nomidagi dorivor o'simliklar o'stiriladigan davlat xo'jaligi qayerda tashkil qilingan?

Namangan viloyati Pop tumanida.

Namangan viloyati To'raqurg'on tumanida.

Andijon viloyati Marxamat tumanida.

Farg'ona viloyati Quva tumanida.

10. Dorivor o'simliklar yer ostki qismi mahsulotini tayyorlaydigan muddat?

erta bahorda, kech kuzda, ayrim yovvoyi past bo'yli o'simliklamiki gullab bo'lgach.

mevasi pishganidan keyin, kuz boshlarida.

o'simlik gullaganidan oldin yoki gullab bo'lgach.

gullahdan oldin yoki yozda.

11. O'simlikning yer ustki qismi, guli, bargini quritish qoldasi...

shamol kirib turadiga xonadonlarda, oftob tushmaydiga shiyponlarda.

oftobda yoki quritgichlarda.

quritgichda 50-70 daraja issiqlikda.

soya salqin joylarda.

12. V tomlig "Tib qonunlari" asarl qachon va kim tomonidan yaratilgan?

1020-yilda Abu Ali ibn Sino tomonidan.

1940-yilda Abu Mansur Muvafak.

1760-yilda Arab Muhammad o'g'li Rozixon.

1040-yilda Zakari ar-Raziy tomonidan.

13. Gulhayri ildizi tarkibidagi asosiy kimyoviy birikmalar nomi

shilliq modda, kraxmal, saxaroza.

yog', oqsil, edir moylari.

inulin, kraxmal, yog', oqsil.

oshlovchi moddalar, flavonoidlar.

14. Dorixona ukropi o'simligining lotincha nomi?

Foeniculum vulgare

anisum vulgare

Foeniculum sativum

Foeniculum tripartite

15. Kimyoviy tarkibi bo'yicha Shilliq moddalarda qaysi moddani saqlaydi

pentozan va geksozanlar

fenol unumlari

antratsen unumlari, kumarinlar

aldegid va ketonlar

16. Shilliq moddalarning o'simlik uchun qanday ahamiyati borligini belgilang

qurg'oqchilik

issiqlikdan saqlab qolib

ko'payishida

urug'ini unib

PO'STLOQLARNINIG FARMAKOGNOSTIK TAHLIL QILISH USULLARI

PO'STLOQ



Farmadevtika amaliyotida «po'stloq» (koru — Cortex) deb daraxt va butalarning poya, shox va iddizining kambiya qismigacha joylashgan tashqi qismi hisoblanadi. Ular asosan, bahorda, o'simlik tanasida suyuqlik yura boshilagan vaqtida shilib olinadi va quritiladi. Po'stloq mahsulot har xil o'lchamli naysimon, tamovsimon yoki yapaloq shaklli bo'laklardan iborat. Unin makroskopik tahlili quruq materialda olib boriladi. Bunda po'stloq bo'lakchalarining shakliga, katgakichikligiga va ayniqsa ularning qalinligiga e'tibor beriladi. Po'stloqning tashqitomoni probka bilan qoplangan bo'ladi. Bunda probkaning rangi, tashqi ko'rinishi (tekis, burishgan, g'adir-budur), shakli, yasmiqchalarining rangi, lishayniklarning bor-yo'qligiga e'tibor beriladi. Po'stloqning ichki tomoni teshik yoki qobirg'ali, rangi tashqi tomoniga qaraganda ochroq bo'ladi. Po'stloqning chinlipshi aniqdayotganda yana uning ko'ndalanshga xarakterli sinishiga katta ahamiyat berish kerak, chunk bu po'stloqdagi mexanik elementlarning borligiga va ularning o'ziga xos tuzilishiga bog'liq. Po'stloqning ko'ndalang sinishi tolali (yog'ochlangan ingichka tolalarining borligi tufayli). Po'stloqning hidi uni sindirib yoki skalpel bilan qirib aniqlanadi. Po'stloqning chinligini aniqlashda uning

suvdagi qaynatmasi yoki po'stloqning o'zi bilan qilinadigan kimyoviy sifat reaksiyalari yordam beradi.

PO'STLOQLAR MIKROSKOPIYASI

O'simlik po'stlog'i mikroskopiyasini tekshirayotganda undan ko'ndalang kesim va kam hollarda uzunasiga kesim tayyorlanadi. Buning uchun po'stloq bo'lagi avval namlanib, keyin suv—glitserin—spirit (1:1:1) aralashmasiga olinadi. Yumshatilgan po'stloq bo'lagi ustara bilan kesib tekislanadi va buyum oynachasidagi suv-xloralgidrat eritmasiga yoki glitseringa joylashtiriladi va qoplagich oynacha ilanberkitib, ravshanlashtirish va havoni chiqarish uchun biroz qizdiriladi. Ba'zi elementlarning tuzilishini va moddalarini aniqlash uchun kerak bo'lsa preparatni boshqa reaktivda ham ko'rildi. Po'stloqning ko'ndalang kesimini mikroskopda tekshirayotganda po'kakning qalinligiga va tuzilishiga (ba'zida po'kak hujayralarining rangi diagnostika uchun ahamiyatga ega, masalan, 'fran gula po'stlog'i) kollenxiimaning borligiga, birlamchi va ikkilamchi po'stloq qulinligining o'zaro nisbatigu, o'zak nur hujayralarining ning kengligiga c'tibor beriladi. Po'stloqni diagnostika qilishda mexanik elementlar: lub tolalari, toshsimon xujayra va ularning tuzilishi joylanishi, soni xal kiluvchi ahamiyatga ega Lub tolalarini tereidlar) quyoshsymon hujayralaming (sklereidlar) tuzilishi va katta-kichikligi po'stloqning uzunasiga kesimida yaxshi ko'rindi. Po'stlokda lub tolalari ko'pincha to'p-to'p bo'libai. Ba'zi o'simliklarning po'stlog'ida sut naylariva cfir moyi bo'lib, bu ham mahsulotni aniqlashda yordam beradi. Po'stlokda ko'pincha kalsiy oktsalat kristyalari bo'lib, ular alohida parenxima hujayralaryda yoki tolalar atrofida ularni o'rab oluvchi parenxima hosil qilgan holda uchraydi. Po'stloqni o'rganishda gistokimyoviy reaksiyalar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular yordamida asosiy ta'sir etuvchi modsalar borligi aniqyadi. Po'stloq kukuni uchun ksilema elementlarning yo'qligi va mexanik elementlardan yakka holdagi toshsimon hujayralarning va tola to'plamlarining to'p-to'p bo'lib joylanishi o'ziga xos hisoblanadi. Undan tashqari kalsiy oktsalat kristallari po'kak bo'laklari (ayniqsa, u o'ziga xos rangga ega bo'lsa) po'kak kukunining taxlili uchun katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga

reaksiyalar,kukunni quruq haydash (frangula po'stlog'i) ham kukunni aniqlashga yordam beradi.

EMAN (dub) PO'STLOG'I – Cortex Quercus

O'simlikning nomi. Oddiy eman (dub) - *Quercus robur L.*

Oilasi. Qoraqayindoshlar - Fagaceae.




Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Mahsulot har xil uzunlikdagi 30 sm gacha, 6 mm gacha qalinlikdagi naychasimon yoki tarmovsimon po'stloq bo'lakchalaridan iborat. Po'stloqning ustki tomoni och qo'ng'ir tusli, yaltiroq, silliq, yorilmagan, yasmiqchali, ichki tomoni esa sariq-qo'ng'ir rangli, uzunasiga juda ko'p ingichka qirrali. Po'stloq sindirilganda tolali. Xidsiz, kuchli burishtiruvchi mazali.

Mahsulotning mikroskopik tuzilishi. Sovuq usulda yumshatilgan po'stloqning flyuroglyutsin eritmasi va xlorid kislota bilan bo'yalgan ko'ndalang kesimi mikroskop ostida ko'rildi.

Po'stloq tashqi tomondan probka to'qima bilan qoplangan . Uning ichkarisida esa po'stloq parenximasini joylashgan. Po'stloq parenximasida guruh holida lub tolasi va toshsimon xujayralar hamda lub tolasi bilan toshsimon xujayralar galma-gal o'mashib hosil qilgan tutash mexanik xalqa (belbog') mavjud. Agar mexanik xalqa uzilib ketgan bo'lsa (po'stloq yorilganda), mahsulot past sifatli (qari) hisoblanadi, tekshirilayotgan mahsulotda xalqa uzilishi kuzatilmadi. Mexanik xalqa hamda lub tolalari va toshsimon xujayralar flyuroglyutsin va xlorid kislota ta'sirida qizil rangga bo'yaldi. Ichki po'stloqda bir

qator joylashgan xujayralardan iborat o'zak nurlar mavjud. Ular orasida esa guruh-quruh bo'lib joylashgan qalin devorli lub tolalari bor. Parenxima xujayralarida druzlar mavjud.



Eman po'stlog'ining ko'ndalang kesimi.

1 - probka (po'kak) qavati; 2 - kollenxima; 3 - druzlar; 4 - mechanik xalqa (belbog'); 5 - toshsimon xujayralar; 6 - kristallar bilan qoplangan stereidlar (lub tolalari); 7 - o'zak nur xujayralar.

Sifat reaksiyalar. Po'stloqning ichki tomonini temir-ammoniyli achchiqtosh eritmasi bilan namlanganda qora-ko'k rangga bo'yaldi.

Maydalangan po'stloqdan 0,1 g olib, 2-3 daqiqa davomida 10 ml suv bilan qaynatildi. Ajratma sovigandan so'ng filtrlandi. 1 ml filtratga temir-ammoniyli achchiqtosh eritmasidan 2-3 tomchi qo'shilganda qora-ko'k rang hosil bo'ldi (oshlovchi moddalar). Tekshirilayotgan mahsulot o'zining tashqi ko'rinishi, mikroskopik tuzilishi va sifat reaksiyalarini natijalari bo'yicha eman po'stloqi – Cortex Quercus nomiga javob beradi.

Mustaqil tuyyorlanish uchun savollar

1. Maydalangan po'stloqdan 0,1 g olib, 2-3 daqiqa davomida necha ml suv bilan qaynatildi
2. Po'stloqning ichki tomonini temir-ammoniyli achchiqtosh eritmasi bilan namlanganda qanaqa rangga bo'yaldi.

3. Mekanik xalqa hamda lub tolalari va toshsimon xujayralar flyuroglyutsin va xlqid kislota ta'sirida qanaqa rangga bo'yaldi

4. Po'stlog tashqi tomondan qanaqa to'qima bilan qoplangan

5. Eman po'stlogning ustki tomoni qanday rangda

Masala: Dorivor o'simlik mahsuloti – eman (dub) po'stlog'inining chinligini XI DFning 2-qismidagi 3-maqolası bo'yicha aniqlang.

Nazorat savollar

1. Oddiy eman lotin tilida nomlanishi

2. Mahsulotlar qanday uzunlikda bo'ladi.

3. Barglar – Folia, yer ustki qismi – Herba va gullar – Flores morfologik guruhlarga kiruvchi dorivor o'simlik mahsulotlariga tushuncha bering.

4. Farmakognostik tahlil maqsadlari.

5. Farmakognostik tahlil usullariga qisqacha tavsif bering: a) makroskopik tahlil; b) mikroskopik tahlil; v) kimyoviy tahlil (sifat reaksiyalari); g) lyuminessent tahlil.

NAZORAT TESTLARI

1. Agar dorivor mahsulot butun holda bo'lsa, ustki ko'rinishi bo'yicha qanday tahlil qilinadi

makroskopik

mikroskopik

kimyoviy

fizikaviy

2. Dorivor o'simlik mahsulotlarining yuqori sifatli ekanligini qaysi tahlil usuli yordamida aniqlanadi?

tovarshunos

biologik

kimyoviy

fizikaviy

3. Makroskopik tahlilni qaysi asbob yordamida olib boriladi?

lupa

mikroskop

fonidoskop

ochki

4.Dorivor o'simlik mahsulotlaridagi ruxsat etilgan aralashmalrga kirmaydi:

shisha bolaklari.

zaxarli bo'lмаган boshqa o'simlik qismlari .

mahsulotni maydalangan qismi.

qum,tuproq, mayda toshlar.

5. Tahlil usullari necha xil bo'ladi?

5 ta

2 ta

6 ta

4 ta

6. o'simlik maxzsulotini tayyorlashda tartib bilan bajarganda nechta amaliy ish bajariladi?

7ta

4ta

5ta

8ta

7.TMD qoshida dorivor o'simlik tayyorlovchilar uchun profilaktika ishlarini tashkil etish ruxsat etiladmi ?

ruxsat etiladi.

ruxsat etilmaydi.

ba'zan ruxsat etiladi.

1 yilda 1 marta.

8.Farmatsiya ishlab chiqarish birlashmasida har yili necha tonnaga yaqin dorivor o'simliklardan maxsulotlar tayyorlanadi?

60-70 t

40-50 t
80-90 t
100-110 t
9. Yiq'ib olsinadigan Dorivor o'simliklarning 48% qanaqa sharoyitda o'sadi?

yavvoyi.

jamoa xo'jaligidan.

aralash.

o'mmonda

10. Tibbiyotda ishlatalishi kerak bo'lgan Dorivor o'simliklarning 30 % qanday joylarda o'stiriladi?

planitatsiya

yovvoyi

aralash

ekma

11. Qanday qoidalari asosida o'stirilgan dorivor o'simlik serhosil va ko'pincha faol moddalarga boy bo'ladi?

agrotexnik

plantatsiya

farmokapeya

BDOI

12. O'zbekiston Respublikasida dorivor o'simliklar 1-marta nechinchi yildan boshlab davlat xo'jaliklarida ekila boshlandi?

1973-yil

1977-yil

1976-yil

1974-yil

13. Qizil kitobiga nechta o'simlik kirgan?

444 ta

445 ta

443 ta

442 ta

14. Plantatsiyalar o'stiriladigan o'simlik necha yoshga kirgandan so'ng ildizi kovlab olinadi ?

2-3 yoshga

1-2 yoshga

3-4 yoshga

1-4 yoshga

15. Omborxonalarda dorivor maxsulotlar saqlanadigan so'rilar balandligi necha m gacha bo'ladi ?

4 m

5 m

3 m

2 m

16. Maxsus xonalarda dorivor maxsulotlar saqlanadigan so'rilarining o'zaro oralig'i qancha bo'ladi ?

50 sm

60 sm

70 sm

80 sm

17. Offitsial dorivor maxsulotlarni saqlash muddatini qaysi vazirlik belgilaydi?

SSV

DAST

SST

Farm/komitet

18. Kurtaklar qachon yig'ib olinadi ?

erta bahorda

kech kuzda va erta bohorda

kech kuzda

kech bahorda

19.Dorixonada dorivor o'simlik mahsulotidan qanday preparat tayyorlanadi?

qaynatma , damilama

eritma.

kukun . sharbat.

tabletka.

20.Standartlar ta'sir qillish sohasi va tasdiqlash turlarini ko'rsating ?

davlat standarti, soxa standarti.

davlat standarti.

soxa standarti.

korxona standarti.

21.Gullar qachon yig'ib olinadi ?

qiyg'os gullaganda.

kech kuzda.

baxorda.

yozda.

22. 1900- yilda bosilib chiqqan kitobida o'simlik mahsulotlarining anatomik tuzilishini tasvirlab bergan olimni toping?

A.V Tixomerov

N.I Annenkov

N.M Maksimov

D. Gurchinin

23. Botonika lug'atini qaysi olim tuzgan ?

N.I. Annenkov

A.Tixomerov

Abu Rayxon Ibn Sino

Varlix

24.Nechinchi yili O'zbekistonda farmakognoziya fanini o'qitish keng yo'iga qo'yildi ?

1950-yil

1921-yil

1978-yil

1983-yil

25.Hozirgi paytda tibbiyotda nechaga yaqin dorivor o'simliklar maxsulotidan foydalaniladi ?

250-ga yaqin

300-dan ortiq

500-ga yaqin

250-dan ortiq

26. kletchatka qaysi eritma tasirida binafsha rangga bo'yaladi ?

xlor -ruxyod

natriy -oltingrgurt

temir -kislorod

kislorod -natriy

27.Fotosintez jarayonining birlamchi hosilasi qaysi modda?

uglevodlar

yo'g'lar

polisaxaridlar

monosaxaridlar

28. o'stirilgan dorivor o'simlik qanday qoidalari asosida o'stirilganda dorivor o'simlik serhosil va ko'pincha faol moddalarga boy bo'ladi ?

agrotexnika

gen injeneriyasi

farmokapeya maqolasi bo'yicha

oddiy ekma

29. Standartlar ta'sir qilish sohasi va mazmuni va tasdiqlash turlarini ko'rsating ?

davlat standarti

soxa standarti

VFS

DF

30. Quyidagi o'simlikning yer osti organlari ko'rsatilgan qatorni ko'rsating ?

ildiz, ildizpoya, tugunak va piyozi.


ildiz, ildizpoya.

tugunak va piyozi.

barg, gul.

O'SIMLIK ILDIZ, ILDIZPOYA, TUGANAK, PIYOZBOSHLARNI FARMAKOGNOSTIK TAHLIL QILISH USULLARI

Корневые системы



Ildiz, ildizpoya va tuganak o'simliklarning er osti qisini hisoblanadi. Mahsulot tarkibiga qarab ildiz (koren), ildizpoya (kornevishe), ildizpoya va ildiz (kornevishe i korni) yoki ildizpoya bilan ildiz (kornevishe s komyami), tuganak (kluben), piyozboshi (lukovitsa) deb nomlanadi. Usimlikning er ostki qismlari dorivor mahsulot sisatida asosan kuzda yig'ilib yuviladi (ba'zilari yuvilmaydi), poya qoldig'idan, yldizpoyali barglarda va bu'zida mayda idsizlarda hamda chirigan, qurigan qismlardan tozalanadi, ba'zida quritishni tezlashtirish uchun yirik ildiz va ildizpoyalar bo'laklarga (uzunasiga, ko'ndalangiga) qirqiladi. Ba'zi bir mahsulotlar po'kagidan tozalanadi (gulxayri, qizilmiya ildizlari va boshqalar).

O'simlik er osti qismlarining makroskopik tahlilida ildiz, idsizpoya, tuganak va piyozboshning shakli, katta-kichikligi, tashqi va ichki tomondan rangi, sindirilganda beradigan hidri va mazasi aniqlanadi. Po'kagidan tozalanmagan mahsulot uchun tashqi tomonining tuzilishi ularning o'ziga xos xarakterli belgisi hisoblanib, u tekis yoki burishgan (uzunasiga yoki ko'ndalangiga burishgan), olib tashlangan ildizoldi barglar bandi, qirqilgan poya va ildizlar qurigan o'mi bo'lishi mumkin. Ildiz va ildizpoyalarning o'ziga xos sinishi (tekis, tolali, zirapchali va boshqalar) to'qimalarning strukturasiga, avvalo mehnat elementlarning ko'rini shiga (toshsimon hujayralar, lub yoki ksilema tolalari) bog'liq bo'lib, uni aniqlash tashxisiy ahamiyatga ega. Er ostki qismlarini makroskopik tahlil qilishda ularning ko'ndalang kesimida o'tkazuvchi to'qima elementlarning joylanishiga (odsiy ko'z bilan yoki lupa, stereomikroskop yordamida ko'riladi) e'tibor beriladi. O'tkazuvchi

to'qima elementlarining joylanishiga qarab er ostki qismilari bir necha xil tuzilishga ega:

1. Ikki pallali o'simliklarni o'tkazuvchi to'qimalar bog'lamsiz tuzilgan ildiz va ildizpoyasi. Bunda ildizda yog'ochlangan qismi yalpi silindr shaklida, po'stloqdan kambiy chizig'i bilan ajralgan, o'zak nurlari aniq va noaniq ko'rinishga ega bo'lib, ko'ndalang kesimda radial chiziq hosil qiladi. Bog'lamsiz tuzilgan ildizpoya va gorizontal joylashgan er osti ildizpoya novdalari (stolonlar) markazida o'zagi bo'ladi (ildizdan farqli). Mayda va ingichka ildizlarni lupa ostida ko'rilmaga o'tkazuvchi to'qimalar aniq ko'rinnmaydi.
2. Ikki pallali o'simliklarni o'tkazuvchi to'qimalar bog'lamli (to'dali) tuzilishga ega bo'lgan ildizpoyasi. O'tkazuvchi to'qimu bog'lamlari halqa hosil qilib oylashadi, marqazda esa o'zak bo'ladi.
3. Bir pallali o'simliklarning bog'lamli tuzilishga ega bo'lgan siz joylashgan bo'ladi.

Ildizpoyaning po'stlog'ida va inarkaziy silindrida o'tkazuvchi to'qima to'plamlari katta-kichikligi va ularning joylanishiga qarab har xil bo'ladi. O'simlik er ostki qismilarning mikroskopik tuzilishini tekshirish uchun ko'ndalang kesim tayyorlanadi. Buning uchun tekshirlayotgan material sovuq usul bilan umshatiladi. O'tkazuvchi to'qimalarning tuzilishini bilish uchun ildiz, ildizpoyaning o'itasidan (radius bo'ylab) kesim tayyorlab va mikroskopda kattalashtirilib ko'rildi. Yupqa kesim mikroskopning kichik ob'ektivida ko'rildi. Kesim oddiy qizdirilmay ko'rildi. Bunda kraxmalning borligiga iqror bo'lgach uning shakli katta-kichikligiga c'tibor beriladi. Undan keyin preparatni qizdirib ravshanlashtiriladi va mikroskopik tuzilishi mukammalroq o'rganiladi. Yorituvchi suyukdik sifatida xloralgidrat, gliserin va suv ishlatiladi. Ba'zi elementlarning tuzilishi va moddalar tabiatini aniqlash uchun o'ziga xos reaktivlar yordamida yoritiladi. Qirqilgan mahsulotning mikrosskopiyasini ko'rish uchun undan «bosilgan» preparat tayyorlanadi. Ildiz va ildizpoya kukunini o'rganish zahiradagi ozuqa moddalarini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun preparat kukuni suvda yoki Lyugol eritmasida (kraxmal) yoki Sudan III eritmasida (yog'lar)ko'rildi. Diagnostik


ahamiyatga ega bo'lgan alohida to'qima elementlarini o'rganishda preparatni xloralgidratga joylashtiriladi qizdiriladi va keyin mikroskopda ko'ri-
ladi. Ildiz va ildizpoya tekshirilayotganda uning tuzilishiga (birlamchi yoki ikkilamchi tuzilishiga), o'tkazuvchi to'qimalarning joylanishiga (bog'lamli yoki bog'lamsiz) c'tibor beriladi. Bog'lamli tuzilishda o'tkazuvchi to'qima bog'lamlarining tuzilishiga (ochiq yoki yopiqligiga), kollateral yoki konsentrikligiga, hamda ularning joylanishiga c'tibor beriladi. Bog'lamsiz tuzilishda esa o'zagining tuzilishiga, unda suv naylarining joylanishiga, o'zak nur hujayralarining kengligiga e'tibor beriladi. Suv naylarining va traxeidlarning ikkilamchi qalinlanishi (spiral, to'rsimon,narvosimmon va h. k.) diagnostiku uchun katta ahamiyatga ega bo'lib,bu ko'ndalang radius bo'yicha qirqilgan kesimda yaxshi ko'rindi.Ildiz, idsizpoya va tuganakni aniqlashda lubni o'tkazuvchi to'qima elementlari uncha katga ahamiyatga ega emas. Faqat ba'zi bir o'simliklarda lubning g'alvirsimon naychalarini o'simlik o'sgan sari o'zining o'tkazuvchi to'qima funksiyasini yo'qolgani tusayli qiyofasi o'zgarib, shaklsiz holatga kiradi (qizilmiya, zirk va boshqalarda).Bu holatda shaklini o'zgartirgan lub bu mahsulot uchun xarakterli hisoblanadi. O'tkazuvchi to'qimalarning umumiy qoidadan boshqacharoq joylanishi bu o'simliklar uchun diagnostik ahamiyatga ega. Lekin shuni ham qayd qilish kerakki, lubning g'alvirsimon naylari ko'ndalang kesimda uncha yaxshi ko'rinnigani uchun (ular atrofidiagi parenxima hujayralaridan birmuncha maydaroq) ular mahsulotni diagnostika qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega emas.Ba'zi oilalarning o'simliklari (ituzumdoshlari, kendirdoshlari va boshqalar) qo'shimcha lub borligi bilan ifodalanadi. Masalan, belladonna o'simligining ildizyda markaziy silindr hujayralarining orasida kendirming ildizpoyasida esa o'zagida qo'shiinchacha lub bo'ladi.Ba'zi bir ildiz va ildizpoyada sut naylari (kendir, qoqio't)bo'lib, boshqa birida efir moyi yoki smola saqlaydigan joylar (qora andiz, jenshen, levzeya) bo'ladi va bularning tuzilishi, shakli va ildiz hamda ildizpoya to'qimalarida joylanishi katta diagnostic ahamiyatga ega. Ildiz, ildizpoya va tuganak parenximasida doimo ozuqa modsalaridan ko'pincha kraxmal, murakkabguldoshlari oilasiga kiruvchi

o'simliklarda inulin, boshqa bir o'simliklarda (poligala, erbaho, qırquloq) yog'lar bo'lib, ular borligi mahsulotni aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa bunda kraxmalning katta-kichikligi, shakli (odsiy-yumaloq, oval, ko'pburchakli va h. k. murakkab 2-3 yoki k o'p donachali) diqqatga suzovordir. Ko'p o'simliklarning er ostki organlari yana kalsiy oksalat krisgallarini ham saqlaydi. Ildiz, ildizpoya va tuganakni mikroskop ostida aniqlashda asosiy ta'sir etuvchi modsalar: shilliq moddalar, efir moyi borligini bilish uchun gistokimyoviy reaksiyalardan foydaluniladi va ayni bir vaqqda asosiy ta'sir etuvchi modsalarning to'planish joylarini ham aniqlash mumkin. Ildiz, ildizpoya va tuganak kukunini tahlil qilishda tashxis uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan suv naylari va traxeid bo'laklari (suv naylari va ularning ikkilamchi qalinligi), mexanik elemenglar (tolalar, toshsimon hujayralar) borligi aniqlanadi. Ba'zi ob'ektlarda — suv naylari, sekretor joylar yoki ularning bo'laklari hamda u yoki bu asosiy ta'sir etuvchi modsalari bo'lishi va ularning kerakli reaktivlar yordamida aniqlanishi er ostki qismlarini diagnostika qilishda ahamiyatlidir. Dorivor mahsulot birinchi darajada zararlangan bo'lsa, dezinfektsiya qilingandan keyinoq uni ishlatib yuborish lozim. Agar mahsulot ikkinchi va uchinchi darajada zararlangan bo'lsa-yu uni oson tayyorlash imkonи bo'lsa, tashlab yuboriladi, qimmatbaxo, tayyorlash qiyin dorivor mahsulotlar tezda tozalanib navlarga ajratilgach ishlatiladi.

GULXAYRI ILDIZLARI – RADICES ALTHAEAЕ

O'simlikning nomi. Dorivor gulxayri – *Althaea officinalis* L.

Oilasi. Gulxayridoshlar – Malvaceae




Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Mahsulot silindrsimon, uchiga qarab bir oz ingichkalashgan, ustki tomoni sarg'ish-oq, uzunligi 35 sm gacha, diametri 0,5-1,5 sm li ildiz bo'lkalaridan iborat. Ildiz sertolali bo'lib, sindirilganida osonlik bilan darrov titilib ketgan. Mahsulot o'ziga xos hid va shirin mazali.

Mahsulotning mikroskopik tuzilishi. Ildizning ko'ndalang kesimida ikkilamchi po'stloqdagi tolalar – stereidlar guruhi va kraxmal donachalariga to'la parenxima xujayralari mavjud. Ayrim yirik va tuxumsimon xalta xujayralarida shilliq moddalar, shuningdek, parenxima xujayralarida druzlar mavjud. Ksilema traxeidlar bilan o'rалган katta suv naylari va parcnxima xujayralaridan tashkil topgan. Ksilemada xam ko'p miqdorda shilliq moddalar, kraxmal donachalar va druzli xujayralar uchraydi. Katta va juda ko'p kraxmal donachalar bilan to'lgan o'zak nur xujayralari ksilemadan po'stloq tomon yo'nalgan. Shilliq moddali xalta xujayralar qora tushda bo'yab aniqlandi.

Mikrokimyoviy renksiyalar. Ildizning ko'ndalang kesimi ishqor eritmasi bilan namlanganda sariq rang hosil bo'ldi (shilliq moddalar).

Flyuroglyutsin eritmasi va kontsentrlangan xlорид kislota ta'sirida ildiz tolalari qizil rangga kirmadi, demak ular yoqochlanmagan. Bu esa ildizning yuqori sifatli ekanligidan dalolat beradi. Farmakognoziya amaliyotida amaliy ko'nikmalarni to'g'ri bajarish uchun labaratoriya jixozlarini to'liq taminlanishi zarur. Bunda mikraskop, buyum oynachalari, lupa, shpatel, turli o'lchamdag'i elaklar, pinset, suvli ajratmalarni ajratib olish uchun kolba, menzurka, suv hamomi, labaratoriya quritgichlari, mahsulotni taxlash uchun mini stilyajlar, reaktivlardan ishqor, fenol ftalien, metilen ko'ki, qora tush, paafin bo'lakchalari, xlор-rux-yod eritmasi, mis oksidining ammiakdag'i eritmasi, floroglutsining spindagi eritmasi, konsentrangan xlорид kislota, aniline sulfat kislota, lugol eritmasi, sudan III-eritmasi, a-naftol eritmasi, konsentrigan sulfat kislota, xlорalgidrat eritmasi, yorituvchi suyuqlik, glitserin, qizdirish uchun spirtovka, elektro plitka, suv hammomi va turli o'lchamdag'i keskichlar yordamida olib boriladi.



Gulxayri ildizining ko'ndalang kesimi.

1 – stereidlar; 2 – shilliq moddali xujayra; 3 – druz; 4 – kraxmal; 5 – o'zak nur xujayralari; 6 – kambiy; 7 – suv naylari; 8 – traxeidlar.

Tekshirilayotgan mahsulot o'zining tashqi ko'rinishi, mikroskopik tuzilishi va mikrokimyoviy reaksiyalari natijalari bo'yicha gulxayri ildizlari – Radices Althaeae nomiga javob beradi. Mikroskopya tahlilni olib borishda farmakopeya talablari bo'yich xuddi shu tartibda tekshirish olib boriladi

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Ildizning ko'ndalang kesimi ishqor eritmasi bilan namlanganda qanaqa rang hosil bo'ladi.
2. Ildiz, ildizpoya, tuganak va piyozboshni makroskopik tahlildan o'tkazish jarayoni.
3. Dorivor o'simlik mahsulotini makroskopik tahlildan o'tkazishda ildiz, ildizpoya, tuganak va piyozboshning diagnostik ahamiyatga ega bo'lgan muhim morfologik belgilarini ko'rsating.
4. Ildiz, ildizpoya, tuganak va piyozboshni mikroskopik tahlildan o'tkazish jarayoni.

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

- Ilovalarda keltirilgan 1-chizmadan foydalanilgan holda mavzuga oid dorivor o'simliklar bilan gerbariy, jadval va slaydlar bo'yicha tanishing. Ularning morfologik diagnostik belgilarini tasvirlang.
- Ildizlar, ildizpoyalar, tuganaklar va piyozboshlar morfologik guruhlarga kiruvchi dorivor o'simlik mahsulotlarining namunalari (vazifa – modellari)ni va ularga oid me'yoriy-texnik xujjatlarni o'rganib, ularni lotincha va o'zbekcha nomlarini yozing tashqi ko'rinishini tasvirlang.
- O'rganilayotgan mahsulotning mikropreparatini tayyorlang va uni mikroskop ostida o'rganib, mazkur mahsulotga tegishli me'yoriy-texnik xujjatning «Mikroskopiya» bo'limida keltirilgan diagnostik belgilarini toping. Bayonnomadaftarga o'rganilgan mahsulotning anatomik tuzilishini chizing.
- O'rganilayotgan dorivor o'simlik mahsulotiga tegishli me'yoriy-texnik xujjatda ko'rsatilgan sifat reaksiyalarini bajaring. Reaksiya jarayonini va olingan natijalarini tushuntiring.
- O'rganilayotgan dorivor o'simlik mahsuloti chinligi (mahsulotning nomiga to'g'ri kelishi) haqida xulosa bering.

Masala: Dorivor o'simlik mahsuloti – gulxayri ildizlarining chinligini XI DFning 2-qismidagi 6-maqolasi bo'yicha aniqlang.

Nazorat savollar

1. Flyuroglyutsin eritmasi va kontsentrlangan xlorid kislota ta'sirida ildiz tolalari qanaqa rangga kiradi
2. Ayrim yirik va tuxumsimon xalta xujayralarida shilliq moddalar. shuningdek, parenxima xujayralarida qanaqa qo'shimcha xujayralarr mavjud.
3. parenxima xujayralaridan tashkil topgan qanday naylardan tashkil
4. Ksilcimada yana qanday xujayralar mavjud
5. kraxmal donachalar bilan to'lgan o'zak nur xujayralari ksilcimadan qaysi xujayra tamon yo'nalgan.

Nazorat testlar:

1. Tuganakni lotincha nomi:

tuber

rhizoma

bulbus

bulbotuber

2. Piyozni lotincha nomi:

bulbus

rhizoma

tuber

bulbotuber

3. Lotin tilida Piyozboshni nomlanishi:

bulbotuber

rhizoma

bulbus

tuber

4. Daraxt yelimlari qanday vazifani bajaradi?

o'simlikni chirishdan, qurishdan saqlaydi

o'simlikni qurishdan saqlaydi

mevalar xosildorligini oshiradi

o'simlik usishini tezlashtiradi

5. O'simlikning yer ustki qismiga nimalar kiradi?

gul, barg, meva

ildis, ildispoya

piyozboshi

tuganak

6. Kurtakning lotincha nomi?

gemma

flores

radix

bulbus

7. Bargning lotincha nomi?

folium

fruktus

cortex

herba

10. Gulning lotincha nomi?

Flos

fructus

tuber

rhizoma

11. Urug'ning lotincha nomi?

semena

tuber

herba

fructus

12. Ildizning lotincha nomi?

radix

gutta

capsula

pulvis

13. Po'stloqning lotincha nomi?

cortex

oleum

pasta

emulsiya

14. Dorivor o'simlik bu -

biologik faol modda saqlovchi va tibbiyotda qo'llaniladigan o'simliklar.

o'simlik yoki uning qismi dori sifatida foydalanish uchun tasdiqlangan shakli.

hayvon organizimidan olingan va tibbiyotda qo'llaniladigan birikma.

gomeopatik dori vositalar olish uchun ishlatiladigan o'simliklar.

15. Tekshirilayotgan do'rivor o'simlik mahsuloti bu-

o'simlikning butun yoki qismlaridan qo'llanishiga ruxsat etilgan mahsulot.

tibbiyotda qo'llaniladigan biologik faol modda saqlovchi o'simlik.

qaynatma va damlama tayyorlash uchun ishlatiladigan quritilgan.

qadoqlangan quritilgan va maydalangan dorivor o'simlik mahsuloti.

16. Biologik aktiv modda bu-

dori vosita,dori preparatlarni orivor o'simlikning butun yoki qismlaridan olingasan qo'llanishiga ruxsat etilgan mahsulot.

odañ va hayvon organizimiga asosiy ta'sir etuvchi, o'simlik tarkibidagi kimyoviy birikmalar.

dori vositalari olinadigan individual kimyoviy biriknalar saqlovchi dorivor mahsulot.

davolash maqsadida qo'llaniladigan dorivor o'simlik mahsuloti

17. Mahsulotini chinligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

nomi bo'yicha

sonli ko'satkich

yaroqlik muddati

ta'sir ko'rsatishi bo'yicha

18. Olinishi kerak bo'lgan o'simlik mahsulotlarini yaroqligi quyidagi ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi:

me'yoriy hujjatdagi hamma talablar bo'yicha.

tarkibidagi aralashmalar bo'yicha.

yaroqlik muddati bo'yicha.

nomi bo'yicha.

19. Farmatsevtika amaliyotida «barg» (- Folium) deb

quritilgan bandli yoki bandsiz barg mahsulot tushuniladi.

fotosintez fuksiyasini bajaradigan shoxning bir qismi tushuniladi
tibbiyotda qo'llaniladigan o'simlikning tushiniladi.

o't o'simligining quritilmagan va quritilgan qismiga tushiniladi.

20. Mikroskopik tahlilida dorivor o'simliklar bargining diagnostik

belgilari

murakkab ustisalar

endodermani tuzilishi

o'tkazuvchi nurlar

ezilgandagi hid

21. Po'stloqda to'qimalar joylashgan:

hechqayerda

birlamchi po'stloqda

ikkilamchi po'stloqda

birlamchi va ikkilamchi po'sloq chegarasida

22. Po'stloqdan mikroskopik tahlil o'tkazilganda qanaqa xujayralarni ko'rish mumkin :

toshsimon hujayralar

o'tkazuvchi nurlarning joylashishi va tuzilishi

efir moy bezlari

hujayralar

23. Galenfarmatsiya va tibbiyot sohasidagi kitoblarida qancha o'simlikdan dorilarni to'liq tavsitlagan?

1000-dan ortiq

100-dan ortiq

304-dan ortiq

500 –dan ortiq

24.Qaysi olim 1900- yilda bosilib chiqqan kitobida o'simlik mahsulotlarining anatomik tuzilishini tasvirlab bergan?

V.Tixomerov

N.I.Annenkov

N.M.Maksimov

D.Gurchinin

25. Botonika lug'atini qaysi olim tuzgan ?

N.I.Annenkov

A.Tixomerov

Abu Rayxon Ibn Sino

Varlix

26.Nechinchi yili O'zbekistonda farmakognoziya fanini o'qitish keng yo'liga qo'yildi ?

1950-yil

1921-yil

1978-yil

1983-yil

27.Hozirgi paytda tibbiyotda nechaga yaqin dorivor o'simliklar maxsulotidan foydalaniadi ?

250-ga yaqin

300-dan ortiq

500-ga yaqin

250-dan ortiq

28.Fotosintez jarayonining birlamchi hosilasi qaysi modda?

Uglevodlar

yo'g'lar

polisaxaridlar

monosaxaridlar

29. Qanday qoidalari asosida o'stirilgan dorivor o'simlik serhosil va ko'pincha faol moddalarga boy bo'ladi ?

agrotexnika

gen injeneriyasi

farmokapeya maqolasi bo'yicha

oddiy ekma

30. Quyidagi qatordan o'simlikning yer osti organlari ko'rsating ?

ildiz, ildizpoya, tugunak va piyoza.r

ildiz, ildizpoya.

tugunak va piyoza.r .

barg, gul.

DORIVOR O'SIMLIK MAHSULOTLARINI QABUL QILISH VA ME'YORIY HUJATLAR ASOSIDA TAXLIL QILISH

Dorivor O'simlik mahsulotlarini tovarshunoslik tahlili



Tovarshunoslik tahlili farmakognoziya fani uchun o'ziga xos bo'lib, uning yordamida dorivor mahsulotlarni sifati hamda tozaligi aniqlanadi. Tovarshunoslik tahlili bajarshida maxsulotning sifatini baholovchi hujjatlardan MTH (meyoriy texnik hujjar) foydalaniladi. MTH - quyidagi kategoriyaga bo'linadi:

Farmakopeya maqolasi (FM);

Vaqtincha farmakopeya maqolasi (VFM);

Davlat standarti (DST);

Ayrim sohaga tegishli standart (SST).

Agar mahsulot tibbiyotdan boshqa soxalarda ham ishlatsa, (masalan qizilmiya) MTH sifatida DST faqat tibbiyot uchun qo'llanilsa, mahsulotlarga MTH sifatida SST qabul qilsa bo'ladi. Agar dorivor mahsulot Davlat farmakopeyasiga kiritilgan bo'lsa, Farmakopeya maqolasi (FM) yoki (VFS) ga, aks holda DST yoki SST larga amal qilingan holda mahsulotlar qabul qilinadi va tovarshunoslik tahlili o'tkaziladi.

Tovarshunoslik tahlili 2 bosqichda olib boriladi:

1-bosqich. Maxsulotni qabul qilish va o'rtacha namuna olish.

2-bosqich. Mahsulotni tahlil qilish.

1.1. Maxsulotni qabul qilish

Dorivor o'simlik mahsulotlarini odatda ko'p miqdorda partiya-partiya qilib qabul qilinadi. Og'irligi 50 kg dan kam bo'Imagan har taraflama bir xil bo'lgan, uni sifatini tasdiqlovchi bitta hujjat bilan rasmiylashtirilgan mahsulotlar to'dasi partiya hisoblanadi.

1. Partiyada ilova qilingan hujjatda quyidagi ma'lumotlar bo'ladi:

2. Hujjatning nomeri, uni berilgan oy, kun va yili;

3. Jo'natgan korxonaning nomi va manzili;

4. Mahsulotning nomi;

5. Partiya nomeri;

6. Partiya og'irligi;

7. Yig'ilgan yoki terilgan yili va oyi;

8. Tayyorlangan joyi;

9. Mahsulotni sifatini tekshirish natijalari;

10. Mahsulotga meyoriy hujjat belgilash;

11. Mahsulotni sifatiniga javobgar shahsni ismi, sharifi, lavozimi va imzosi.

Dorivor o'simlik mahsulotlarini farmatsevtika zavodi va dorixonalarda qabul qilish uchun quyidagilarga rioya qilinadi (DST 6077-80):

- GOST-Davlat standarti (ГОСТ)
- OCT-Ayrim soxaga tegishli standart (OCT)
- BTY-vaqtinchalik texnik shartlar DF-davlat farmakopeyasi
- FC-Farmakopeya maqolasi
- STP-Korxona standarti
- VFM-Vaqtinchalik farmakopeya maqolasi

1. Qabul qilinayotgan partyaning tashqi ko'rinishini umumiyl tekshirish (odatda hamma o'rinalar birlma - bir tekshirib chiqiladi).
2. Dorivor mahsulot upakovkasi ochiladigan joyni tanlash.
3. Qabul qilinayotgan partyaning bir xilligini va nuqsonnini aniqlash.

1.2.Tahlilga namuna olish

Partiyaning har qaysi o'sin birligining umumiyligi tashqi ko'rinishi tekshiriladi. Bunda mahsulot solingen idishni zararlanmaganligiga, namlanmaganligiga, DST 6077-80 bo'yicha to'g'ri upakovka, markirovka qilinganligiga c'tibor beriladi. O'rtacha namuna olish partiyaning soni va o'lchamiga bog'liq.

Agar partiya 5 tagacha bo'lsa, hammasi ochiladi.

Agar partiya 10 ta bo'lsa, 5 tasi ochiladi.

Agar 10 tadan ko'p bo'lsa, birinchi 5 ta o'ringa qo'shimcha yana har bir 10 tasidan 1 dona ochiladi. Upakovkasi ochilganda dorivor mahsulot rangiga, maydaligiga, namligiga, tozaligi-ga, xidiga, bir xilligi va boshqalarga ahamiyat beriladi. Agar bir xil bo'limasa, o'sha idishdagi mahsulot alohida tahlil qilinadi. Ruxsat etilmaydigan nuqsonlar bo'lsa, brak qilinadi yoki navlarga ajratiladi.

1. Bir sutka shamolatilganda ketmaydigan badbo'y va yot xidi bo'lsa, yoki o'ziga xos xidni yo'qotgan bo'lsa;
2. Zaxarli o'simliklar aralashmasi bo'lsa;
3. Begona o't yoki mineral moddalarning hamda qush va xayvonlarning chiqindilari ko'p bo'lsa;
4. Dorivor mahsulot mog'orlagan va chirigan bo'lsa;
5. Ombor zararkunandalar bilan 2-3 darajali zararlangan bo'lsa.

Dorivor mahsulot birinchi darajada zararlangan bo'lsa, dezinfektsiya qilingandan keyinoq uni ishlatib yuborish lozim. Agar mahsulot ikkinchi va uchinchi darajada zararlangan bo'lsa-yu uni oson tayyorlash imkonini bo'lsa, tashlab yuboriladi, qimmatbaxo, tayyorlash qiyin dorivor mahsulotlar tczda tozalanib navlarga ajratilgach ishlatiladi. Tahlil o'tkazish uchun har bir tovar o'mining 3 ta qismi, ya'ni yuqori, o'rta va pastki qismidan namuna olinadi. Bu usul namuna olish (vo'emka) deb ataladi. Olingan namunalar bir xil bo'lsa ularni qo'shib boshlang'ich namuna hosil qilinadi. Shuning uchun boshlang'ich namuna miqdori juda ko'p bo'lishi mumkin. Tekshirish uchun boshlang'ich namunadan ajratib olingan qism har xil mahsulotlar uchun turlicha miqdorda bo'lib o'rtacha namuna deb ataladi. O'rtacha namuna olish uchun boshlang'ich namunani tekis kartonga

kvadrat qilib tekis yoziladi va diagonal bo'yicha 2 ta chiziq o'tkaziladi va qarama-qarshi uch burchaklardagi mahsulotlar olinada. Boshqa qarama - qarshi uch burchakdagagi mahsulot paketga solinib muxrlanib arbitraj uchun saqlab qo'yiladi.

Olingan o'rtacha namuna esa teng bo'limgan 3 qismga - namunalarga bo'linada:

1-chi qism chinligini, maydalangan qismini, aralashmalmi aniqlash uchun;

2-chi qism esa namligini aniqlash uchun;

3-chi qism esa mahsulotning umumiyl kuli va biologik ta'sir qiluvchi moddani miqdorini yoki ta'sir kuchini aniqlash uchun ishlataladi.

1.3.Dorivor mahsulotlarni tovarshunoslik tahlilqilish

Mahsulot qabul qilib olingandan keyin tahlil qilinadi. Tovarshunoslik tahlili dorivor mahsulotni sifati va tozaligini aniqlash uchun bajariladi.

Mahsulot siftini aniqlash uchun tovarshunoslik tahlili DS, ST va FM yoki VFM qo'llanmalar asosida tekshiriladi.

Dorivor mahsulot identifikasiya, ya'ni chinligi aniqlangandan keyin tovarshunoslik tahlili yordamida quyidagilar aniqlanadi:

Mahsulotning qoraygan, sarg'aygan qismlari;

Maydalangan qismlari;

Xasharotlar bilan zararlanganlik darajasi;

Organik aralashmalar;

Mineral aralashmalar va boshqalar borligi miqdoriy jixatdan aniqlanadi.

Mahsulotni tayyorlash, quritish, tashish, upakovka va h.o. lami to'g'ri olib borilsa yuqoridagi ko'rsatgichlar o'zgarib ketadi, ta'sir qiluvchi moddani miqdori kamayib, sifati buziladi. Agar mahsulotda ruxsat etilmaydigan aralashmalar bo'lmasa, ruxsat etilganlari me'yordan oshmasa u toza hisoblanadi. Organik aralashmalar deganda boshqa o'simliklarning qismlari, somon, xashak ,qipiqlik va boshqalar tushuniladi. Mineral aralashmalar esa kesak, tosh, shisha va boshqalardan iborat. O'rtacha namuna maxsus elakda elanib ajratib olinadi va tarozida tortiladi. Elakdan o'tmay qolgan qismini karton ustiga yoyib, qoraygan,

sarg'aygan bo'lakchalar, organik va mineral aralashmalar ajratilib tarozida tortiladi va og'irligi bo'yicha foizi topiladi va tovarshunoslik tahlili natijalari bo'yicha mahsulotni qabul qilish yoki qilib bo'lmaslik bo'yicha protokol tuziladi.

1.4. Dorivor mahsulotlarning ombor zararkunandalari bilan zararlanganlik darajasini aniqlash

Ombor zararkunandalardan un kanasi, ombor uzuntumshug'i, don qayroqchisi, ombor kuyasi katta zarar keltiradi. Bulardan tashqari kemiruvchilar ham havfli hisoblanadi.Ombor zararkunandalari: un kanasi – o'rgimchakka o'hshash, oq rangli mayda hasharot;

Ombor uzuntumshug'i - qo'ng'ir rangli mayda qo'ng'izcha:

Don qayroqchisi - qo'ng'ir rangli ;

Ombor kuyasi - dorivor mahsulotlarga katta zarar keltiradi.

Dorivor mahsulotlaming zararlanganligi darajasini aniqlash uchun ularni teshigini diametri 0,5 mm (kanalar uchun) yoki 2,5 mm (uzun tumshuq uchun) bo'lgan elakda elanadi. Elakdan o'tgan poroshokdagi zararkunandalar lupa orqali aniqlanadi. Agar elakdan o'tgan qismida 20 ta kana bo'lsa - 1 daraja.

Agar elakdan o'tgan qismida 20 tadan ortiq bo'lsa-yu kolonna xosil qilmagan bo'lsa 2 darajali, agar kanalar juda ko'p bo'llib, yurishiga joy qolmagan bo'lsa 3 darajali zararlangan hisoblanadi.Elakdan o'tgan qismida 1-5 ta uzun tumshuq bo'lsa mahsulot 1-darajali. Agar 6-10 ta bo'lsa, 2 - darajali. Agar 10 tadan ko'p bo'lsa 3-darajali, mahsulot zararlangan hisoblanadi. Ombor zararkunandalariga qarshi nam usulda yoki gaz berib dezinfektsiya qilinadi. Kerosin, oxak emulsiyasi, NaOH ni 10-15% li eritmalari qo'llaniladi.

1.5. Dorivor mahsulot namligini aniqlash

Analitik tarozida aniq tortilgan 3-5 g atrofidagi mahsulotni doimiy og'irlikgacha quritilgan va tortilgan byuksga solinada. So'ngra 100-1050 da doimiy og'irlikgacha quritiladi. Keyin 30-50 minut eksikatorda sovitiladi va tarozda tortiladi. Keyingi ikki marta tortilgan byuks og'irligini farqi 0,01 g dan ortiq bo'lmasa mahsulot absolyut qurigan hisoblanadi. Namlik foizi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X = (a-b) * 100/a$$

x - namlik, %;

a - mahsulotning quritishdan oldingi og'irligi;

b - mahsulotni quritishdan keyingi og'irligi.



Qurituvchi pech.



Mahsulot solingan byuks.

1.5. Dorivor mahsulotdagi kul miqdorini aniqlash

Mahsulot yuqori temperaturada qizdirilsa, kulga aylanib, bu «umumiylkul» deyiladi. Umumiylkulni 10% li xlorid kislota eritmasi bilan qayta ishlanganda suvda eriydigan tuzlar hosil qilib, kuldagisi silikat angidrid esa cho'kmada qoladi. Bu cho'kma «o'lik kul» yoki «10% li xlorid kislotada erimaydigan kul» deb ataladi. Umumiylkul mahsulotni qacrdan terilganligaga ko'pincha bog'liq.


Yaxshi tozalanmagan, mineral aralashmalar ko'p bo'lgan mahsulotlardan 10% li NCI da erimaydigan kul miqdori ko'p bo'ladi. Aniqlash uchun 3-5 g mahsulotni aniq tortib olib mufel pechda yuqori temperaturada qizdirilib quritilgan tigclga solib tutun tugagungacha asta - sekin qizdiriladi va mufel pechda 500 C da doimiy og'irligacha quritiladi. Kuydirishni tezlatish uchun ammoniy nitrat qo'shish mumkin. Kulni umumiylkul miqdori quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$X = B * 100/a$$

x - umumiylkulning foiz miqdori;

a - mahsulotning og'irligi, g;

B - kuydirishdan so'ng qolgan kulning miqdori, g.



Tigel.

Mufel pechi.

1.6. Xlorid kislotada erimaydigan kulni aniqlash

Umumiy kul ustiga 2-3 ml 10% HCl solinib suv hammomida 10 minut qizdiriladi. So'ngra 5 ml issiq suv bilan suyultirib, kulsiz filtr qog'oz orqali filtrlanadi va filtr qogozni, qoldiq bilan birga tigelga solib kuydiriladi va mufel pechda yuqori temperaturada qizdiriladi.

Xlorid kislotada erimaydigan kulni miqdorini quyidagi formula bilan topiladi:

$$X = C * 100 / B$$

x - xlorid kislotada erimaydigan kulning foiz miqdori;

C - shu kulni og'irligi;

B - umumiy kul og'irligi.

1.7. Dorivor mahsulot tarkibidagi ekstrakt moddalar miqdorini aniqlashi

Biror erituvchi yordamida mahsulotdan ajratib olingan moddalar yig'indisi ekstrakt moddalar deb ataladi. Erituvchi sifatida suv va har xil (40%, 50%, 60%, 70%) spirtlar ishlataladi. Aniqlash texnikasi: Aniq tortib olingan 1 g mahsulotni konussimon idishga solib 50 ml erituvchi solinadi, tarozida tortiladi (0,01 t anqlikgacha) kolbani 1 soat tinch qo'yiladi, keyinsovutgich ulab sekin - asta qaynatiladi (2 soat). Kolbani sovutib, tarozida ilgari og'irligigacha o'sha erituvchidan qo'shiladi. Quruq filtr orqali boshqa idishga filtrlanadi. Undan 25 ml farfor idishga solib suv xammomida bug'latiladi va 100 - 1050 da 3 soat quritiladi.

Eksikatorda sovutiladi tarozda tortiladi. Quyidagi formula bo'yicha ekstrakt modda miqdori topiladi.

$$X = (a-b)/C$$

x - ekstrakt moddalarni foiz miqdori;

a - ekstrakt moddasi bilan quritilgan idishning umumiyligi;

b - bo'sh kosachani og'irligi;

C - mahsulotning og'irligi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Dorivor o'simlik mahsulotini tovarshunoslik tahlilini o'tkazishdan maqsad nima?
2. Tovarshunoslik tahlili nimadan boshlanadi va u qanday bajariladi?
3. Qaysi hollarda mahsulot analiz o'tkazmasdan brak qilinadi?
4. Partiya nima?
5. O'rtacha namuna olish tartibi?
6. MTX ni'ma va uning kategoriyalari?
7. Dorivor o'simlik mahsulotining namligi qanday aniqlanadi?
8. Dorivor o'simlik mahsulotining umumiyligi kuli nimani bildiradi va u qanday aniqlanadi?
9. Ombor zararkunandalari bilan zararlanganlik darajasi qanday aniqlanadi?
10. Maydalanganlik darajasini aniqlashning ahamiyati.

МАХСУЛОТЛАРИНИНГ

ОМБОР


ЗАРАРКУРАНДАЛАРИ :

a — омбор узун-тумшуғи;

b — дон кайроқчisi;

c — омбор күяси;

d — ун канаси



Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1. Tahlil uchun namunalar olish.
2. MTX asosida tahlil qilish.
3. Mahsulotning chinligini aniqlash.
4. Mahsulotning maydalanganligini aniqlash.
5. Organik va mineral aralashmalarni aniqlash.
6. **Masala:** Dorivor mahsulot temir yo'l vagonida kelgan. Quyidagi hollarda qanday ish tutish lozim:
 7. MTX asosida tahlil qilish.
 8. Mahsulotning chinligini aniqlash.
 9. Mahsulotning maydalanganligini aniqlash.
 10. Organik va mineral aralashmalarni aniqlash.
11. **Masala:** Dorivor mahsulot temir yo'l vagonida kelgan. Quyidagi hollarda qanday ish tutish lozim:
 12. Vagon eshigini plombasi buzilgan;
 13. Vagon tomini bir burchagidan chakka o'tib, mahsulotni bir qismi buzilgan;

14. Mahsulot uchun farmakopeya maqolasi va DS bor.

'Tovarshunoslik tahlili uchun qaysi MTX dan foydalanilsa bo'ldi?

Nazorat savollari

1.Dorivor o'simlik mahsulotini tovarshunoslik tahlilini o'tkazishdan maqsad nima?

2.Tovarshunoslik tahlili nimadan boshlanadi va u qanday bajariladi?

3.Qaysi hollarda mahsulot analiz o'tkazmasdan brak qilinadi?

4.Partiya nima?

5.O'rtacha namuna olish tartibi?

6.MTX nima va uning kategoriyalari?

7.Dorivor o'simlik mahsulotining namligi qanday aniqlanadi?

8.Dorivor o'simlik mahsulotining umumiy kuli nimani bildiradi va u qanday aniqlanadi?

9.Ombor zararkunandalari bilan zararlanganlik darajasi qanday aniqlanadi?

10. Maydalanganlik darajasini aniqlashning ahamiyati.

Nazorat testlar

1.Hashorotlar miqdori necha kg maxsulotga nisbatan olinadi ?

1- kg

6- kg

2- kg

4- kg

2. O'rgimchakka o'xhash oq rangli juda mayda hashorot bo'lib eng xafli ombor zararkunandasi hisoblanadi ?

ombor kuyasi

don qayroqchisi

sichqon

kalamush

3 . 72 dona mahsulotni qabul qilganda undan necha hajmi tekshiriladi:

8 edinits

5 dona

70 dona

hammasi

4. Olingan na'munalar bir xil bo'lsa ularni qo'shib nima xosil qilinadi?

na'muna olish

na'muna

boshlang'ich na'muna

o'rtacha namuna

5. Maxsulot quritgichlarda necha haroratda quritiladi?

40 C

50 C

70 C

60 C

6. Barg va gullardan preparat tayyorlash uchun ularni ishqor eritmasida necha minut qaynatiladi?

1 – 2 minut

4 – 5 minut

3 – 4 minut

3 – 5 minut

7. Partiyaga ilova qilingan hujjatda quyldagi ma'lumotlar bo'ladi-

korxona nomi, mahsulot nomi, og'irligi, sana.

korxona nomi, mahsulot nomi.

mahsulot nomi, og'irligi.

sana, korxona nomi.

8. VFM qisqa lekin necha yildan ziyor bo'lgan muddatga tasdiqlanadi?

3yildan

1yildan

2yildan

Syildan

9. So‘rilarning o‘zaro oralig‘i necha sm bo‘ladi?

50sm

10sm

20sm

25sm

10. Quritishning necha hil usuli bor?

tabiiy, suniy

oddiy usul

tabiiy usul

suniy usil

11. Aralashmalar nechi hil bo‘ladi?

organik va miniral

tabiiy va suniy usil

kimyoviy va fizikaviy

oddiy va murakkab

12. O’simlikning yer ustki qismiga nimalar kiradi?

gul, barg, meva.

ildis, ildispoya.

Piyozboshi.

Tuganak.

13. Urug‘ning lotincha nomi?

semena

tuber

herba

fructus

14. Biologik aktiv modda bu-

terapeutik ta’sirga ega bo‘lgan tabiiy birikmalar.

odam va hayvon organizimiga ta’sir etuvchi, o’simlik tarkibidagi birikmalar.

dori vositalari olinadigan kimiyoiy birkmalar saqlovchi dorivor mahsulot

davolash maqsadida qo'llaniladigan dorivor o'simlik mahsuloti.

15.Dorivor o'simlik mahsulotini chinligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

nomi bo'yicha

sonli ko'satkich

yaroqlik muddati

ta'sir ko'rsatishi bo'yicha

16.Tekshirilishi kerak bo'lgan dorivor o'simlik mahsulotlarini yaroqligi quyidagi ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi:

me'yoriy bujjatdagi hamma talablar bo'yicha

tarkibidagi aralashmalar bo'yicha

yaroqlik muddati bo'yicha

nomi bo'yicha

17. dona mahsulotni qabul qilganda undan necha hajmi tekshiriladi

4 dona

40 dona

5 dona

1 dona

18. 49 dona mahsulotni qabul qilganda undan necha hajmi tekshiriladi

5 dona

40 dona

50dona

10 dona

19.Qabul qilish paytida mo'g'orillagan mahsulot bo'lsa:

tozlanib, ikkinchi marta qabul qilinadi.

o'racha na'muna olish dalolatnomasi"bo'yicha qabul qilinadi.

galen reparatlarini ishlab, chiqish uchin farmasevtik zavodlarga yuboriladi.

qabul qilinmaydi.

20.Aniqlanayotgan mahsulotning ichida hayvonlarning chiqindisi aniqlansa:

qabul qilinmaydi

tozlanib, ikkinchi marta qabul qilinadi

“o’rtacha na’muna olish dalolatnomasi” bo'yicha qabul qilinadi

galen preparatlarini ishlab, chiqish uchin farmasevtik zavodlarga yuboriladi

21.Farmakognoziyada dorivor o’simlik mahsulotining organik aralashmasi deb:

zaxarli bo’limgan boshqa o’simlik qismlari .

o’simlikning rangini yo’qotgan qismlari

qum,tuproq, mayda toshlar

shisha bolaklari

22.Mineral aralashma bu:

qum,tuproq, mayda toshlar.

mineraldan kelib chiqqan aralashma.

mahsulotni yonishi va so’ng qizdirilgan keyingi og’irlik qoldig’i.

mayda toshlar.

23.Amaliyotda bargni taxlil qilgandauning o’ziga xos diagnostik belgilari

murakkab ustisalar

endodermani tuzilishi

o’tkazuvchi nurlar

ezilgandagi hid

24.Po’stloqda to’qimalar joylashgan:

birlamchi po’stloqda.

ikkilamchi po’stloqda.

birlamchi va ikkilamchi po’sloq chtgarasida.

Hechqayerda.

25. po'stlog'ini mikroskopik tahlil qilinganda o'ziga xos belgilarini ko'rsating:

toshsimon hujayralar.

o'tkazuvchi nurlarning joylashishi va tuzilishi.

efir moy bezlari.

Hujayralar.

26.Tarkibiga qarab maxsulotni qanday guruxlarga bo'lib saqlanadi?

захарги ва кучли таъсир этувчилар.

эфир мойи сакловчилар.

мева ва уруглар.

коліган усимликлар.

27.Hozirgi paytda tibbiyotda nechaga yaqin dorivor o'simliklar maxsulotidan soydalaniladi ?

250-ga yaqin

300-dan ortiq

500-ga yaqin

250-dan ortiq

29. Qaysi eritma tasirida kletchatka binafsha rangga bo'yaladi ?

xlor -ruxyod

natriy -oltingrgurt

temir -kislorod

kislorod -natriy

30.Fotosintez jarayonining birlamchi hosilasi qaysi modda?

uglevodlar

yo'g'lar

polisaxaridlar

monosaxaridlar

TARKIBIDA POLISAXARIDLAR BO'LGAN DORIVOR

O'SIMLIKLAR VA MAHSULOTLAR

Farmatsiya sohasida ishlaydigan yuqori malakali xodimlar tarkibida polisaxaridlar saqlagan dorivor o'simlik mahsulotlarini tayyorlash, quritish, saqlash va tahlil qilishni yaxshi bilishlari kerak. Shuning uchun talabalar o'simliklarni morfologik tasvirlash, mahsulotni chinligini, sifatini va tozaligini aniqlash bo'yicha amaliy tajribalarga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Talabalarda polisaxaridlar saqlovchi dorivor o'simliklarning tashqi ko'rinishini tasvirlash, dorivor o'simlik mahsulotlarining chinligini, sifatini va tozaligini, ishlstilishi, dori turlari hamda kimyoviy taxlil usullari bo'yicha amaliy bilimlami mustahkamlash. Polisaxaridlar - amorf ba'zan cristal holidagi, yuqori molekulali birikmalar bo'lib, molekulyar og'irligi 2 mingdan bir necha million daltongacha bo'ladi. Polisaxaridlarga shilliq moddalar, yelimlar, pektin moddalari, kraxmal kirib, ular monosaxaridlar qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekulali uglevodlardir. Ular geksoza, pentoza, metilpentoza va uron kislotalari qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekulali kislotalarning kaltsiyli, magniyli va kaliyli normal tuzlaridan tashkil topgan.

Polisaxaridlardan tibbiyotda hamda farmatsevtika amaliyotida kraxmal, shilliq moddalar, daraxt yelimlari va pektin moddalar saqlagan preparatlar ishlatiladi.

Polisaxaridlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. *Kristal holidagi polisaxaridlar* (oligosaxaridlar yoki qandsimon polisaxaridlar). Ular asosan geksoza va pentozalardan tashkil topgan kristall holidagi shirin, suvda yaxshi eriydigan molekula og'irligi turg'un bo'lgan moddalardir.
2. *Yuqori polisaxaridlar* (qandsimon bo'limgan polisaxardlar). Bular shirinmas, suvda erimaydigan yoki suvda erigan holda kolloid eritma hosil qiladigan yuqori molekulalibirikmalar – polimerlaridir. Ularning molekulyar massasi 200.000 ga yaqin. Suvda eriydi, eritma sovutilsa quruq massa - jolega aylanadi.

Yuqori polisaxaridlar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

- a) Gamopolisaxaridlar - bir xil qand qoldiqlaridan tashkil topgan glikonlar (kraxmal, glikogen, dekstrin, selluloza) fruktozadan tashkil topgan polifruktozalar (inulin) va boshqalar.
- b) Geteropolisaxaridlar - ikkita turli qand qoldiqlaridan tashkil topgan (glyukoza va mannozadan tashkil topgan - glyukomannon-eremurron; galaktoza va mannozadan - galaktamannonlar), bir nechta monosaxaridlar qoldiqlaridan tashkil topgan (o'simlik shilliq moddalari, daraxt climlari) moddalardir .

Kraxmal - Amylum

Kraxmal o'simliklarda eng ko'p tarqalgan moddalardan hisoblanadi. U ayrim o'simliklarda 86% gacha to'planishi mumkin. Kraxmal ma'lumki,fotosintsez natijasida o'simlikni xlorofilli bor joyida hosil bo'lib so'ngra o'simlikni meva,urug'ida va er ostki qismlarida to'planadi. Ba'zan poyada ham to'planishi mumkin (palmani ayrim turlari). O'simlik uchun kraxmal zapas ozuqa sifatida xizmat qiladi.Kraxmal olish usullari bir necha bo'lishi mumkin. Masalan, kartoshka tuganagidan kraxmal olish uchun kartoshka qirilada va maxsus moslamada suv bilan bir necha marotaba yuviladi. Yuvilgan suvni esa tindiriladi. Kraxmal esa cho'kib qoladi. Suvni to'kib tashlanadi va kraxmal quritiladi. Olingan kraxmalda namlik 20% gacha bo'lishi mumkin. Urug' mevalardan kraxmalni ajratib olishga oqsil moddalar va boshqa suvda erimaydigan moddalar halaqit qiladi. Shuning uchun meva va urug'ni idishda uzoq vaqt suvda achitiladi. Natijada oqsil moddalar va boshqalar suvda eriydigan moddalarga pachalanadi va cho'kkan kraxmaldan yuqoridagi usul bilan ajratib olinadi va quritiladi. Kraxmalni fizik va kimyoviy xususiyatlari. Kraxmal xidsiz, mazasiz, rangsiz poroshok bo'lib, barmoq orasida ishqalansa g'ichirilaydi. Suvsiz kraxmalning zichligi 1,620 - 1,650 ga teng. Kraxmal sovuq suv, spirit, organik erituvchilarda erimaydi. Issiq 70-75 li suvda donachalari shishib yoriladi va yopishqoq suyuqlik - kleyster (kraxmal elimi) hosil bo'ladi. Kleyster bu qutblangan numi o'ngga buradigan kolloid eritmadir. Sifat reaksiyasi. Kraxmal yod eritunasi ta'sirida ko'k rangga bo'yaladi.

Kraxmal kislotalar. ishqorlar, diastaza fermenti ta'sirida gidrolizlanadi. Gidroliz kislota ta'sirida glyukozaga, diastaza ta'sirida disaxarid - maltoza hosil bo'ladi.

Gidrolizlangan kraxmaldan bir qancha oraliq moddalar hosil bo'ladi (Dekstrin). Kraxmal donachasi pardadan va parda ichidagi moddadan iborat bo'lib, ular tuzilishi jihatidan bir - biridan farq qiladi. Parda - amilopektindan, uning ichidagi modda esa amilozadan iborat. Amiloza - maltoza unumi. Kraxmal donachasini amilopektin va amilozadan tuzilganligini aniqlovchi reaktsiya. Buyum oynachasi ustiga kraxmalni suvdagi aralashmasidan ozgina solib, ustiga 1-2 tomchi 3% li KON eritmasidan tomiziladi. qoplag'ich oyna bilan yorib mikroskopni kichik ob'ektivida ko'rildi. Mikroskopda kraxmal donachasini shishib, uni yorilishi va yo'q bo'lishi kuzatish niumkin. Preparatdagi ishqorni neytrallash uchun 1% CH₃COOH eritmasidan 1 - 2 tomchi tomiziladi, gidroliz natijasida hosil bo'lgan ayrim - ayrim ho'lakchalar binafsha, ba'zilari esa ko'k rangga bo'yaladi. Shulardan binafsha rangga kirgani amilopektin, ko'k rangga bo'ylagini amiloza hisoblanadi. Tibbiuotda va farmatsevtikada 4 ta o'simlikdan olingan kraxmal ishlatiladi. Ular bir biridan donachalarini katta-kichikligi, shaklini tuzilishi bilan farq qiladi.

1. Kartoshka kraxmali - Amylum Solam: K. (*Solanum tuberosum L.*) tuganagidan olinadi.
2. Bug'doy kraxmali - Amylum Tritici, bug'doy (*Triticum vulgare L.*) donidan olinadi.
3. Jo'xori kraxmali - Amylum Maydis, jo'xori (*Zea mays L.*) donidan olinadi.
4. Guruch kraxmali - Amylum Oryzae, sholi (*Oryza sativa L.*) donidan olinadai.

Kraxmal boshqa moddalar bilan barcha chaqaloqlarga sepiladigan poroshok va teriga surtiladigan moylar tayyorlashda ishlatiladi. Me'da va ichak kasalliklarida kraxmalni qaynatib tayyorlangan eritmasi - Decoctum (Mucilago) Amyli beriladi, Kleyster shimidrilgan bint travmatologiyada ishlatiladi. Dekstrin - Dextrinum eritmasi elim sifatida ishlatilada.

Inulin

Inulin ham kraxmal singari o'simliklar uchun zapas ozuqa sifatida kerak bo'lган yuqori molkulalı fruktozani polimeridir, suvda yaxshi eriydi. Lekin kraxmalga o'xshab ko'p tarqalmagan. Inulin ayrim oilalargagina mansub bo'lган 'simliklarni ko'pincha er osiki qismlarida to'planadi. Masalan, asraguldoshlar - qoqi o'

ildizida, sikoriy ildizida, qora andiz va boshqalarda. Inulin molekulasi 34 - 35 ta b - D - fruktofuranozadan tashkil topgan bo'lib, so'nggi fruktoza piranoza holida bo'ladi. Ko'pincha inulin tarkibida 10 - 12 fruktoza molekulasidan tashkil topgan inulinlar bilan aralashgan holida bo'ladi.

Pektin – Pectinum

Pektinlar bular asosan D-galakturon kislotalarining $1 \rightarrow 4$ uglerod atomlari orqali hosil qilgan polimerlari so'lib hujayra devorlarini 5% tashkil qiladi. Pektin tarkibidagi karboksil metoksil yoki Sa ionlari bilan bog'langan bo'lishi mumkin.

Sanoatda pektin lavlagidan olinadi (quritilgan lavlagini) yumshoq qismida 25% pektin bo'ladi), limonni va olmani sharbati siqib olingandan keyin qolgan qoldiqdan ham olinadi. Sanoatda pektin spirit bilan cho'ktirib olinadi.

Pektin moddalarni eng kerakli xususiyatlaridan biri, uning suvda yopishqoqroq kolloid eritma hosil qilishdir. Bu xususiyati uning molekulyar massasiga va galakturon kislotaning metoksillanganlik darajasiga va aralashma moddalarning miqdoriga bog'liqdir.

Farmatsevtikada pektin qimmatli emulgator, bog'lovchi modda sifatida o'llaniladi. Pektin moddalari dorivor o'simliklarda ko'p uchraganligi uchun, ular biologik ta'sir qiluvchi moddalar bilan bir qatorda ta'sir ko'rsatishini inobatga olmoq kerak.

Shillik moddalar va ularni saqlovchi dorivor o'simliklar

O'simlik tarkibida uchraydigan shilliq moddalarni tarkibi har xil bo'lishi mumkin, ular asosan pentozonlardan qisman geksozanlardan tashkil topgan bo'ladi. Shilliq moddalar asosan hujayru ichi va hujayra po'sti, hamda oraliq birikmalarning shilliqlanishidan hosil bo'lib, asosan 2 guruhga bo'linadi:

1. Normal shilliq moddalar, o'simlik xayoti uchun zarur modda sifatida hosil bo'ladi.
2. Patologik shilliq moddalar. Tashqi ta'siriga javoban ishlab chiqariladi, masalan daraxt singanda, lat eganda va h.o.

Normal shilliq moddalar o'simliklarning hamma organlarida bo'lishi mumkin. ular asosan epidermisda yoki shishshiq saqlovchi maxsus qujayralarda ham to'planadi.

Normal shilliq moddalar o'simlik hayotida muhim rol o'ynaydi. U o'simlik tanasida namlikni uzoq vaqt saqlab, qo'rg'oqchilik vaqtlarida o'simlikni qurib qolishidan saqlaydi. Urug'larni unib chiqishiga qadar suv bilan taminlaydi.

Shilliq moddalarini suvli critimalardan spirit bilan cho'ktirish usuli bilan olinadi. Kislota va ishqorlar ta'sirida gidrolizlanib 95% pentozalar (arabinoza va ksiloza) oz miqdorda ~ 5% geksozalar hosil qiladi. Mahsulot tarkibidagi shilliq moddalarini quyidagi sifat reaksiyalar bilan aniqlash mumkin.

1. Tarkibida shilliq moddalar bo'lgan mahsulotlar ishqor eritmasi ta'sirida sariq rangga bo'yaladi.

2. Mikroskopda ko'rish uchun kesilgan mahsulot.

Bo'lakchasiga metil ko'ki eritmasidan yoki CuSO₄ yoki 10% li ishqor eritmasidan tomizilsa, shilliq moddalar saqlovchi hujayralar to'q ko'k rangga kiradi.

1. Mahsulotga qora tush tomizilsa, shilliq moddalar bor hujayralar bo'yalmay, boshqa hujayralar esa qorayadi.

O'simliklardagi shillik moddalarini miqdorini aniqlash

1. Shilliq moddalar suvda erib yopishqoq kolloid eritma hosil kiladi. Bu eritmani yopishqoqligi erigan shilliq moddaning kontsentratsiyasiga to'g'ri proportsional. Shuning uchun mahsulotdan ajratib olingan suyuqlikni yopishkoqligiga qarab (Viskozimetr yordamida) aniqlanadi.

2. Ma'lum miqdordagi mahsulotdan shilliq moddalar sovuq suvda eritib olinadi va spirit bilan cho'ktiriladi. So'ngra cho'kna yuvilib, 60-800 quritib tortiladi. Shilliq moddalar % miqdord Shilliq moddali mahsulotlar, ularning dori turlari me'da-ichak kasalliklarida, nafas yo'llari shamollaganda o'rab oluvchi dori sifatida ishlatiladi, yo'talni qoldiradi, balg'am ko'chiradigan vosita sifatida ishlatiladi

Patologik shilliq moddalar yoki daraxt elimlari

Daraxt elimlari patologik shilliq moddalarning o'simlik to'qimalaridan oqib chiqib, po'stloqning jarohatlangan joyini qoplab qolishidan xosnl bo'ladi, shu bilan mikroorganizmlarni o'simlik tanasiga kirishi va uni chiritishdan saqlaydi. Bundan tashqari, elim o'simlik uchun (Astragal) zapas ozuqa sifatida ham xizmat qiladi.

Elim ko'pincha dukkakdoshlar (akatsiya, astragal) va ra'noguldoshlar (o'rik, shastoli, olcha, gilos) oilasiga kiruvchi buta va daraxtlarda xosil bo'ladi.

Elim ko'pincha e'ta bahorda vujudga keladi. Chunki yog'ingarchilik tufayli daraxt po'stlok iviydi va qurigandan so'ng po'stlok yoriladi va elim oqib chiqib yorilgan joyni qoplaydi. Elim kimyoviy tomondan geksoza va pentozalardan tashqari qand, elim kislotalarning kaliy, magniy, kaltsiy tuzlari ham uchraydi. Oqib chiqayotgan elim daraxti tarkibidagi har xil moddalarni o'zida critib olib chiqishni tusayli, rangi, tarkibi bilan bir - biridan farq qiladi. Yuqori sifatli elim rangsiz, yoki och sariq bo'lib o'ziga xos shirin mazaga ega. Organik erituvchilarda erimaydi, suvda erib kolloid critina xosil qiladi, spiritda cho'kadi. Elim suvda erishiga qarab 3 guruhga bo'linada.

1. Arabin - suvda yaxshi eriydigan elim.
2. Bassorin - suvda kam eriydigan, lekin suvda yaxshi shishadigan elim.
3. Serazin - suvda erimaydigan, kam shishadigan elim.

Bu elim issiq suvda qisman crishi mumkin. Tibbiuotda o'rab oluvchi sifatida, farmatsevtikada emulgator sifatida va texnikada ishlataladi.

Ko'ka bargi – Folia farfarae - лист мать и мачехи.

Ko'ka – *Tussilago farfara*L. - мать и мачехи.

Oilasi: Astradoshar - Asteraceae - астровые.



Ko'ka uzun, sudralib o'suvchi, ildiz poyalik ko'p yillik o't o'simlik. Erta bahorda bir nechta shoxlanmagan poya o'sib chiqadi. Poya tangachasimon bargchalar bilan qoplangan bo'lib poya uchida gullari savatchaga to'plangan. Savatcha chetidagi gullari tilsimon bo'lib bir necha qator joylashgan, o'rtaqilari naychasimon. Mevasi – uchmali pisto. Aprel – may oyida gullari (ildizoldi to'p barglari chiqmasdan oldin), may, iyulda mevasi pishadi. O'simlik gullab bo'lgandan keyin ildiz oldi barglari o'sib chiqadi. Geografik tarqalishi: MXDlari va O'rta Osiyoning tog'lik erlarida, daryo, ariq bo'yalarida o'sadi.

Katta zubturum bargi – *Folia plantaginis majoris*

(лист подорожника).



Katta zubturum - *Plantago major L.* - подорожник большой.

Zubturumdoshlari - *Plantaginaceae* - подорожниковые.

Zubturum ko'p yillik, ildizpoyali o't o'simlik. Er ustiga uzun qanotli, bandli ildiz oldi to'p barglari va gul o'qi o'sib chiqadi (1 yoki bir nechta). Guli mayda, ko'rimsiz. Gul kosachasi 4 bo'lakka qirqilgan, gultojisi och ko'ng'ir rangli 4 bo'lakli, otaligi 4 ta. Onalik tuguni ikki xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi - tuxumsimon, ko'p urug'li ko'sakcha. May - iyun oyida gullaydi. Geografik tarqalishi. MXD larning yo'l yoqularida, dala va ekinzorlarda, o'tloq va o'rmon chetlarida va ariq bo'yalarida o'sadi, va o'rmon chetlarida va ariq bo'yalarida o'sadi. Mahsulot tayyorlash. O'simlik bargi yil bo'yi ig'iladi va salqin erda quritiladi.

Mahsulotning tashqi kurinishi. Taylor maxsulot txumsimon, elepissmon, tekis qirrali, 5-9 tagacha yoysimon tomirlardan, uzunligi 8 sm, kalta bandli barglardan iborat. Mahsulot hidsiz, achchiqroq mazasi bor.

Ishlatilishi: Zubturum preparatlari me'da - ichak kasalliklari (gastrit, enterit, enterekolit) da ishlatiladi. Dorivor preparatlari. Dainlama, yangi yig'ilgan bargning shirasi, preparat - plantaglyutsid. Barg yo'talda beriladigan choy - yig'malar tarkibiga kiradi.

Tibbiyorda kattu zubturum bilan bir qatorda o'rta va lantsetsimon zubturum o'simliklari ham ishlatiladi.

O'rta zubturum - *Plantago media L.* (bargini ikki tomoni tukli kalta bandli).

Lantsetsimon zubturum - *Plantago lanceolata L.* (bargi lantsetsimon).

Burga zubturumi urug'i - semeni psyllil - семена подорожника блошного.



Burga zubturimi - *Plantago psyllinum L.* - подорожник блошиный.

Zubturumdoshlari - *Plantaginaceae* - подорожниковые.

Burga zubturumini bo'yi 10 - 40 sm keladigan bir yillikk o't o'simlik. Poyasi sershox, yuqori qismi bezli tuklar bilan qoplangan. Bargi chiziqsimon, qarama qarshi joylashgan. Gullari kalta, sharsimon boshoqqa to'plangan kosacha, toj barglari, otaligi to'rtadan, onalik tuguni ikki xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi - ikki urugli ko'sak. Iyulda gullaydi, urug'i avgustda etiladi.

Geografik tarqalishi. Faqat Ozerbayjonda yovvoyi holda uchraydi. Boshqa joylarda ekiladi. Mahsulot tayyorlash. Meva etilgandan so'ng o'rib olinadi, quritilib, elab olinadi. Malisulouning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot qayiqchasimon urug'dan iborat. Urug'ning ikki tomoni botiq, tashqi tomoni qabariq, ichiga qayirilgan. Usiki tomoni qizil jigarrang, hidsiz, shilliq mazaga ega.

Ximiyaviy tarkibi: Shilliq moddalar, glyukozid aukubin, moy, oqsil moddalar bor.

Ishlatilishi: Kuchsiz surgi dori va o'rab oluvchi vosita sifatida ishlatiladi. Dorivor preparatlari. Shilliq eritmasi - Mucilago psylii, yangi yig'ilgan o'simlik shirasi. Burga zubturumi urug'i bilan frangula ekstrakti aralashmasidan surgi dori - purgenol tayyorlanadi. Burga zubturumni er ustki qismidan ham plantoglyutsid olishda foydalanadi. Burga zubturumi bilan bir qatorda Plantago indica L. ham ishlatiladi (O'rta Osiyoda)

ZIG'IR URUG'I - Semeni Lini

O'simlik nomi: Zig'ir - Linum ussitatiss

Oиласи: - Zig'irdoshlar - Linaceae



Zig'ir bir yillik, poyasi tik o'suvchi, ingichka, silindrsimon, yuqori qismi shoxlangan o't o'simlik. Bargi lantsetsimon yoki chiziqsimon, o'tkir uchli, tekis qirrali, bandsiz poyaga ketma - ket o'mashgan. Gullari poya va shoxlari uchida

bo'ladi. Kosachabargi, tojbargi, otaligi 5 tadan, onalik tuguni 5 xonali yuqoriga joylashgan. Tojbargi zangori, mevasi - 10 urug'li, yumaloq quruq ko'sakcha. Iyul - avgust oylarida gullaydi. Ekiladigan zig'ir bir necha xil bo'lib uzun tolali va sershoxlisi ahamiyatli hisoblanadi.

Uzun tolalidan asosan tola olish uchun ekiladi, bo'yи 120 sm, Sershoxlidan moy olish uchun ekiladi, bo'yи 50 sm. Uzun tolalini mevasi pishganda ochilmaydi. Sershox zig'imi mevasi pishganda ochiladi Geografik tarqalishi. Asosan ekiladi. **Mahsulot tayyorlash.** Zig'ir mevasi sarg'aymasdan ildizi bilan sug'urib olinadi. Qurigandan so'ng o'simlikni yanchib, mevasi elab olinadi. Poyasi esa tola olish uchun ajratib qo'yiladi.

Mahsulotni tashqi ko'rinishi. Mahsulot yassi, luxumsimon urug'dan iborat. Urug'ning bir uchi ingichka, ikkinchi tomoni esa enli va yumaloq, usti silliq yaltiroq va sarg'ish - ko'ng'ir rangli bo'ladi. Agar urug'ini usti yaltiroq bo'lmasa, u pishmagan - sifatsiz hisoblanadi. Mahsulot hidsiz shilliq yog'ga o'xshash inazasi bo'lib suvga solingada usti shilliqlanadi va suv tagiga cho'kadi.

Kimyoviy tarkibi. 30 - 48% quriydigan moy, 5 - 12% shilliq moddalar, 18-33% oqsil moddalar, 12 - 26% uglevodlar, fermentlar, karotin bo'ladi.

Ishlatilishi. Zig'ir urug'i o'rab oluvchi, ich yumshatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Shilliq eritma tayyorlash uchun urug' butunligicha issiq suvda (1:30) chayqatiladi. Urug'ini 15 - 20% li qaynatmasi og'iz chayqush uchun ishlatiladi. Zig'r moyi tibbiyotda, oziq - ovqat sanoatida va texnikada qo'llaniladi. Zig'ir tolasini ivitib tola olinadi. Dorivor preparatlari. Shilliq eritma Mucilago seminis Lini, 15 -20% qaynatma – Decoctum semenis Lini, urug' poroshogi (uni) Farina Lini.

BAXMALGUL ILDIZI - Radices Alceae rosea

O'simlikning nomi. Baxmalgul- Alcea rosea

Oilasi. Gulxayridoshlar –Malvaceae.

O'zbekistonda bu o'simlikning 50 xil turi mavjud bo'lib ular 11 avlodga mansub.



Baxmalgul o'simligi bo'yisi 1-3 m gacha etadigan ikki yoki ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, yer ostki qismi yuxshi rivojlangan o'q ildizidan va yer ustiga esa dcyarli shoxlanmagan bir nechta poyasi o'sib chiqadi. Poyasi silindrsimon, dag'al tuklar bilan qoplangan bo'lib, barglari 5-7 bo'lakga qirilgan bo'lib poyada uzun bandi bilan kelma-kei joylashgan. Bargini tepa qismi to'q yashil, ostki qismi ochroq bo'lib, to'rsimon tomirlari bo'rtib chiqqan. Qiurasi mayda arrasimon Gullari barg qo'lkig'idan chiqqan, yirik diametri 8 ba'zan 9-12 sm gacha yetadigan ikki jinsli, shingilsimon bo'lib, 6-9 (5-11) uchburchaksimon barglari bor. Kosachabargi 5 ta, tojbarglari 5 ta, tepasi biroz o'yilgan, sertuk. Mevasi dumaloq ko'p urug'li ko'sak.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot silindrsimon, uchiga qarab biroz ingichkalangan, ustki tomoni qo'ng'ir yoki sarg'ish-oq, uzunligi 35 sm gacha, diametri 0,5-1,5-2 sm li ildiz bo'laklaridan iborat. Ildiz sertolali bo'lganidan sindirilganida osonlik bilan darrov titilib ketadi. Mahsulotning o'ziga xos hidi va shirin mazasi bor.

Kimyoqli tarkibi. Qizil baxmalgul guli tarkibida 5-12% bo'yoq moddasi hisoblangan antotsian birikmalari, qora baxmalgulda esa 16-20% saqlanishi aniqlangan. Bu bo'yoq moddalari shirinliklarni, quruq konditer kontsentrantlarni, alkagolsiz ichimliklarga rang berish uchun ishlatiladi.

Ishlatilishi. Baxmalgul ildizidan quruq ekstrakt olinib undan tayyorlangan tabletka balg'ami ko'chiruvchi, ichni yumshatuvchi va shamollashga qarshi ta'sirli dori vositalari tibbiyotga tavsiya qilingan.

O'simlikning ildizi va poyasidan polisaxaridlar kompleksi yallig'lanishga va me'da -ichak yaralariga qarshi ta'siri borligi ham aniqlangan.

Baxmalgul (*Alcea L.*) bo'yq olish uchun, texnika va dorivor o'simlik sifatida keng ekiladi.

Dorivor preparatlari. Quruq ekstrakt, kukun (poroshok), sharbat. Dorixonalarda yarim tayor maxsulot sifatida maxsus qog'oz qopchalarda 100, 150, 200, 250, 500 gramdan qadoqlanib chiqariladi. Fitoichimliklar bo'limida kombinirlangan usuli bilan birgalikda kompleks ta'sir etuvchi modda sifatida dorixonaga kelib tushgan talabnomalar bo'yicha taylorlab beriladi.

Kubik shaklida qirqilgan ildiz nafas olish yo'llari kasalliklarida ishlataladigan turli yig'malar (*Species pectoralis* va boshqalar) tarkibiga kiradi. Dorixonalarda maydalangan poroshiqidan yuqori nafas yo'llarini davolash uchun sigara shaklida xam foydalilaniladi.

TUGANAKLI KUNGABOQAR TUGANAGI-

Tuber Helianthi tuberosae

O'simlikning nomi. Tugunakli kungaboqar- *Helianthus tuberosus L.*

Oilasi. Astradoshlar - Asteraceae (murakkabguldoshlar - compositae)



Topinambur bo'yi 2-2,5 m ga yetadigan 1 yillik o't o'simlik bo'lib, vatani shimoliy Amerika yoki Kanadani janubi hisoblanadi. Yer ostki qismi kartoshkaga oxshagan tugunak bo'lib, yer ostiga chuqur joylashgani uchun sovuqqa va qurg'oqchilikga chidamli. Yer ustki qismi tik o'suvchi, kam shoxlangan. Barglari oddiy cho'ziq lantsetsimon -tuxumsimon, o'tkir uchli, to'q yashil, chetlari biroz notejis bo'lib poyada ketma-ket joylashgan. Gullari poya va shoxlarini uchida savatchaga to'plangan. Gullari umumiyl o'rama kosachabarglari hamda savatcha chetida yirik lantsetsimon tilsimon va o'rtasida naychasimon gultojbarglaridan tashkil topgan, to'q sariq, zarg'aldoq rangli. Mevasi pista. O'simlik deyarli hamma joyda ekiladi.

Mahsulotni tashqi ko'rinishi. Mahsulot o'simlikning yer ostki qismi - tugunagi hisoblanadi

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida asosan inulin va boshqa gidroliz natijasida fruktozaga parchalanadigan polisaxaridlar saqlaydi (M.m 5000-6000). Topinambur tugunagida inulin 14-20% gacha to'planishi mumkin. Polisaxaridlardan tashqari topinambur tugunagida mineral elementlardan temir, kremniy, sink, magniy, kaliy, marginets, fosfor, kaltsiylar, vitaminlardan B, C, aminokislotalar, organik va yog' kislotalarini saqlaydi.

Ishlatilishi. Qandli diabet kasalligini davolashda qo'llaniladigan inulin olinadi.

Mustaqill hajarish uchun vazifalar

I. O'simliklarni o'rganish: gulxayriturlari, zig'ir, oqqaldirmoq, zubturum turlari, yer noki, baxmalgul.

- a) o'simlik tashqi ko'rinishini (morfologiyasi) tasvirlash;
- b) mahsulotning tashqi ko'rinishini tasvirlash;
- v) gulxayri, zubturum mahsulotlarini mikroskopik o'rganish;
- g) o'rganilayotgan mahsulotlarning kiniyoviy tarkibi, ishlatilishi va dori turlarini o'rganish.

II. Shilliq moddalarga mikrokimyoviy reaksiyalar o'tkazish.

Mahsulot tarkibidagi shilliq moddalarini quyidagi sifat reaksiyalari bilan aniqlash mumkin:

- 1) tarkibida shilliq moddalar bo'lgan mahsulotlar ishqor eritmasi ta'sirida sanq rangga bo'yaladi; shu reaksiyani mikroskop ostida ham ko'rish mumkin.
- 2) mikroskopda ko'rish uchun kesilgan mahsulot bo'lakchasiga metil ko'k bo'yog'i eritmasidan yoki sulfat kislotaning mis tuzining 10 % li eritmasi va 10% li natriy ishqori eritmasidan bir tomchidan tomizilsa, shilliq modda saqlovchi hujayralar to'q ko'k rangga kiradi.
- 3) mikroskopda ko'rish uchun kesilgan mahsulotga qora tush eritmasi ta'sir ettirilsa, shilliq modda saqlaydigan hujayralar bu'yalmaydi, boshqa hujayralar esa qorayadi.

Vaziyatli masalalar

1. Keltirilgan gulxayri ildizini sifatini baxolang.
2. Tahlil uchun olingan shilliq modda saqlovchi o'simliklar mahsulotining chinligini makro-, mikroskopik va kimyaviy tahlil usullari yordamida aniqlang. Ulami tibbiyotda va xalq tabobatidu ishlatalishi, dori preparatlarini ko'rsating.
3. Gulxayri ildizidan qaynatmani sovuq usulda olinish sababini izoxlang.
4. Katta zubturum mahsulotini tayyorlashning yo'riqnomasini tuzing.
5. Berilgan gerbariylar namunalari asosida tarkibida shilliq moddalar saqlovchi dorivor o'simlikni aniqlang. Ushbu o'simlikning asosiy morfologik belgilari, geografik tarqalishi, mahsulotini tayyorlash, ishlatalishi va dori turlari to'g'risida ma'lumot bering.
6. Zig'ir o'simligi mahsulotini sifatini aniqlang.

Nazorat savollari

1. Polisaxaridlarni umumiylashtirish va tasnifi.
2. Shilliq moddalar, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari, sifat va miqdorini aniqlash. Tibbiyotda ishlatalishi.
3. Shilliq moddalar o'simlik organizmida qanday vazifani bajaradi?

4. Dorivor gulxayri o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatilishi va dori turlari.

5. Zig'ir o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatilishi va dori turlari.

6. Zubturum o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotining tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatilishi va dori turlari.

7. Burga zubturumi o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotining tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatilishi va dori turlari.

8. Oqqaldirmoq o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotining tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatilishi va dori turlari.

9. Polisaxaridlarni umumiy tavsifi va tasnifi

10. shiliq moddalar va ularning fizik kimiyyoviy xususiyatlari

11. Yer noki o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotining tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatilishi va dori turlari.

12. Baxmalgul o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotining tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatilishi va dori turlari.

Nazorat testlar

1. Gulhayri ildizi tarkibidagi asosiy kimyoviy birikmalar nima?

shiliq modda, krahmal, saxaroza.

yog', oqsil, efir moylari.

oshlovchi moddalar.

flavonoidlar.

2. Polisaxaridlarning farinakologik ta'sirini ko'rsating:

balg'am ko'chiruvchi, o'tab olivchi.
ovqat hazm qilishda.
siylik va o't haydashda yordam beradi.
iydik ajralishini tezlashtiradi.

3. Balg'am ko'chiruvchi sifatida qo'llaniladigan o'simlikni ko'rsating:

gulhayri, oq qaldirmoq.
na'matak, jag'-jag'.
qora smarodina, chetan.
dala qirqbo'g'imi, malina, chakanda.

4. Zig'ir o'simligining mevasi

o'n urug'li yumaloq quruq ko'sakcha.
uchmali pista.
ikki chanoqli kosak.
yong'oqcha.

5. Zubturum bargidan tayyorlangan preparat tibbiyotda nima uchun ishlatalishini aniqlang

me'da-ichak yaralari va kolitni davolashda.
o't va siylik haydashda.
iydik haydashda va toshlarni tushirishda.
balg'am ko'chirishda, qon bosimni tushirishda.

6. Dorivor Zig'ir o'simligining mevasining tafsifi?

10 ta urug'li yumshoq quruq kosakcha yaltiroq jiga rang.
sersuv, ho'l meva, ko'p urug'li.
sersuv, danakli ho'l meva.
yong'oqcha.

7. Lotin tilida Zig'irdoshlar oilasining nomlanishi aniqlang

Liliaceae

Ranunculaceae

Brassicaceae

Rosaceae

8. Farmakognoziyada Zig'ir mahsulotining lotincha nomi?

Semena Lini

Flores Maydis

Flores Primulae

Stigmata Maydis

9. Hayotiy shaklini aniqlang Zig'ir o'simligini:

bir yillik

uch yillik

ikki yillik

ko'p yillik

10. tibbiyotda Zig'ir urug'i nima uchun ishlataladi?

o'rab oluvchi, ich yumshatuvchi.

avitaminoz va gipovitaminozda.

o't va siydir haydashda, buyrakda va qovuqda tosh paydo bo'lganda.

raxit va pellagra kasalligida.

11. Shilliq moddalar qora tush bilan qaysi rangga bo'yaladi:

bo'yalmaydi

qora

sariq

ko'k

12. Monosaxaridlar qoldiqlaridan tashkil topgan molekulali uglevodlarni ko'rsating:

polisaxaridlar

shilliq moddalar

daraxt elimlari

pektin moddalar

13. O'simlik tarkibidagi shilliq moddalarni aniqlashda.....

tush ta'sirida bo'yalmaydi, ishqor ta'sirida sariq, metilen ko'ki bilan ko'k rang

ishqor eritmasi ta'sirida qizil rang, yod ta'sirida esa binafsha rang hosil

qiladi.

ishqor eritmasi ta'sirida ko'k rang, tush ta'sirida esa qoramitir rang hosil qiladi.

metilen ko'ki bilan ko'k rang, tush bilan qora, ishqor eritmasi bilan qizil rahg.

14. Qanday reaktsiya yordamida gulhayri ildizining yuqori sisatliligin i aniqlash mumkin?

flyuroglyutsin eritmasi va kontsentrik HCl ta'sirida qizil rangga kirmasa.
flyuroglyutsin eritmasi va kontsentrik H_2SO_4 ta'sirida qizil rangga kirsma.

flyuroglyutsin eritmasi va metil ko'ki ta'sirida ko'k rangga kirmasa.
flyuroglyutsinning 1% spirtdag'i eritmasi va tush ta'sirida qora rangga kirmasa.

15. Daraxt yelimlari qanday vazifani bajaradi?

o'simlikni chirishdan,qurishdan, mikroorganizmlardan
saqlaydi.

o'simlikni kurishdan saqlaydi.

mevalar xosildorligini oshiradi.

o'simlik usishini tezlashtiradi

16. Gulhayri o'simligining mahsuloti

ildizi

yer ustki qismi

bargi

mevasi

17. Mikroskopda Gulhayri mahsulotining mikroskopiyasi:

yog'ochlanmagan tolalar, suv naylar, kraxmal, druzlar, shilliq moddali hujayra. shilliq moddali hujayralar, suv naylari, druzlar, kraxmal.

kristalli moddalar, suv naylari, kraxmal, druzlar, traxeidlar.

tukchalar , shilliq moddali hujayralar, suv naylari, druzlar.

18 kimyoviy tarkibi Zubitrum mahsulotining:

glikozid aukubin, polisaxaridlar.

glikozid aukubin, steroid glikozidlar.

yurak glikozidlari, disaxaridlar.

oshlovchi moddalar, yurak glikozidlari.

19. Oqqaldirmoq mahsulotining ishlatalishi

balg'am ko'chiruvchi va yallig'lanishga qarshi.

ko'krak yumishutuvchi va terlatuvchi.

teri kasalligida va dezinfektsiyalovchi.

terlatuvchi.

20. Sifatli Zig'ir mahsulotini qanday bilish mumkin?

mahsulot suvga solinganda usti shilliqlanadi va qalqib yuradi.

mahsulot suvga solinganda usti shilliqlanadi va suv tagiga cho'kadi.

mahsulot suvga solinganda erib ketadi va aralashib ketadi.

mahsulot suvga solinganda kristall hosil qilib cho'kadi.

21. Tussilagin glikozidi qaysi o'simlikda uchraydi

jo'ka bargida

zubturum bargida

timoqgul bargida

zig'ir bargida

22. to'qimalarda Shilliq moddalar qanday vazisanibajaradi?

o'simlikni suvsizlikdan saqlaydi, zaxira ozuqa, o'sishga yordam beradi

o'simlikni tasodifiy chirishdan saqlaydi, zaxira ozuqa.

o'simlikni yaxshi taraqqiy qildirib, rivojlantiradi.

gullah va mevalarning yetilishini tezlashtiradi.

23.Taxlil uchun olingan Zubturum bargining kimyoviy tarkibi.

polisaxaridlar , glikozid aukubin.

glikozid linomarin, steroid glikozidlar.

yurak glikozidlari, disaxaridlar.

oshlovchi moddalar, yurak glikozidlari.

24. Meditsinada Oqqaldirmoq bargidan olingan preparatning qo'llanishi:

balg'am ko'chiruvchi va yalliqlanishga qarshi.

peshob qaydovchi va tichlantiruvchi.

teri kasalligida va dezinfektsiyalovchi.

surgi va tonusni ko'taruvchi.

25. Talabga javob bermaydigan zig'ir urug'ini qanday bilish mumkin?

mahsulot suvga solinganda usti shilliqlanmaydi va suv tagiga cho'kadi.

mahsulot suvga solinganda usti shilliqlanadi va qalqib yuradi.

mahsulot suvga solinganda erib ketadi.

mahsulot suvga solinganda kristall qosil qilib cho'kadi.

26. Yelimlari qanday vazifani bajaradi?

o'simlikni chirishdan, qurishdan, mikroorganizmlardan saqlaydi.

o'simlikni qurishdan saqlaydi.

mevalar xosildorligini oshiradi.

o'simlik usishini tczlashtiradi.

27. Burga zubturum o'simligining lotincha nomi

plantago psyllium.

plantago major.

folia plantaginis.

semina Psylli.

28. Fanda zig'ir o'simligini lotincha nomi

linum usitatissimum.

folia plantaginis.

plantago major .

linum simum.

29. Tabobatda zig'ir mahsulotining ishlatilmaydi

teri kasalliklarida surtma dori

o'rab oluvchi, ich yumshatuvchi

balg'am ko'chiruvchi va terlatuvchi

yo'talda

30. Mukaltin nima va uning ishlatalishi

uglevodlar aralashmasi, nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi.

suyuq ekstrakt, jigar kasalliklarida o't xaydovchi vosita sifatida

quruq ekstrakt, yurak qon tomir kasalliklarida.

poroshok, me'da-ichak kasalliklarida va ichakning yallig'lanishida.

TARKIBIDA VITAMINLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLER VA MAHSULOTLAR

Farmatsiya sohasida ishlaydigan yuqori mulakali xodimlar tarkibida vitaminlar saqlagan dorivor o'simlik mahsulotlarini tayyorlash, quritish, saqlash va tahlil qilishni yaxshi bilishlari kerak. Shuning uchun talabalar o'simliklarni morfologik tasvirlash, mahsulotni chinligini, sifatini va tozaligini aniqlash bo'yicha amaliy tajribalarga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Talabalarda vitaminlar saqlovchi dorivor o'simliklarning tashqi ko'rinishini tasvirlash, dorivor o'simlik mahsulotlarining chinligini, sifatini va tozaligini, ishlstilishi, dori turlari hamda kimyoviy taxlil usullari bo'yicha amaliy bilimlarni mustahkamlash.

Vitaminlar odam va hayvonlar uchun muhim shamiyatga ega bo'lgan, turli kimyoviy tuzilishdagi organik birikmalardir. Organizm uchun juda kam miqdorda talab etiladigan (oqsil, yog' va uglevodlardan farqi) bu birikmalar fermentlar molekulasi tarkibiga kirib, to'qimalardagi moddalar almashinuvda ishtirok etadi.

Odam va hayvonlar organizmini ko'pchilik vitaminlarni faqat o'simliklardan oziq-ovqat bilan birga oladi. Shuning uchun ovqat mahsulotlari tarkibida biror vitamining bo'lmasligi yoki etishmasligi odam va hayvonlar organizmida moddalar almashinuvning buzilishiga, keyinchalik esa avitaminoz hamda gipovitaminoz deb ataladigan og'ir kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Deyarli barcha vitaminlar o'simlik organizmida sintezlanadi. Faqat vitamin A va D ni hosil qiladigan birikmalar - provitaminlar o'simlik to'qimalarida sintezlanib, hayvon organizmiga o'tgandan so'ng ular o'z vitaminiga aylanadi. Vitaminlar erituvchilarda erishiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

- 1. Suvda eruvchi vitaminlar* - B1, B2, B6 , PP, H, P, C va U vitaminlar, pantaten, folat, para-aminobenzoat kislotalar, inozit va boshqalar.
- 2. Yog'larda eruvchi vitaminlar*- A, D, E va K vitaminlar.

Vitamin saqlaydigan mahsulotlar avitaminoz kasalliklarida , u yoki bu vitaminlarni etishmasligidan kelib chiqadigan kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi.

Askorbin kislotani sifat reaktsiyasi yordamida aniqlash

Dorivor mahsulotlar tarkibidagi vitaminlarni, asosan, xromatografik usul yordamida aniqlanadi. Bu usul bo'yicha na'matak mevasidagi askorbin kislota quyidagicha aniqlanadi:

0,5 g na'matak mevasini chinni hovonchada maydalanadi va ustiga 5 ml suv quyib, aralashtirib, 15 minutga qadar tindiriladi, so'ngra ajratma filtrlanadi. Silufol plastinkasining start chizig'iga tayyorlangan ajratmadan kapillyar (shisha qil naycha) yordamida tomiziladi. Tomchining qatoriga, guvoh modda sifatida askorbin kislota eritmasi tomizilib, keyin plastinka ichiga erituvchilar aralashmasi (etilatsetat - konts. sirka kislotaning 80:20 nisbatdagi aralashmasi) quyilgan xromatografik kameraga joylashtiriladi va 20 minut davomida qoldiriladi (erituvchilar aralashmasi tahminan 13 sin ga ko'tariladi). So'ngra plastinka kameradan olinib, havoda quritilada va xromatogrammaga 2,6-dixlorfenolindofenolyat natriyning suvdagi 0,04% li (yoki 0,001n) li eritmasi purkaladi. Natijada guvoh sifatidagi va ajratmadagi askorbin kislotalar pushti fonda bir xil bulandlikda joylashgan ikkita oq dog'lar sisutida ko'rindi.

Mahsulot tarkibidagi askorbin kislota miqdorini aniqlash

Askorbin kislota miqdorini aniqlash, uning oksidlovchilar yordamida oksidlanish xususiyatiga asoslangan. Askorbin kislota engil oksidlovchilar (KJO₃, yod, 2,6-dixlorfenolindofenolyat natriy eritmalar) yordamida titirlab aniqlanadi.

Na'matak mevasi tarkibidagi askorbin kislotasi miqdorini aniqlash

(XI-DF bo'yicha).

Tozalangan mevadan 10,0 g (20 g) tortib olib uni chinni hovonchaga solinadi. So'ngra 5 g neytral shisha maydasidan hamda 300 ml suv solib, yaxshilab eziladiva 10 min davomida qo'yib qo'yiladi. Keyinchalik aralashtirib, filtrlanadi. 50 - 100 ml hajmli konussimon kolbaga 1 ml filtratdan solib, unga xlорид kislotaning 2% li eritmasidan 1 ml va 13 ml suv qo'shiladi hamda tez-tez chayqatib turib, 1 min ichida o'chinaydigan pushti rang hosil bo'lgunqa qadar 2,6-dixlorfenolindofenolyat natriy birikmasining 0,001 n eritmasi bilan mikrobyuretka

yordamidatitlanadi. 1 ml 2,6-dixlorfenolindofenolyat natriyning 0,001 n eritmasi 0,000088 g askorbin kislotaga to'g'ri keladi.

Askorbin kislotaning absolyut holigacha quritilgan mahsulotdagi protsent miqdori (x) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

a - 2,6-dixlorfenolindofenolyat natriyning 0,001n eritmasini titrlash uchun ketgan ml miqdori;

F - 2,6- dixlorfenolindofenolyat natriyning 0,001n eritmasini to'g'rilash faktori;

b - mahsulotdan tayyorlangan eritmaning ml miqdori;

C - titrlash uchun olingan ajratmaning ml miqdori;

P - taxlilga olingan mahsulotning g miqdori;

d - mahsulotning namligi, protsent.

NAMATAK MEVASI – FRUCTUS ROSAE

O'simlikning nomi. Na'matak turlari - Rosa sp.

Oilasi. Ra'noguldoshlar - Rosaceae.



Tarkibida askorbin kislotasining miqdori Davlat Farmakopeyasi talablariga javob beradigan quyidagi na'matak turlari ishlatiladi:

Rosa cinnamomea L. - sh, korichno'y (may na'matagi)

Rosa acicularis - sh. iglisto'y (tikanli na'matak)

Rosa davurica - sh. daurskiy (Dauriya na'matagi)

Rosa Beggeriana - sh. Beggera (Begger na'matagi)

Rosa Fedtschenkoana - sh. Fedchenko (Fedchenko na'matagi)

Rosa Canina - itburun na'matagi va boshqalar

Na'matak turlari bo'yi 2 metrga etadigan tikanli buta. Novdasi yaltiroq, qo'ng'ir – qizil yoki qizil – jigar rang tusli po'stloq bilan qoplangan. Po'stloqda na'matak turlariga qarab har xil kattalikdagi va soni har xil tikonlar bo'ladi. Bargi loq patli, poynda bandi bilan ketma – ket o'rashgan. Bargchasi 5 - 7 ta bo'lib tuxumsimon shakli, arrasimon qirtali, qo'shimcha barglari bor. Gullari yirik, yakka yoki 2 - 3 tadan shoxchalarga o'rashgan. Guli qizil, pushti, sariq yoki oqrangli, xushbo'y hidli. Gul oldi barglari lantsesmon. Kosacha bargi va tojbargi 5 tadan, otalik va onuliklari ko'p sonli. Mevasi – gul o'mid ahosil bo'ladigan shirali soxta meva ichida onaliklaridan xosil bo'lgan bir nechta haqiqiy meva - yong'oqchalari bor.

Yong'oqchalari o'tkiruchli, scrtuk burchaksimon shaklga ega. May oyidan boshlab gullaydi, mevasi avgust – sentyabrda pishadi. Rosa Beggeriana va Rosa Fedtschenkoanalardan boshqalari Evropa, Sibir, Uzoq Sharqlarda keng tarkalgan. Rosa Beggeriana va Rosa Fedtschenkoana bular O'rta Osiyo tog'larida uchraydi. Mahsulot tayyorlash. Mevasi avgust oyi oxiridan boshlab kech kuzgacha yig'iladi. Sovuq tushganda vitamin S kamayib ketadi. Mevani yig'ayotganda qo'lga tikan kirnasligi uchun qo'lga qo'lqop kiyib teriladi. Terilgan meva quyoshda yoki 80 - 900 haroratda pechlarda quritiladi, quritilgan mevalardan kosachabarg qoldiqlari tushirib yuboriladi. Na'matak mevasidan dorivor preparatlar olish uchun ho'lligicha tezda farm. zavodlarga yuboriladi. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot har xil shakldagi (sharsimon, tuxumsimon yoki cho'ziq) va katta - kichiklikdagi (uzinligi 0,7 - 3 sm, diametri 0,6 - 1,7 sm), to'q sariq - qizil yoki to'q qizil rangli soxta mevadan iborat. Soxta mevaning uchida teshikchalari bor. Mahsulotning usiki tomoni yaltiroq, burishgan, ichi xira. Yong'oqchalari qattiq, sariq rangli, tuklar bilan qoplangan. Mahsulot hidsiz, nordon - shirin, bir oz

burishiruvchi mazasi bor. Mahsulotning mikroskopik tuzilishi. Na'matak mevasi poroshogi xloralgidrat eritmasi solib qizdirilib mikroskop ostida ko'riladi.

1. Meva epidermisi qalin devorli xujayralar.
2. Meva yumshoq qismida parenxima xujayralari bo'lib ular qizil tomchilar pigmentlar va druzlar saqlaydi.
3. Yongoqcha toshsimon xujayralar bilan qoplangan.
4. 2 xil tuklar bor. Yirik qalin devorli, yupqa devorli ingichka tuklar.
5. Urug' yadrosini parenximasida yog' tomichilari bor.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida 4 - 6, ba'zan 18% gacha vitamin S, 203% mg % vitamin V2, K, vitamin R, 12 - 18 mg % karotin, 18% qandlar, 4,5% oshlovchi moddalar 2% atrofida limon va olma kislotalar, 3,7% pektin moddalar bor.

Ishlatilishi. Asosan na'matak mevasi va preparatlari avitaminoz kasalligida ishlatiladi. Na'matak urug'idan olingan yog' kuygan teri kasalliklari hamda rentgen nurlari ta'sirida kuygan joylarni davolashda ishlatiladi. Dorivor preparatlari. Askorbin kislota - vitamin S - poroshok, tabletka, ampula holida chiqariladi. Mevadan damlama, ekstrakt, sharbat tayyorlashadi. Meva - karotolin tarkibiga kiradi. Tibbiuotda na'matakni yana bir turi - itburun (*Rosa Canina L.*) mevasi ham ishlatiladi. Bu na'matak mevasi kosachabarglarini pastga qarab yo'nalganligi va pishgandan so'ng tushib ketishi bilan farq qiladi. Shuning uchun itburun mevasining yuqori qismida teshikchalari bo'lmaydi. Kimyoviy tarkibi. Itburun vitamin S kam saqlovchi na'matak turlariga kiradi. Meva tarkibida 0,2 - 2,2% gacha vitamin S, K, V2, R, va 4 - 12 mg % karotin va boshqa moddalar bor. Ishlatilishi. Xolosas preparati jigar kasalligini davolashda ishlatiladi. Urug'lari siylik haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Urug'dan yog' - olishda ham foydalilanadi.

QORA QORAQAT (смородина)

Qora smorodina o'simligining bargi va mevasi - Folia et fructus Ribis nigri

O'simlikning nomi. Qora smorodina - *Ribes nigrum L.*

Oillası. Qoraqatdoshlar - *Saxifragaceae* – камнеломковые.



Bo'yi 1- 1,5 m bo'lган buta. Poyasining po'stlog'i to'q qo'ng'ir yoki qizil - jigarlang tusli bo'ladi. Bargi panjasimon 3-5 bo'lakli, bandi bilan ketma - ket joylashgan. Gullari shingilga to'plangan. Kosacha va tojbarglari 5 ta dan, pushu kulrang, otaligi 5 ta, onalik tuguni bir xonali pastga joylashgan. Mevasi - xushbo'yhidli, yumaloq, ko'p urug'li xo'l meva may oyida gullaydi, iyul - avgustdapishadi. Geografik tarqalishi. Yovvoy holda MXDlari o'rmonlarida o'sadi. Evropa, Sibirda ko'p o'stiriladi. Mahsulot tayyorlash. Bargi o'simlik gullahidan oldin yoki gullagandan keyin beriladi. Mevasi esa pishganida terib olinadi. Xo'l mevadan sharbat tayyoraladi. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot quritilgan barg va mevadan iborat. Bargi 3 - 5 panjasimon bo'lakli, bo'laklari keng uchburchak shaklli, yirik tishsimon qirrali bo'lib, bargni uzunligi 10 sm ga etadi. Ustki tomoni tuksiz, pastki tomoni tuklar bilan qoplangan. Sariq rangli mayda bezlar bor. Barg o'ziga xos xushbo'y hidga ega. Mevasi sharsimon, qora rangli, burishgan, ko'p urug'li bo'lib, yuqori tomonida gulkosacha qoldig'i saqlanib qolgan. Mevani tashqi tomonida sariq rangli bezlar bor. Meva nordon mazaga va xushbo'y hidga ega. Kimyoviy tarkibi. Bargda 400 mg % vit. S bor. Meva tarkibida 568 mg % gacha vit. C, 3 mg % karotin, vitaminlardan B1, B2, B6,

Ki va organik kislotalar bor. Yana antotsianlar, flavonoidlardan kvertsetin va kvertsitrin bor.

Ishlatilishi - avitaminoz kasalligida. Mevasi terlatuvchi va siyidik haydovchi, ich ketishiga qarshi, bargi bod kasalligida ter xaydovchi sifatida ko'llaniladi.

Dorivor preparatlari. Damlamalar (Infusum Foliorum Ribis nigri, Infusum baccarum Ribis nigri). Vitaminli choylar tarkibiga kiradi.

CHAKANDA O'SIMLIGINING MEVASI VA MOYI – FRUCTUS ET OLEUM HIPPOPHAE

O'simlikning nomi. Jumrutsimon chakanda - *Hippophae rhamnoides* L.

Oilasi. Jiydadoshlar - Elaganaceae.



Bo'yi 4 - 6 m ga etadigan ikki yo'li buta yoki daraxtga. Poyasi sershox, tikanli, qo'ng'ir yashil po'stloqli. Bargi oddiy. chiziqsimon - lantsetsimon, tekis qirrali, yuqori tomoni kulrang - to'q yashil, ostki tomoni oqish, qo'ng'ir rangli tangachalar bilan qoplangan. Poyada kalta bandi bilan ketma-ket joylashgan. Gullari bir jinsli, ko'rimsiz. Otalik gullari mayda, kumush qo'ng'ir rangli, kalta boshoqlarga to'plangan, gul qo'rg'oni 2 ta ellipssimon bargchadan tashkil topgan

Aprel - mayda gullaydi, mevasi avgustdan oktyabrgacha pishadi. Mevasi lo'qimasidan shoxlarida kelasi yilgacha saqlanadi. Geografik tarqalishi. Daryo, ko'p va dengizlarning shag'alli, qumli qirg'oqlarida, tekislik va tog'larda o'sadi. O'rta Osiyoda, Sibirda, Kavkaz va Evropada o'sadi. Mahsulot tayyorlash. Kuzda yoki qishda yig'iladi. Ilgari meva pishgandan keyin, qishda shoxlarini qirqib qoqib olinadi. Mevasi muzlaganda buzilmaydi. Hozirgi vaqtida maxsus moslamalar bilan idishlarga mevalar shoxlaridan sidirib teriladi, barglardan tozalanib o'sha kuniyoq zavodlarga yuboriladi. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot dumaloq yoki bir oz cho'ziqroq shaklli, sersuv, danakli mevadan iborat, xushbo'y lidli, tilla rung sariq yoki qizg'ish rangga bo'yalgan bo'lib, uzunligi 0,8 - 1 sm. Danagi silliq, jigarrang, tuxumsimon. Kimiyoviy tarkibi. Meva tarkibida 450 % vitamin S, 0,035 mg % vit. V1, 0,056 mg % vit. V2, 145 mg % vit. E, 60 mg % karotin, 0,79 mg % solat kislota, 9 % gacha yog' (mevaning yumshoq qismida) organik kislotalar va boshqa moddalar bor. Urug'i tarkibida 12,5 % yog', 0,28 mg % vit. V1, 0,38 mg % vit. V2, 14,3 mg % vit. E, 0,3 mg % karotin bor. Chakanda moyi yarim quriydigan, lo'k sariq rungli, tarkibida 180-300 mg % karotinoidlar (shu jumladan 40 - 100 mg % karotin), 110 - 165 mg % vitamin E va R bo'ladi. Ishlatilishi. Chakanda moyi og'riq qoldiruvchi, yarani tez bitiradigan ta'sirga ega. Nur kasalligidan shikastlangan teri yaralari, kuygan qizilo'ngachni, me'da yarasini va ginekologik kasalliklarni davolashda chakanda moyi - Oleum Hippophaes sifatida ishlatiladi.

Chakanda moyi - bu suvsizlantirilgan mevani kungaboqar yog'a bilan ekstraktsiya qilib olingan preparatdir. Preparat tarkibida karotinoidlar 180 - 200 mg % bo'lishi kerak. Bundan tashqari flavonoidlar, terpinoidlar, kumarinlar bor.

TIRNOQGUL GULI – FLORES CALENDULAE

O'simlikning nomi. Dorivor timoqgul - *Calendula officinalis* L.

Oilasi. Astradoshlar - Asteraceae - Астровые



Timoqgul bir yillik, bo'yi 30 - 50 sm ga etadigan o't o'simlik. Ildiz o'q ildiz, poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, qirrali, yuqori qismida bezli tuklari bor. Bargi oddiy, bandli, cho'ziq - teskari tuxumsimon, scrtuk, kctma - ket joylashgan. Yuqoridagilari bandsiz, lantsetsimon. Gullari savatchaga to'plangan, mevasi - pista. Ikki oyda gullaydi, mevasi iyuldan pisha boshlaydi. Geografik tarqalishi. MXD larida yovvoyi holda o'smaydi, ekiladi. Mahsulot tayyorlash. Gullari qiyg'os gullaganda, tilsimon gullari gorizontal bo'lgan vaqtda teriladi, gullarni 10 - 20 martagacha tersa bo'ladi, mahsulot salqinda quritiladi. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Mahsulotning diametri 5 sm bo'lgan odatda bandsiz sariq rangli savatchalardan tashkil topgan. Savatchaning o'rama barglari kulrang - yashil tusli, 1 - 2 qavat joylashgan, lantsatsimon, o'tkiruchli. Gul o'mi yassi, bir oz botiq va tuksiz. Savatcha chetidagi tilsimon gullarni 25 - 250 2 - 3 qator (maxsus navlarda 15 qatorgacha) bo'lib, yuqori qismida 2 - 3 ta tishchusi bor. Savatchuning o'rtadagi gullari naychasimon, besh tishli. Mahsulot kuchsiz yoqimli hidga va bir oz sho'r va achchiq mazaga ega. Kimiyoviy tarkibi. Tarkibida 7,6 - 7,8 mg % karotin (chetdagi tilsimon gullarida 3% gacha karotinoidlar bor), flavonoidlar 4% gacha shilliq

moddalar, 10 - 11% oshlovchi moddalar, 19% gacha achchiq modda kalenden, organik kislotalar bor. Ishlatilishi. Preparatlarni turli yaralarni davolashda, stomatit, angina, tamoq og'riq kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Gastrit, me'da, 12 barmoqli ichak yaralari va jigar kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Mahsulot ba'zan rak kasalligini davolashda ishlatiladigan KN preparati tarkibiga kiradi, (N - nikotin kislotasi).

Dorivor preparatlari. Damlama, nastoyka, KN tabletka va surtma dorisi.

JAG'-JAG' YER USTKI QISMI O'TI – HERBA BURSAE PASTORIS

O'simlikning nomi. Jug' - jag' - *Capsella bursa pastoris*

Ollasi. Karamdoshlar - Brassicaceae



Jag' - jag' bir yillik bo'yи 20 - 30 - 60 sm ga etadigan o't o'simlik. Poyasi shoxlanmagan yoki bir oz shoxlangan. Ildizoldi barglari, cho'ziq lantsetsimon bo'lib turlicha qirqilgan. Poyadagi barglari mayda. Gullari shingilga to'plangan. Mevasi qo'zoqcha. Aprelda gullab, mevasi iyulda pishadi.

Tarqalishi aholi yashaydigan joylarga yaqin erlarda, yo'l yoqalari, ekinlar orasida o'sadi. Mahsulot tayyorlash. O'simlik gullashi va mevasi etishi oldidan ildizi bilan sugurib olib, ildizini qirqib tashlanadi, qolgan qismini soyada quritiladi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot poya, barg, gul va mevalar aralashmasidan iborat. Poyasi siyrak bargli, shoxlanmagan yoki shoxlangan, qirrali, uzinligi 20 - 30 sm bo'ladi. Ildizoldi barglari cho'ziq.

BOZULBAND GULIL – FLORES LAGOCHILI

Цветки зайцегуба

O'simlikning nomi. Ganchituvchi bozulbang - *Lagochilus inebrians* - зайцегуб опьяня-ющий.

Oilasi: Yasnotkadoshlar - Lamiaceae - Яснотковые



Bozulbang bo'yи 60 sm ga ctadigan ko'p yllik o't o'simlik, poyasi sershox, asos qismi yog'ochlangan, 4 qirrali, qattiq, bezli tuklar bilan qoplangan. Bargi oddiy, 3 - 5 bo'lakka qirqilgan, bandi bilan poyada qarama - qarshi o'rashgan. Gullari poyada va shoxlarda yarim qarama - qarshi o'rashgan. Gullari poyada va shoxlarda yarim halqa shaklida joylashgan. Mcvasi - 4 ta yong'oqcha. Iyun - sentyabr oylarida gullaydi. Mahsulot tayyorlash. O'simlik qiyg'os gullaganida o'rib olib quritiladi. Quriganda barglari to'kilib ketadi. Qurigan o'simlik poyasidagi gullarini silkitib yig'ib olinadi. Mahsulot tarkibida qisman barglari ham bor bo'ladi. Mahsulotning tashqi qurinishi. Tayyor mahsulot gul va qisman barglardan iborat. Gul qiyshiq, labguldoshlarga xos tuzilgan. Guloldi bargi 3 qirrali, qattiq bo'ladi. Gulkosachasi varonkasimon kengaygan 5 ta tomirli, 5 tishli, uzunligi 5 - 6 mm, tikansimon o'tkir uchli. Gultojisi och pushti rangli, 2 labli,

otaligi 4 ta, onalik tuguni 4 bo'lakli yuqoriga joylashgan. Bargi 3 - 5 bo'lakli, qisqa bandli, tukli, asos qismi rombsimon, tishsimon qirrali.

Kimyoviy tarkibi. Tarkibida vitamin K, 4 atomli diterpen spirit - lagoxillin (0,6 - 1,97%). organik kislotalar, oshlovchi moddalar bor.

Ishlatilishi. Bozulbang preparatlari bachadon, o'pkadan qon oqishini, burun qonashini, gemoroidal qon oqishini to'xtatish, gemofiliya kasalini davolashda ishlatiladi.

Dorivor preparatlari. Damlama, nastoyka, qaynatma

MAKKAO'XORI ONALIK GULINING USTUNCHASI BILAN OG'IZCHASI - *Styli cum stigmatis zaeae maydis* - Кукурузные рыльца.

O'simlikning nomi. Makkajo'xori - *Zea mays L.* - кукуруза.

Oilasi - Boshoqdoshlar - Poaceae - Злаковые



Makkajo'xori bo'yisi 1 - 3 - 5 m ga etadigan bir yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, shoxlan-magan, ichi g'ovak, bo'g'imli. Bargi oddiy keng lantsetsimon bo'lib qini bilan poyaga ketma - ket o'rashgan, o'simlik 1 uyli, gullari bir jinsli. Otalik gullari poyaning yuqori qismida ro'vakka, onalik gullari esa barg qo'ltig'idan chiqqan so'tacha to'plangan. Mevasi donacha.

Avgust - sentyabrda gullaydi, mevasi sentyabr - oktyabrda pishadi.

Tarqalishi - Janubiy Meksika. Mahsulot tayyorlash. O'simlik mevasi pishmasdan oldin onalik ustunchasi yig'ib olinadi va salqinda quritiladi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot uzun, ipsimon, sariq - qo'ng'ir rangli onalik ustunchalaridan iborat. Ustuncha 20 smi uzunlikda bo'lib, yo'g'onligi 1 mm, uchida onalik og'izchasi bor. Kimyoviy tarkibi. Vitamin K1 (1600 1 g mahsulotda biologik birlik), askorbin, pantogen kislotalar, 2,5 % yog', 0,12% efir moyi va boshqa moddalar bor. Ishlatilishi. Preparatlari o't haydovchi (xoletsistit, xolangit, geppatitlarda), hamda siydik haydovchi (buyrak tosh kasalligida, qovuqda tosh bo'lganda) va qon to'xtatuvchi sisatida ishlatiladi.

Dorivor preparatlari. Suyuk ekstrakt, damlama

GAZANDA BARGI – FOLIA URTCAE

Лист крапивы

O'simlikning nomi. Ikki uyli gazanda – *Urticae dioicae*L. - крапива.

Oilasi. Gazandadoshlar - *Urticaceae*- крапивные.



Ko'p yillik, ikki uyli, bo'yi 1 mgacha bazan 1,5 m – gacha etadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi er ostida sudralib o'sadigan, poyasi tik o'suvchi, to'mloq 4 qirrali, ba'zan qarama – qarshi shoxlangan. Bargi oddiy, poyada qarama – qarshi joylashgan. Gullari mayda, yashil rangli bo'lib barg qo'lligidan chiqqan boshoqa to'plangan. Guli ~~bir jinsli~~ ~~(gul qo'rg'oni oddiy)~~ ~~4~~ bo'lakka qirqilgan, Mevasi ~~tuxumsimon~~, yoki elipssimon ~~sariq~~ kulrang' yong'oqcha. O'simlikning hamma

qismida achituvchi tuklari bor. Iyuldan boshlab kuzgacha gullaydi. Tarqalishi. Yo'li yoqalarida, ariq bo'ylarida nam va salqin o'monlarda, aholi yashaydigan yaqin joylarda o'sadi. Evropa, Sibir, O'rta Osiyo, Qozog'istonda uchraydi. Mahsulot tayyorlash. O'simlik gullaganida faqat barglari terib olinadi. Ko'pincha o'simlikni e'rib olib so'ltiladi va barglarini terib olinadi. Chunki so'liganda achituvchi tuklari o'z xususiyatini yo'qotadi.

1) Bir hujayrali, keng asosli, retortasimon tuklar.

2) Boshi 2 hujayrali, oyog'i 1 hujayrali mayda tuklar.

3) Achituvchituklar. Bu tuklar ko'p hujayrali bo'lib boshchasi mahsulot quriganda ko'pincha sinib ketgan bo'ladi.

Kimyoviy tarkibi. 100 - 600 mg % vitamin C, K1, B2, karotinoidlar, pantoten va chumoli kislotalar, 2 - 5% - gacha xlorofill va boshqalar bor.

Ishlatilishi. Ichki a'zolardan qon ketishini to'xlatishda ishlatiladi.

Bargdan ajratib olingan xlorofill esa oziq - ovqat va farmatsevuka sanoatida bo'yog modda sifatida ishlatiladi. Dorivor preparatlari. Damlama - Infusum foliorum urticae, suyuq ekstrakt. Extractum Urticae fluidum. Mahsulot ichki a'zolardan ketayorgan qonni to'xtatuvchi choylar tarkibiga kirudi

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Vitaminlarni o'simliklar dunyosida tarqalishi va tibbiyotda ishlatilishi.

2. Na'matak o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

3. Jag-jag o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

4. Gazanda o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotining tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

5. Makkajo'oni o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotining tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

6. Bozulbang o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotining tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

I. Vitaminlar saqlovchi mahsulotlarning kimyoviy taxlili.

a) askorbin kislotasini xromatografik usulda aniqlash;

b) askorbin kislotasini XI - DF bo'yicha miqdorini aniqlash;

v) karotinoidlarni xromatografik usulda aniqlash;

Masalalar: 1. Tahlil uchun olingan vitamin saqlovchi o'simliklar mahsulotining chinligini makroskopik va mikroskopik tahlil usullari yordamida aniqlang. Ulami tibbiyotda va xalq tabobatida ishlatilishi, dori preparatlarini ko'rsating.

2. Dorivor o'simlik mahsuloti tarkibida vitaminlarni xromatografik aniqlash bo'yicha tavsiyalar bering.

3. Berilgan gerbariyalar namunalari asosida tarkibida vitaminlar saqlovchi dorivor o'simlikni aniqlang. Ushbu o'simlikning asosiy morfologik belgilari, geografik tarqalishi, mahsulotini tayyorlash, ishlatilishi va dori turlari to'g'risida ma'lumot bering.

Nazorat savollari

1. Vitaminlarning umumiy tavsifi, tasnifi.

2. Vitaminlarni biosintezi, fizik - kimyoviy xossalari.

3. Askorbin kislotasining xromatografik taxlil usullari.

4. Askorbin kislotasining miqdoriy taxlili usullari.

5. Qaysi o'simliklarda karotinoidlar ko'p saqlanadi.

6. Karotinoidlarni xromatografik taxlili.

7.Qora qoraqat (smorodina) o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi.
O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish.
Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatalishi va dori turlari.

8. Tirnoqqul o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va
mahsulotning tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy
tarkibi. Tibbiyatda ishlatalishi va dori turlari.

9. Chakanda o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va
mahsulotning tashqi ko'rinishi, o'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy
tarkibi. Tibbiyatda ishlatalishi va dori turlari.

Nazorat testlar

1.Birinchi bo'lib vitaminni kim aniqlagan?

rus olimi N.I.Lunin

polyak olimli K.Funk

rus olimi L.N.Safronich

rus olimi E.YA.Ladigin

2.Jag' jag' mag'sulotining tibbiyatda ishlatalishi va dori turlari

qon to'xtatish uchun damlamasi va suyuq ekstrakti ishlataladi.

ichni qotirish uchun nastoykasi ishlataladi.

tug'ish jarayonini tezlatish uchun damlamasi ishlataladi.

shamollaganga qarshi qaynatmasi ishlataladi.

3.Bozulbang o'simligining o'zbekcha va lotincha nomi

gangituvchi bozulbang / lagochilus inebrians bge .

oddiy bozulbang / lagochilus vernalis.

dorivor bozulbang / lagochilus officinalis.

oddiy bozulbang / flores lagochili.

4.Asosly ta'sir qiluvchi moddasi vitamin C bo'lgan o'simlik nomi?

na'matak

jag' jag'

bozulbang

timoqgul

5.Suvda eruvchi vitaminlar:

vitaminlar B₁, B₂, B₆,PP, H, P,C,U.

vitaminlar A, D,E, K.

vitaminlar A, D, E, K, PP, H, B₁, B₂.

vitaminlar B₁, B₂, B₆,PP, A, P,C,U.

6.Yog'larda eruvchi vitaminlar

vitaminlar A, D,E, K.

vitaminlar B₁, B₂, B₆,PP, H, P,C,U.

vitaminlar B₁, B₂, B₆,PP.

vitaminlar A, D, B₁, B₂.

7.Na'matak mahsuloti:

mevasi

guli

bargi

ildizi

8.Rosae urug'ining parenximasida miqdori ko'p bo'lgan modda?

moy tomchilari

vitamin C

vitamin B₂

vitamin K

9.Kimyoviy tarkibi bo'yicha na'matak mevasi nimalardan tashkil topgan?

vitaminlar: C, B₂, K, P, karotin, qand, oshlovchi moddalar, pektin.

oshlovchi moddalar, olma, limon kislotalar, efir moyi, terpen.

limon, olma kislotalar, alkaloidlar, flavonoidlar, qand.

karotin, flavonoidlar, vitaminlar: A, D, E, K, C, B₂, P, pektin.

10.Xolasos jigar kasalliklarini davolashda qaysi na'matak turidan dorivor preparati tayyorlanadi?

itburun na'matagi.

tikanli na'matak.

dauriya na'matagi.

burishqoq na'matak.

11. Itburun na'matagining mevasi ichidagi mevachalari qanday dori sifatida qo'llaniladi?

siylik haydovchi.

qon to'xtatuvchi.

balg'am ko'chiruvchi.

yo'tal qoldiruvchi.

12. Dorivor na'matak urug'inining tarkibi

karotin, vitamin E ,yog'lar.

efir moyi va vitamin A, yog'lar.

terpenlar, efir moyi, pektin, qand.

oshlovchi moddalar, flavonoidlar, qand.

13. Tibbiyotda na'matak urug'idan olingan yog' qanday kasalliklarni davolashda ishlatiladi?

yaralarni va kuygan terini davolashda.

shamollaganda balg'am ko'chirishda.

nafas yo'llari kasalliklarida.

yo'tal qoldirish va shamollaganda.

14. "Xolasos" preparatining qo'llanilishi

o't haydovchi sifatida jigar kasalligida.

terlatuvchi sifatida.

siylik haydovchi sifatida.

qo'zg'atuvchi, tormozlovchi.

15. Qora qoraqat (smorodina) mahsuloti

mevasi va bargi.

mevasi va guli.

mevasi va ildizi.

guli va bargi.

16. Smorodina mevasi qanday kasalliklarni davolashda ishlatiladi?

terlatuvchi, siylik haydovchi, ich ketishiga qarshi.

terlatuvchi, siylik haydovchi, qon to'xtatuvchi.

siylik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, terlatuvchi.

ich yumshatuvchi, dezenfeksiya qiluvchi sifatida.

17. Tirnoqgul mahsuloti

guli

mevasi

bargi

ildizi

18. Quyidagi qaysi oila tirnoqgulga tegishli?

astradoshlar

ra'noguldoshlar

lolaguldoshlar

labguldoshlar

19.Qaysi dorivor preparatlar tirnoqgulga tegishli?

nastoyka, damlama, kaleflon.

suyuq va quyuq ekstrakt, damlama.

nastoyka, qaynatma, ekstrakt.

damlama, qaynatma, nastoyka.

20.Javoblardan qaysi biri tirnoqgul mahsulotining kimyoviy tarkibi

karotinlar, flavonoidlar, alkaloidlar, achchiq moddalar, efir moylari.

shilliq moddalar, oshlovchi moddalar, efir moylari, pektin moddalar

vitaminlar, saponinlar, pektin moddalar, achchiq moddalar, terpenlar.

flavonoidlar, alkaloidlar, efir moylari, shilliq moddalar, qandlar.

21.Chakanda o'simligining mahsuloti, lotincha nomi

mevasi va moyi / fructus et oleum Hippaphayos.

mevasi va moyi / folie et oleum Hippaphayos.

mevasi va moyi / fructus Hippaphayos.

bargi va guli / folie et flos Hippaphayos.

22. o'zbek va lotin tilida Chakanda o'simligi oilasining nomi?

jiydadoshlar/elaeagnaceae

jiydadoshlar/asteraceae

ra'noguldoshlar/rosaceae

yasnatkadoshlar/lamiaceae

23. Shisobaxsh chakanda mahsulotining tarisi?

dumaloq, bir oz cho'ziqroq shaklli, sersuv danakli meva.

dumaloq, burishgan, ikki bo'lakli yaltiroq qizil, qo'ng'ir rangli meva.

yon tomonlari o'roqqa o'xshab bir oz egilgan, yarimta doncha.

sharsimon, qora rangli, burishgan, ko'p urug'li meva.

24. Meditsinada chakanda moyining ishlatalishi

og'riq qoldiruvchi, radioaktiv nurlardan zararlangan teri, yaralarni bitirishda, avitaminoz va gipoksiyada.

yurak xastaliklarida yurak tonusini ko'taruvchi, ya'ni kardiotik ta'sir ko'rsatadi va yurak ishini yaxshilaydi.

buyrak toshi va siylik yo'llari shamollaganda dezenfeksiyalovchi vosita sifatida keg qo'llaniladi.

organizm umumiy tonusini ko'taruvchi va stimullovchi, og'riq qoldiruvchi, qo'zg'atuvchi ta'sirga ega.

25. Bir yillik jag' jag' o'simligining qaysi mahsuloti yig'ib olinadi?

yer ustki qismi.

bargi va guli.

poyasi va ildizi.

mevasi va bargi.

26. Lotin tilida jag' jag' o'simligi qanday nomlanadi?

capsella bursa pastoris medic.

herba bursae pastoris.

brassicaceae.

lagochilus inebrians.

27. Muhini ta'sirga ega bo'lgan Jag' jag' o'simligining ta'sir etuvchi moddasi?

asosiy ta'sir qiluvchi moddasi vitamin K, flavonoidlar.

asosiy ta'sir qiluvchi moddasi vitamin C.

asosiy ta'sir qiluvchi moddasi vitamin P.

asosiy ta'sir qiluvchi moddasi sapopninalar.

28.Xalq tabobatida jag' jag' o'simligining ishlatalishi

qon to'xtatuvchi va tonuslovchi.

qon to'xtatuvchi va siydik haydovchi.

ich yumshatuvchi va tonuslovchi.

dezenfeksiyalovchi va terlatuvchi.

29.Farmatsevtikada jag' jag' mahsulotining dorivor preparatlarini ko'rsating

damlama, suyuq ekstrakt.

damlama, nastoyka.

qaynatma, ekstrakt.

damlama, qaynatma.

30.Berilgan na'matak mevasining asosiy ta'sir qiluvchi moddasini ko'rsating

vitamin C.

efir moylari.

karatinoidlar.

vitamin K.

TARKIBIDA EFIR MOYLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLER VA MAHSULOTLAR

Farmatsiya sohasida ishlaydigan yuqori malakali xodimlar tarkibida efir moylari saqlagan dorivor o'simlik mahsulotlarini tayyorlash, quritish, saqlash va tahlil qilishni yaxshi bilishlari kerak. Shuning uchun talabalar o'simliklarni morfologik tasvirlash, mahsulotni chinligini, sifatini va tozaligini aniqlash bo'yicha amaliy tajribalarga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Talabalarda efir moylari saqlovchi dorivor o'simliklarning tashqi ko'rinishini tasvirlash, dorivor o'simlik mahsulotlarining chinligini, sifatini va tozaligini, ishlstilishi, dori turlari hamda kimyoviy taxlil usullari bo'yicha amaliy bilimlarni mustahkamlash.

Terpenoidlar (yoki izoprenoidlar) va ularning hosilalari beshta uglerod atomidan tashkil topgan izopren (C_5H_8) unumlari hisoblangan, o'simliklar (hayvonlarda) dunyosida keng tarqalgan tabiiy birikmalarning katta guruhidir. Bu birikmalarga efir moylari, sinolalar, o'simlik —achchiql moddalari, steroidlar, saponinlar, karotinoidlar, kauchuk va boshqalar kiradi. Terpenoidlarning ayrim guruhlari kimyoviy tuzilishlari, farmakologik va boshqa xossalari hamda tahlil qilish usullari bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun ular farmakognoizyaning boshqa qismlarida o'rganiladi. Mazkur mavzuda tarkibida efir moylari hamda achchiq moddalari — achchiq glikozidlar bo'lgan dorivor o'simliklar va mahsulotlar o'rganiladi.

Tarkibida efir moylar bo'lgan dorivor o'simliklar va mahsulotlar

Efir moyi deb, o'simliklardan suv bug'i yordamida haydab olinish mumkin bo'lgan, maxsus hendi va mazasi bor uchuvchan va asosan terpenoidlardan tashkil topgan organik moddalar aralashmasiga aytildi. Xushbo'y hidli o'simliklar va ulardan olingan mahsulotlar odamlarga qadimdan ma'lum bo'lib, bulardan har xil kasalliklarni davolashda va ovqatlarga solishda ishlatganlar. O'rta asrda arablar o'simliklardan cfir moylarini suv bug'i yordamida haydab olishni va keyin suvdan ajratib olishni bilganlar. Efir moylurini har tamonlama o'rganishda 19 - 20 asrlarda yashagan A.M.Butlerov A.N.Reformatskiy Gildemeystr va Gofman (Germaniya),

E.E.Vagner va uning shogirdlari (Polsha) va boshqa olimlarning xizmati katta. 1920 yildan keyin B.N.Rutovskiy, G.B.Pigulevskiy, I.P.Tsukervanik, N.G.Kiryakov, M.I.Goryacov va boshkalar efir moylarini tarkibini o'rganishda, bu moylar bor o'simliklarni topish va o'rganishda katta xizmat qildilar.

O'simlik dunyosida efir moylari keng tarkalgan bo'lib 2500 dan ortiq o'simlik turlarida topilgan. Shulardan 77 oilaga kiradigan 1050 dan ortik o'simliklar SNG territoriyasida o'sadi. Lamiaceae - yasnotkaguldopshar (labguldoshlar - Labiatae), seldereyguldoshlar - Ariaceae (soyabonguldoshlar - Umbelliferae), Asteraceae - astroguldoshlar (murakkabguldoshlar - Compositae), ra'noguldoshlar (Rosaceae) va boshqa oilalar vakillarida, ayniqsa, efir moylari juda ko'p uchraydi. Ukraina, Moldaviya, Gruziya, Tojikiston, Kirg'iziston, Shimoliy Kavkaz, Voronej oblastlarida efir moylari saqlovchi o'simliklar keng o'stiriladi. O'simliklarning deyarli barchu organlarda efir moyi to'planishi mumkin, xattoki bitta o'simlikning har xil organida har xil tarkibli efir moyi to'planishi mumkin. Efir moylari bir o'simlik mahsulotida 0,001 - 20 % gacha bo'lishi mumkin. Efir moyining miqdori va tarkibiy qismi o'simlikning o'sish joyiga, taraqqiyot davriga, yoshiga va navaiga qarab o'zgurib turadi. Efir moyining o'simlik tarkibida ko'p yoki kam bo'lishi havo haroratiga va namligiga, tuproq namligiga hamda erdag'i mineral moddalarning sitatiga va miqdoriga ko'p jihatdan bog'liqdir. Odатда janubda o'sadigan o'simliklar shimoldagiga nisbatan efir moyiga boy bo'ladi.

Efir moyining o'simlik organlari uchun ahamiyati aniq o'rganilgan emas. Ba'zi olimlar efir moylari va smolalar o'simliklarni turli kasallikkardan, zararkunandalardan, chirishdan hamda zaharlanishdan saqlash vazifasini o'taydi desalar, boshqalar o'simlik changlashi uchun hashoratlarni jalb qilish uchun ishlab chiqaradilar deyishadi, ayrimlari esa efir moylari o'simlik chiqindisi yoki jamg'arma (zapas) ovqat moddasi bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaydilar.

Yana boshqa juda ko'p nazariyalar mavjud bo'lsada, oxirgi paytda efir moylari o'simlik to'qimalarida oksidlanish - qaytarilish, modda almashinuv jarayonlarida aktiv qatnashadilar degan fikrlar olg'a surilmoqda. O'simlik qariy boshlashi bilan oksidlangan komponentlarni ko'payishi ularning modda

almashuvida aktiv ishtirok etishini tasdiqlaydi. Efir moylari o'simlik to'qimalarida moy ishlab chiqaruvchi va saqlovchi maxsus organlarda to'planadi va ular 2 ga bo'linadi:

1. Sirtqi - ekzogen organlar o'simliklar sirtida bo'lib, epidermal to'qima ustiga joylashgan.
2. Ichki - endogen organlar epidermal to'qimalar ostida joylashgan.

Efir moylari ishlab chiqaruvchi ekzogen organlarga bezsimon dog'lar, bezli tuklar va maxsus bezlar kirdi. Efir ishlab chiqaradigan maxsus bezlar ekzogen organlarning eng murakkabi hisoblanadi. Bunday bezlar labguldoshlar va murakkabguldoshlar oilusida ko'p bo'lib, mikroskop ostida ko'rish mumkin. Efir moyi ishlab chiqaruvchi endogen organlarga moy to'planadigan joylar, kanalchalar, moy yo'llari hamda ildiz va ildizpoyanining epidermis yoki probka to'qimalari ostida bir ikki qator bo'lib joylashgan hujayralar kirdi. Bunday hujayralar moy ishlab chiqaradi va saqlaydi. Moy to'planadigan joylar shar yoki cho'ziq shaklda bo'lib, o'simliklar bargida, gulkosachu bargida, po'sglog'ida, eg'och qismida va meva po'stida uchraydi. Efir moylari to'planudigan joylar o'simlik organlarida har xil usul bilan xosil bo'ladi. O'simlik to'qimularning siqilishi natijasida bo'shliq xosil bo'ladi va ularni chetida efir moyi ishlab chiqaradigan hujayralar paydo bo'lib, ular moy yig'iladigan joyni xosil qiladi. Bu usul sxizogen tipi deb ataladi. Agar paydo bo'lgan 1 tomchi efir moyi hujayra devorlarini eritib, bo'shliq xosil qilsa va atrofida efir moyi ishlab chiqaradigan hujayra paydo bo'lib, ular moy yig'iladigan joyni vujudga keltiradi. Bu usul lizogen tipi deb ataladi. Odadta hujayralarni siqilib hosil qilgan bo'shligida paydo bo'lgan efir moyi atrofidagi qolgani hujayralarni eritib, moy yig'iladigan joyni vujudga keltiradi - bu usul sxizolizogen tipi deb ataladi. Kanalchalar va moy yo'llariga shaklini o'zgartirgan (uzunlashgan) moy yig'iladigan joylar deb qarash mumkin

Efir moylarni olish usullari

1. Efir moyini o'simliklardan suv yoki suv bug'i yordamida haydab olish usuli.
2. Matseratsiya usuli (mahsulot + zaytun yog'i. 10 = 500) shamilish.

3. Anfleraj (yutish) usuli - efir moylarini qattiq moylarga yutilishiga asoslangan 50 x 50 sm qalin oyna 5 sm qalinlikdagi ranikaza o'matiladai va ikki tomonqa yuqori sifatli yog' aralashmasi suriladi (3 qism cho'chqa yog'i va 2 qism mol yog'i). Keyin gul barglari solingan kamerasaga qo'yiladi. 1 - 2 xuslada xushbo'y yog' olinadi.

Keyingi paytda aktivlishtirilgan ko'mirga yutish usuli ham ishlab chiqilgan.

1. Presslash usuli.

2. Ekstraksiya usuli.

Efir moylarning fizik xossalari

Ko'pincha rangsiz yoki rangli, o'ziga xos hidi va o'tkir muzasi bor uchuvchan suyuqlikdir. Zichligi ko'pincha suvdan engil, lekin og'iri ham bor. 0,8 dan 1,18 g gacha. Assimetrik uglerod atomi bo'lgani uchun kutblangan yorug'lik tekisligini o'nga yoki chupga buradi. Qaynash 10 - si turli temperaturada ayrim - ayrim ajralib chiqaveradi. Organik erituvchilarda eriydi, suvda erimaydi, lekin hidini suvga o'tkazadi. Bu xilda olingan xushbo'y suvlari nedenada ishlatiladi, masalan, Aqua Rosae, Aqua Menthae, Aqua Faemiculi va boshkalar. Efir moylari sovitilsa kristall stearopten qismi ajraladi, suyuq qismini eleopten deyiladi.

Efir moylarning kimyoviy tarkibi

Efir moylari organik moddalar aralashmasidan iborat bo'lib, tarkibiga: barcha uglevodorodlar, terpenlar, spirtilar, yog' kislotalar, fenollar, aldegidlar, kislotalar, murakkab efirlar, laktolar N, S saqlagan boshqa organik moddalar kiradi. Tarkibida O₂ bo'lganlari xushbo'y bo'ladi.

Efir moylarni analiz qilish usullari

Efir moylarini taxlil qilishdan maqsad uning dorivor o'simliklar tarkibidagi miqdorini aniqlash, tashqi ko'rinishi, fizik va kimyoviy doimiylik darajasini (konstantalarini) hamda moy tarkibidagi ahainiyatga ega bo'lgan ayrim qismlar miqdorini aniqlashdan iborat.

O'simliklar tarkibidagi efir moyi miqdorini aniqlash (XI DF bo'yicha)

Buning uchun 700 - 800 ml xajmdagi dumaloq kolbaga 10 - 20 g maydalangan mahsulot solib, ustiga 300 ml suv quyilib, ustiga sovutgich (xolodilnik) o'matiladi. Sovutgichini pastki kolbaga kirib turgan qismiga Ginzberg asbobchasini o'matiladi va kolba qizdiriladi Ginzberg asbobchasi U shaklda bo'ladi. Suv qaynaganda o'zi bilan birga efir moyini uchirib chiqaradi va sovutgichda sovugandan so'ng suyuqlikka aylanib Ginzberg asbobchasiga oqib tushadi. Efir moyini zichligi suvdan kam bo'lsa efir moyi Ginzberg asbobchasini yuqori qisimidu to'planadi va xajimi ml da ko'rinish turadi. Oxirgi 10-20 minut ichida efir moyi miqdori oshmasa demak efir moyini hammasi mahsulotdan ajratib olingan hisoblanadi. So'ngra efir moyini miqdorini quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

x - E.M. % miqdori;

a - E.M. Ginzberg asbobchasidagi ml xajmi;

d - E.M. zichligi;

p - taxlil uchun olingan o'simlik organining miqdori.

Efir moylarini xossalariini aniqlash

Efir moylarini xossalariini aniqlashga ularning tashqi ko'rinishi - rangi, tiniqligi, hidi va mazasi kiradi. Agar efir moyining sifati past bo'lsa uning ko'rsatgichlari o'zgarib qoladi.

1. Rangi va tiniqligi quyidagicha aniqlanadi. Diametri 2 - 3 sm bo'lgan rangsiz, tiniq shisha silindrga 10 ml moy solib, o'tuvchi nurda standart (solishtiruvchi) efir moyi bilan solishtirib ko'rildi. Ikkalasi bir xil bo'lishi kerak.
2. Hidini aniqlash uchun uzunligi 12 sm, kengligi 5 sm bo'lgan filtr qog'ozga (chetiga tegizmasdan) 0,1 ml (2 tomchi) moy tomiziladi.

Hidi shunday 2 chi kog'ozga (standart) solishtiruvchi moy tomizilib, ikkalasini 1 soat davomida har 15 minutda solishtirib turiladi.

1. Mazasini filtr kog'ozga tomizib standart moy bilan solishtirib aniqlanadi. Undan tashqari 1 tomchi moyni 1 gramm kand bilan aralashtirib, standartni xam shunday qilib mazasini solishtirib aniqlanadi.

Efir moylar tarkibidagi aralashmalarni aniqlash

Bularga spirt, yog'lar, mineral moylar, suv va boshqalar kiradi. Bular moylami olish davomida, falsifikatsiya (ko'zbo'yamachilik) qilish uchun ham ko'shiladi. Shuning uchun bu aralashmalarni aniqlash zarurdit. 15

Efir moylar tarkibidagi spirt aralashmasini aniqlash

1. Soat oynasiga quyilgan suv ustiga 1 nechu tomchi efir moyi tomizib, kora buyum ustida ko'rilganda moy tomchilari atrofida loyqalanish bo'lmasligi kerak.
2. Quruq probirkaga 1 ml efir moyi quyiladi, so'ngra paxta ustiga suktsinning kristalidan qo'yiladi va efir moyi qaynaguncha qizdiriladi. Agar efir moyi tarkibida spirt bo'lsa, uning bug'i suktsinni eritadi va u paxtani qizil rangga bo'yaydi.

Efir moyi tarkibidagi yog" va mineral moylarni aniqlash

1 ml efir moyi probirkaga quyib 10 ml spirt bilan chayqatiladi. Yog' va mineral moylar (vazelin moyi, parafin moyi) bo'lsa ular spirtda erimaydi va probirkadagi aralashma loyqalanadi. Yog'lar aralashmasini yana akralein reaktsiyasi yordamida.

Efir moyi tarkibidagi suvni aniqlash

1 ml efir moyi probirkaga quyib unga suv bilan to'yintirilgan benzoldan 3 ml qo'shib chayqatiladi. Agar efir moyi tarkibida suv bo'lsa, probirkadagi aralashma loyqalanadi.

Efir moylarning fizik konstantalarini aniqlash

Bularga:

1. Zichligi
2. Qutblangan nur tekisligini og'dirish ko'rsatgichi
3. Yorug'likni sindirish koefitsienti
4. Qotish temperaturasi
5. Fraktsion haydash
6. Eruvchanlik va boshqa ko'rsatgichlar kiradi.

Bu ko'rsatgichlar efir moylarini identifikatsiya - chinligini va sifatini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Zichligi - piknometr;

Yorug'likni sindirish koefitsienti - refraktometr;

Qutblangan nur tekisligining og'dirish ko'rsatgichi - polyarimetr yordamida aniqlanadi. Efir moylarining spirtda eruvchanligini aniqlash uchun 1 ml moy 10 ml xajmdagi silindrga quyiladi va moy to'lik erib ketguncha chayqatib turib, unga byuretkadan ma'lum darajadagi spirt ko'shib turiladi. So'ngra bataynom efir moyi erib ketishi uchun qonga spirt ketganligi aniqlanadi.

Fraktsion xaydash yo'li bilan uning tarkibidagi barcha qismalarning qaynash temperaturasi va miqdori aniqlanadi.

Efir moyini qotish temperaturasini aniqlash tarkibida stereoptein ko'p moylar uchun katta rol o'yndaydi.

Efir moylarning kimyoviy konstantalarini aniqlash

Bularga:

- kislota soni, efir soni, atsetillashdan so'nggi efir soni
- sovunlanish.
- efir soni kiradi.

Kislota sonini aniqlash. Kislota soni deb, 1 g efir moyi tarkibidagi sof kislotalarni neytrallash uchun ketgan kaliy ishqorining milligram - miqdoriga aytildi.

Aniqlash texnikasi (XI DF bo'yicha). 1,5 - 2 g (aniq qism) efir moyi 5 ml neytral spirtda critiladi va muntazam chayqatib turib, kaliy ishqorining 0,1 spirtdagi eritmasi bilan titrlanadi. (e.m. tarkibida fenollar ko'p bo'lsa, ishqorning bir qismi fenolyat hosil qilishga sarf bo'ladi, natijada kislotalar miqdori sun'iy ko'payib ketadi. Shuning uchun titrlashda fcnolftalein o'rnila fenol - qizil indikatori ishlataladi)

Sovunlanish sonini aniqlash. Sovunlanish soni deb1 g efir moyi tarkibidagi sof kislotalarni neytrallash va murakkab efirlarni sovunlash uchun ketgan kaliy ishqorining mg miqdoriga aytildi.

Aniqlash texnikasi (XI DF bo'yicha). Analitik tarozida 2 g efir moyi tortib olib, 200-250 ml hajmdagi kolbaga solinadi, unga kaliy ishqorining 0,5 mol/l spirtdagি eritmasidan 25 ml qo'shiladi. Kolbaga vertikal holatda sovutg'ich o'rnatib, qaynab turgan suv hanumomida bir soat davomida sekin qizdiriladi. Shunda kolbadagi efir moyi butunlay sovunlanishi kerak. Gidroliz natijasida vujudga kelgan mahsulotlar suvda erib, tiniq eritma hosil qiladi. Bunda eritma ustida suzib yurgan esir moyi tomchilar bo'lmasligi va kolba ichidagi eritmaga suv qo'shganda loyqalanmasligi kerak. Qizdirish vaqtida kaliy ishqorining spirtdagи eritmasi o'zgarib ketishi mumkin, shuning uchun shu sharoitda asosiy tajriba bilan birga kontrol tajriba ham qo'yiladi (kontrol tajribada efir moyi qo'shilmaydi). Qizdirish to'xtatilgandan so'ng tezda ikkala (asosiy va kontrol) kolbaga 25 ml dan issiq suv, 1 ml dan fenolftalein eritmasi qo'shib kolbalurdagi suyuqlik rangsizlanguniga qadar reaksiyogni kirmay ortib qolgan kaliy ishqorni xlорид kislotaning 0,5 mol/l eritmasi bilan titrlanadi.

Agar tahlilga olingan birikmalar qiyinlik bilan sovunlansa, jarayonni tezlatish uchun ozgina ksilol qo'shib, ko'proqqizdiriladi. Sovunlanish natijasida hosil bo'lgan mahsulotlar rangli bo'lganida fenolftalein indikatori o'rнига timolftalein ishlatish tavsiya etiladi. Sovunlanish soni (S.S.) quyidagi formula bo'yicha hisoblanad

Efir moylarning tibbiuotda qo'llanishi

Efir moylari medidinada har xil kasallikkarda ichiladi, badanga surtiladi, in'ektsiya qilinadi, ba'zi dorilarni hidini yaxshilashda qo'llaniladi va h.o. Ko'p efir moylari bakteritsid xossasiga ega bo'lgani uchun nafas yo'llarini dezinfektsiya - ingalyatsnya qilishda qo'llaniladi. Bolnitsalar havosini yaxshilash uchun ham qo'llaniladi. Efir moylari parfyumeriyada, kosmetikada, texnikada, oziq-ovqat sanoatida ishlataladi

QALAMPIR YALPIZ O'SIMLIGINING BARGI VA EFIR MOYI –

Folia et oleum Menthae piperitae

O'simlikning nomi. Qalampir yalpiz - *Mentha piperita L.*

Oilasi. Yasnotkadoshlar - Lamiaccac (labguldoshlar - Labiateae)



Qalampir yalpiz ko'p yillik, bo'yi 30 - 100 sm ga etadigan o't o'simlik bo'lib, moyasi bir nechta, tik o'suvchi, 4 qirrali. Bargi oddiy, cho'ziq - tuxumsimon yoki lantselsimon, o'tkir uchli, qirrasi o'tkir aurasimon, moyada qisqa bandi bilan qarama-karshi joylashgan. Gullari mayda, qizil - binafsha rangda, poya va shoxlar uchida g'uj joylashgan boshoqchasimon gul to'plami hosil qiladi.

Gulkosachasi naychasimon, besh tishli bo'lib, meva bilan birga qoladi. Gul tojisi bir oz qiyshiq, voronkasimon, to'rt bo'lakli (boshqa labguldoshlardan farqi), otaligi 4 ta, onalik tuguni 4 bo'lakli, yuqoriga joylashgan. Mevasi kosacha bargi bilan birlashgan 4 ta yong'oqcha. Geografik tarqalishi. Qalampir yalpiz yovvoyi holda uchramaydi. Uni *Mentha aquatica L.* bilan *Mentha spicata L.* ningo'zarochatishishidanv ujudgakelgan, debfarazqilinadi. QalampiryalpizasosanUkrainada,

Krasnodaro'lkasida, Voronejda, Belorussiyadava Moldoviyada o'stiriladi.

Qalampir yalpizning ikki xil turi bor:

1) Qoraqkalampir yalpiz va (poyaning tomirlari qizil - binafsha rangda)

2) Oqqalapiryalpiz (oqyashil rangda). MXDda qora qalampir yalpiz o'stiriladi.

Mahsulot tayyorlash. G'unchalash davrida yoki yarim guli ochilgandan so'ng mashinalar orqali o'rab olinadi, 2 chimarotabakuzdayana o'rabolinadi. So'ligan,

yarim qurigan poyalardagi barglarni qoqib, bargini kerakligini yana quritiladi, zavodlarga yuboriladi. Efir moyi olinadigan mahsulot o'simlik qiyg'os ochilgan paytda o'rildi, bu paytda efir moyi kam bo'lsa ham, mentol ko'p bo'ladi. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot cho'ziq tuxumsimon yoki lantsetsimon, qisqabaudli, o'tkir uchlisi, arrasimon notekis qirrali bargdan iborat. Uzunligi 8 sm, eni 3 sm bo'lib, ustki tomoni to'q yashil, pastki tomoni esa och yashil rangda. Ikkinchisi tomirlarini uchlari birlashib, barg chetida parallel chiziq xosil qiladi, o'tkir hidli, mazasi tilni achitib, uzoq vaqtgacha muzdek qilib turadi.

Mahsulotni mikroskopik tuzilishi.

- 1) Ustida - og'izchalar.
- 2) Bezlar.
- 3) Bezli boshchali va bir hujayrali kalta oyoqchali tuklar bo'ladi.
- 4) Uzun tuklar.

Ishlatilishi. Barg preparatlari, efir moyidan tayyorlangan suvi va nastoykasi ko'ngil aynashiga, quşishga qarshi ishlatiladi va ovqat hazm qilishni yaxshilaydi, boshqa suyuq dorilarni ta'mini yaxshilashda ham ishlatiladi, mentol qulqoq, burun, nafas yo'llari kasalliklarida humda tish og'tig'ini qoldirishdu ishlatiladi. Mentol preparati – validol ko'krak qisish (stenokardiya) kasalligida ishlatiladi.

Dorivor preparatlari. Bargidan damlama, efir moyidan yalpiz suvi – Aqua menthae, nastoyka Tinctura Menthae tayyorlanadi: bargidan tinchlantiruvchi, o't haydovchi, me'da-kasalliklarida ishlatiladigan tabletka va tomchilar tayyorlanadi.

DORIVOR MARMARAK O'SIMLIGINING BARGI –

Folia salviae

O'simlikning nomi: Dorivor marmarak (mavrak) - *Salvia off.*

Oilasi: Yasnotkadoshlar - Lamiaceae (labguldoshlar - Labiateae)

. Ko'p yillik bo'yli 20 - 50 sm ga etadigan yarim buta. Poyasi ko'p, shoxlangan, serbarg, to'rt qurali, pastki qisimi bir oz yog'ochlangan. Bargi oddiy, uzun bandli, poyani yuqori qisimidagilari bandsiz bo'lib, karama - qarshi joylashgan.



Gullari qisqa bandli, mayda, poyaning yuqori qismida boshoqsimon gul to'plamini xosil qiladi. Mahsulot tayyorlash. Mavruk bir yilda gullagandan boshlab uch marta qo'l bilan terib olinadi. 1 chi va 2 chi terimda poyaning pastki qismidagilari 3 chi gal hamma barglar terib olinadi va quritiladi. Mahsulotning tashqi kurinishi. Mahsulot uzun bandli, cho'zinchoq yoki lantsetsimon bargdan iborat. Bargning uchi to'mtoq, qirrasi to'mtoq tishli uzunligi 6 - 10 sm, eni 2 - 2,5 sm. Yosh barglar juda ko'p iuklar bilan qoplanganligi uchun kumush rangda ko'rindi. Bargdagi 3 - 4 tartibdagi tomirlar bo'rtib chiqqani uchun, pastki tomonida mayda katakchalar shaklini xosil qilgan bo'ladi. Mahsulotning xuslibo'y hidi, achchiroq yoqimli, biroz burishtiruvchi mazasi bor. Kimyoviy tarkibi. Efir moyi bargda 0,5 - 2,5%, alkaloidlar, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, ursol va olsanol kislotalar va boshqalar bor. Mahsulot tarkibida efir moyi 1% dan qirqilganida 0,8% dan kam bo'lmasligi kerak.

EVKALIPT BARGI VA MOYI -

Folia et oleum Eucalypti

O'simlikning nomi. Zangori (sharsimon) evkalipt - *Eucaliptus globulus*.

Kul rang evkalipt - *Eucalyptus cinerea*.

Oilasi: Mirtadoshlar - Myrtaceae - *E. Viminalis* - chiviksimon evkalipt.

Zangori evkalipt bo'yi 50 - 70 m ga etadigan doim yashil daraxt. Barglari ikki xil, o'simlikning yosh barglari zangori, tuxumsimon, qalin mum qavati bilan qoplangan bo'lib poyada bandsiz qarama - qarshi joylashagan. 3 - 4 yilgi barglari esa to'q yashil, ingichka lantselsimon, o'roqqa o'xshab egilgan bo'lib poyada qisqa

bandlari bilan ketma - ket bo'lib erga nisbatan tik joylashgan. Shuning uchun evkalipt erga yaxshi soya bermaydi. Guli yakka - yakka, bandsiz, barg qo'llig'iga joylashgan. Gul kosachasi naychasimon, onalik tuguni bilan birlashgan. Gul g'unchasida kosacha qopqoq bilan yopilgan bo'lib, otaliklari va 4 ta tojbargini berkitib turadi. Gul ochilgandan keyin ko'proq tushib ketadi. Otaligi ko'p sonli, onalik tuguni pastga joylashgan. Mevasi - to'rt qirrali chanoq.

Geografik tarqalishi. Vatani Avstraliya. MXD da Kavkaz, Ukrainianing janubida (Qrim), Moldoviyada o'stirladi.

ODDIY TOG'JAMBUL O'SIMLIGINING YER USTKI QISMI VA MOYI -

Herba et oleum Thymi

O'simlikning nomi. Oddiy tog'jambul (timyan) - *Thymus vulgaris*.

Oilasi. Yasnotkadoshlar - Lamiaceae



Bo'yi 50 sm ga etadigan yarim buta, poyasi tik o'suvchi, pasti yog'ochlangan, shoxlari sertuk, to'rt qirrali. Bargi mayda, qisqa bandi bilan qarama - qarshi o'mashgan. Gullari mayda, binafsha - qizil rangda, ular shingilsimon to'p gulni tashkil qiladi. Mevasi kosachabarg bilan birlashgan 4 ta yong'oqcha. Iyun - iyullardu gullaydi, mevasi avgust - sentyabrda etiladi. **Geografik tarqalishi.** Vatani Ispaniya va Frantsiyani janubi, MXD larida uchramaydi. Krasnodarda, Qrimda, Ukraina va Moldoviyada o'stirladi.

Mahsulot tayyorlash. Yer ustki qismi o'rib olinadi, quritiladi, maydalab, elanadi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot barg, gul va ingichka poya aralashmalaridan iborat. Barg mayda, qisqa bandli, tekis qirrali, qirrasi ichiga qayrilgan bo'lib naycha shaklini hosil qiladi (sudralib o'suvchi tog'jambuldan farqi). Shuning uchun barg chiziqsimon bo'lib ko'rindi. Tekislangan barg lantsetsimon yoki ellipssimon bo'lib uzunligi 5 - 10 ml, eni 2 - 3, bazan 5 ml. Bargni ustki tomoni to'q yashil, pastki tomoni esa kulrang yashil, gullari mayda 2 labli, besh tishli (yuqori labi 3 tishli, pastkisi 2 tishli) bo'lib oqimtir dag'al tuklar bilan qoplangan (gul kosachabargi).

Mahsulotni timol hidi (o'ziga xos), o'tkir mazasi bor.

Kimyoviy tarkibi. Tarkibida 0,8 - 1,2% efir moyi bor, organik kislotalar bor. Efir moyi 1% kam bo'lmasligi kerak.

Efir moyi tarkibida 42 % (25 - 60%) gacha fenollar (asosan timol) va boshqalar borlshlatilishi. Efir moyi dczinfektsiyalovchi va antiseptik dori sifatida og'iz va tomoq shilliq pardalarini dezinfektsiya qilishda ishlatiladi.

Efir moyidan timol olinadi.


Dorivor preparatlari. Efir moyi, timol (kapsulada), er ustki qismidan tayyorlangan suyuq ekstrakt, pertussin - balg'am ko'chiruvchi dori sifatida bronxit, ko'k yo'tal kasalliklarida ishlatiladi.

ARPOBODIYON (ANIS) O'SIMLIGINING MEVASI VA MOYI- Fructus et oleum Anisi vulgaris

O'simlikning nomi. Oddiy arpabodiyon – *Anisum vulgare* Gaertu

Oilasi. Selderdochlar - Apiaceae (Soyabonguldoshlar - Umbelliferae)

Arpobodiyon 1 yilliko to'simlikbo'yisi 30 - 60 smga etadi. Poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, ko'pqirrali. Ildizoldi va poyaning pasiki barglari uzun bandli, 3 bo'lakli, arrasiimon qirrali, poyaning yuqori qismidagilari qinli, 2-5 marta patsimon qirqilgan poyaning yuqori qismidagilari bandsiz 3 marta qirqilgan ipsimon. Barglar poyada ketma-ket joylashgan. Gullari mayda, oq rangli,



murakkab soyabongu joylashgan. Kosacha barglarini tishi bilinear bilinmas, gultojbargi 5 ta, otaligi 5 ta, onalik tuguni 2 xonali, pastga joylashgan. Mevasi qo'shaloq pista. Iyunda gullaydi, avgustda pishadi. Geografik tarqalishi. Vatani Turkiya. MXD da Voronej, Volga bo'yida, Shimoliy Kavkaz, Ukraina, O'ta Osiyoda o'stiriladi. Mahsulot tayyorlash. Mevasini 50 - 60% pishgandan so'ng mashinada o'ralib bog' - bog' qilib, qolgan mevalari pishguncha yuqoriga qaratib qo'yiladi va quritiladi, keyin yanchib, elab tozalanadi. Mahsulotni tashqi ko'rinishi. Sariq yoki qo'ng'ir kulrang qo'shaloq pistadan iborat. Meva uzun bandli, teskari noksimon, uzunligi 3 - 5 mm eni 2 - 3 mm. Pishgan mevani 2 bo'lakka ajratish mumkin, ularni har qaysisida 1 ta dan urug' bo'ladi. Mevaning yuqori qismida 5 tishli gul kosachasi va 2 tomonga egilgan onalik ustunchalari saqlanib qolgan bo'ladi. Yarimta mevaning ichki tomoni tekis, tashki tomoni 3 ta qovurg'asi bor, mayda tuklari bor. Kimyoviy tarkibi. Meva tarkibida 1,2 - 3,2% efir moyi, 8 - 28,4% yog' va oqsil moddalar bor. Efir moyi rangsiz, och sarg'ish bo'lib o'ziga xos hidi va shirin mazaga ega. Tarkibida 80 - 90% stereopten-anetol, 10% metilxavikol, anis aldegid va ketoni, kislotasi va boshqalar borishlatilishi. Bronxitda balg'am ko'chiruvchi, el haydovchi, dorilar mazasini yaxshilovchi sifatida ishlatiladi. Mevadan olingan moy va efir moyi oziq-ovqat sanoatida,sovun sanoatida, parfyumeriyada ishlatiladi. Dorivor preparatlari. Arpabodayon efir moyi Oleum Anisi, nashatir arpabodiyon tomchisi - Liquor

Ammonii Anisatus va boshqalar tarkibiga kiradi. Mevasi ko'p ich yumshatuvchi dorilar tarkibiga kiradi.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Terpenoidlar va efir moylari haqida tushuncha, ularning tasnifi, fizik-kimyoviy xossalari. Efir moylarini o'simliklarda to'planashi. Efir moylarini o'rGANISHda Vatanimiz olimlarining tutgan o'mni.
2. Efir moylarini olish usullari va ularni mahsulot tarkibidagi miqdorini aniqlash.
3. Efir moylarini organoleptik tahlili.
4. Efir moyi tarkibidagi fenollar, aldegid va ketonlar miqdorini aniqlash, ximizmi
5. Yasnotkadoshlar, astradoshlar oilasiga mansub o'simliklarga xos bo'lgan morfologik va anatomik belgilar.
6. XI-DF bo'yicha mahsulot tarkibidagi efir moyini miqdorini aniqlash va shu usulda aniqlash qanday qonuniyatlarga asoslangan.
7. Kashnich o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.
8. Qalampir yalpiz o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.
9. Dorivor mavrak o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.
10. Evkalipt o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.
11. Moychechak o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

12. Qulmoq o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari

Mustaqil tayyorlash uchun vazifalar

Efir moylari saqlovchi dorivor maxsulotlarini tahlil qilish

a) efir moyi tarkibidagi fenollarni, aldegidlarni va ketonlarni aniqlash;

b) efir moylarini organoleptik tahlil qilish;

v) o'simlik mahsulotidagi efir moyi miqdorini XI - DF bo'yicha aniqlash.

Masalalar: 1. Qalampir yalpiz bargining efir moyi saqlovchi bezlari mikroskop ostida qanday ko'rinishdaligini izohlang.

2. Efir moylarini olish usullarini izohlang.

3. Efir moylarini saqlagan dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilish bo'yicha usullarini tushuntiring.

Nazorat savollari

1. XI DF bo'yicha mahsulot tarkibidagi efir moyini miqdorini aniqlash va shu usulda aniqlash qanday qonuniyatlarga asoslangan.

2. Efir moylari tarkibidagi aralashmalarni aniqlash.

3. Efir moylari tarkibidagi kislota sonini aniqlash.

4. Efir moylari tarkibidagi efir sonini aniqlash.

5. Qalampir yalpiz o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

6. Ekma kashnich o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

7. Dorixona ukropi o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

8. Arpabodiyon o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatalishi va dori turlari.

9. Tog'rayhon o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatalishi va dori turlari.

10. Maydagulli tog'rayxon o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatalishi va dori turlari.

11. Kiyik o'ti o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyatda ishlatalishi va dori turlari.

Nazorat testlar

1. Achchiq ermon mahsulotining kimyoviy tarkibi.

efir moyi, achchiq glikozidlar, xamazulen, laktonlar, oshlovchi moddalar.

efir moyi, laktonlar, karotin, flavonoidlar, vitamin C, oshlovchi moddalar.

laktonlar, vitamin C, karotin, organik kislotalar, flavonoidlar, oshlovchi moddalar

efir moyi, smolalar, alkaloidlar, flavonoidlar, karotin, vitamin C.

2. Dorivor valeriana o'simligining lotincha va o'zbekcha nomi.

valeriana officinalis/dorivor valeriana.

valeriana vulgare/ valeriana.

valeriana communis/valeriana.

valeriana helenium/valeriana.

3. Valeriana mahsulotini mikroskopik tuzilishi.

ildizni ko'ndalang' kesimidan va epidernis tagidagi efir moylari saqlovchi gipoderma qavati, parenximada kraxmal ko'rindi.

ildizni ko'ndalang kesimida epidermis, kraxmal donachalari, o'tkazuvchi to'qima to'plami ko'rindi.

mikroskopda kraxmal donachalari, druzlar, tomchi holidagi efir moyi ko'rindi.

mikroskopda efir moyli bezlar, tuklar va kraxmal donachalari ko'rindi.

4. kimyoviy tarkibini aniqlang valeriana mahsulotini.

efir moylari, bornil izovalerianat, izovalerian kislotasi, valopotriatlar.

alkaloidlar, glikozidlar kislotalar.

efir moylari, yurak glikozidlari, flavonoidlar.

yurak glikozidlari, alkaloidlari, valeriatlar.

5. Igit mahsulotini lotincha, o'zbekcha nomlari

rhizoma calami/igrit ildiz poyasi.

herba calami/igrit yer ustki qismi.

radix et rhizoma calami/igrit ildizi va ildizpoyasi.

herba et radix calami/igrit yer ustki qismi va ildizi.

6. Kashnich mahsulotini tashki ko'rinishi.

meva shakli yumaloq, pishganda bo'linmaydigan ikki bo'lakli, sarg'ish rangli.

bargdan iborat bo'lib, oddiy ellipssimon keng tuxumsimon, o'tkir uchli.

ildiz bo'laklaridan iborat bo'lib, ular silindirsimon, ichi kovak qo'ng'ir kulrang. meva sharsimon shaklli qoramtil binafsha rangli bo'ladi.

7. Efir moyini olish usullari

suv bug'i bilan haydash, presslash, matseratsiya, ekstraksiya usullari.

xloroform bilan ekstraksiya, ishqor bilan qaynatish, mikrosublimatsiya.

suv bilan ajratma olib, spirit bilan cho'ktirish.

efir bilan sokslet apparatida ekstraksiya qilinadi

8. Erituvchilarning qaysi birida Efir moylari yaxshi eriydi?

barcha organik erituvchilarda.

suvda, spiritda, benzolda, efir va xloroformda erimaydi.

suvda va 20% li etil spiritida eriydi, xloroformda erimaydi.

suv va kislotada eriydi, efirda erimaydi.

9. Eleopten nima?

efir moylarinisovutganda ajralgan suyuq qismi.

efir moylarini asosiy tarkibi.

efir moylaridagi terpenlar.

efir moylari tarkibidagi aromatik birikmalar.

10. Stereopten nima?

efir moylarinisovutganda tushadigan kristall qismi.

efir moylardagi optik aktiv modda.

efir moylarini suyuq, qismi.

efir moylarining asosiy tarkibiy qismi.

11. Refraksiya soni qanday konstantalarga imansub?

fizikaviy konstanta.

kimyoviy konstanta.

fizik - kimyoviy konstanta.

matematik konstanta.

12. Refraksiya sonini efir moyi analizidagi ahamiyati.

efir moyi chinligi, sifatliligi va tozaligini aniqlaydi.

efir moyini chinligini aniqlaydi.

efir moyini tozaligi, qotish haroratini aniqlaydi.

efir moyi eruvchanligi va chinligini aniqlaydi.

13. Ekzogen organlarga nimalar kiradi?

bezlar, bezli dog'lar, bezli tuklar.

kanalchalar, bezli tuklar.

kanalchalar, joylar, smola yo'llari ,eksrektor hujayralar.

joylar, 5 hujayrali bezlar.

14. Yasnotkadoshlarga xos efir moyi ishlab chiqaruvchi bezlarning tuzilishi qanday?

radius bo'yicha joylashgan 8 hujayrali yumaloq shaklli bezlar.

oval shaklli 2 qatorga joylashgan 8 hujayrali bezlar.

4 qavatli 8hujayrali bezlar.

oval shaklli 6- hujayrali bezlar.

15. Astradoshlarga xos bo'lgan efir moyi ishlab chiqaruvchi bezlarni tuzilishi

oval shaklli, 2 qatorga joylashgan 4 qavatli 8 hujayrali bezlar.

yumaloq shaklli 4 qatorli bezlar.

ko'p hujayrali boshchali, ko'p hujayrali oyoqqa joylashgan bezlar.

oval shaklli 8hujayrali boshchali bezlar.

16. Qalampir yalpiz o'simligi efir moyining asosiy tarkibiy qismi?

mentol

timol

kamfora

anetol

17. Mavrak o'simligi efir moyining asosiy tarkibiy qismi?

sineol

timol

mentol

anetol

18. Bornilizovalerianat qaysi o'simlik mahsulotida bo'ladi?

valerianada

arpabodiyonda

evkaliptda

qarag'ayda

19. Romashka o'simligining oilasi.

astradoshlar

selderdoshtlar

labguldoshlar

yasnotkadoshlar

20. Moychechak o'simligining mahsuloti.

guli

ildizi

mevasi

ildizpoya va ildizi

21. Asosly ta'sir qiluvchi moddasini ko'rsating Moychechak mahsulotini
efir moyi

flavonoidlar

kumarinlar

alkaloid

22. Tibbiyotda dorivor moychechak preparatlarini ishlatalishi.

ter va el huydovchi, me'da ichak, ginekologik kasalliklarda.

me'da ichak kasalligida.

yurak va jigar kasalligida.

burishtiruvchi vosita.

23. Tog'rayhon o'simligi oilasi.

yasnotkadoshlar

piyozguldoshlar

seldireydoshlar

astradoshlar

24. Shifobaxsh Tog'rayhoning mahsuloti.

yer ustki qismi

meva

guli

urug'i

25. Tarkibi bo'yicha Tog'rayhon mahsulotining kimyoviy tuzilishi.

efir moyi /timol, karvokrol.

Triterpenlar.

oshlovchi moddalar va timol.

efir moyi va alkaloidlar.

26. Tababotda Tog'rayhon preparatlarining ishlatalishi.

balg'am ko'chiruvchi, ter haydovchi, tish og'rig'ida.

me'da ichak kasalliklaridan.
yurak qon tomir kasalliklar.
antiseptik vosita sifatida.

27. Mikroskopik taxlilda Tog'rayhon o'simligining asosiy belgilari.
radius bo'ylab joylashgan 8 hujayrali bezlar, boshchali va oddiy tuklar.
bezlar, druzlar bir hujayrali tuklar.
suv naylari, druzlar va kraxmal.
probka, lub tolalar, steroidlar va druzlar.

28. Maxsulot sifatida Moychechak guli qachon yig'iladi?

savatchadagi tilsimon gullari gorizontal joylashib, o'simlik qiyg'os
gullaganda.

may oylarida.

gullar guncha davrida.

savatchadagi tilsimon gullari pastga yo'nalganda.

29. Efir moyi saqlaydigan maxsulotlar qanday xaroratda quritiladi?

30-35°da

5-20°Cda

50-60°Cda

100-60 °Cda

30. Fizik konstantalarini ko'rsating Efir moyini.

Yorug'likni sindirish koeffitsienti, qutblangan nur tekisligini og'dirish
burchagi.

zichligi, refraksiya , yorug'likni sindirish koeffitsienti.

qutblangan nur tekisligini og'dirish, zichligi, qotishi , fraksion haydash.

qotish va eruvchanliga, yorug'likni sindirish koeffitsienti.

TARKIBIDA IRIDOIDLAR (ACHCHIQ GLIKOZIDLAR) BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLER VA MAHSULOTLAR

Bu guruhga kiruvchi glikozidlarning aglikonlari monoterpenlar va ularning unumlaridan tashkil topgan. Aglikonlar bir yoki bir nechta molekula monosaxaridlar (ba'zan spetsifik yoki disaxaridlar) bilan birlashib, o'z glikozidlarini hosil qiladi. Tibbiyotda qo'llaniladigan tarkibida monoterpen glikozid bo'lgan o'simliklarning hammasi va glikozidlari achchiq mazaga ega. Shuning uchun bu guruh glikozidlarni achchiq glikozidlarni nomi bilan ham yuritiladi.

O'simlikning tarkibida achchiq mazali birikmalar ko'p uchraydi. Lekin ularning hammasi ham achchiq glikozidlarga kiravermaydi. Achchiq glikozidlarni me'da suyuqligining reflektor ajralishini kuchaytiradi va ishtaha ochadi, organizmga boshqacha fiziologik ta'sir ko'rsatmaydi. Boshqa achchiq moddalar esa organizmga turlicha fiziologik ta'sir etadi. Masalan: alkaloidlar (xinin, kapsatsin, piperin), turli glikozidlarni (yurak glikozidlari, tioglikozidlari) va boshqa birik-malar.

O'simliklari dunyosida achchiq glikozidlur kam bo'lib, ular erbaxodoshlar (Gentianaceae), meniantdoshlar (Menyanthaceae), astradoshlar (murakkab-guldoshlar) – Asteraceae (Compositae) va qisman yasnotkadoshlar (labguldoshlar) – Lamiaceae (Labiatae) oilasi vakillarida uchraydi.

Achchiq glikozidlarni o'simliklarning tarkibida efir moylari bilan birlgilikda uchrashi mumkin. O'simlik tarkibida bunday tabiiy holda birga uchrashuvini haqiqiy (chin) achchiq moddalar (Amara pura) dan farq qilgan holda hushbo'y (aromatik) achchiq moddalar (Amara aromatica) deyiladi. Ba'zan achchiq moddalar o'simlik tarkibida shilliq moddalar bilan birlgilikda uchraydilar. U holda ular Amara mucilaginosa deyiladi. Shunga ko'ra tarkibida achchiq modda saqlovchi o'simliklar ham uch guruhga bo'linadilar:

1. Tarkibida haqiqiy (chin) achchiq moddalar bo'lgan o'simliklar (qoqi o'simligi, tillabosh va uchbarg – meniantes va boshqa o'simliklar).
2. Tarkibida achchiq moddalar va efir moyi bo'lgan o'simliklar (achchiq shuvoq, oddiy igir, sitruslar va boshqalar).

3. Tarkibida achchiq va shilliq moddalar bo'lgan o'simliklar (*islandiya* yo'sini (lishaynigi – setrariya) va boshqalar).

Monoterpen glikozidlar yaxshi o'r ganilgan cimas. Ulardan bir qanchasi sof holda ajratib olingan. Sof holda ajratib olingan achchiq glikozidlar amorf yoki kristall modda bo'lib, neytral yoki kuchsiz kislota xossasiga ega. Ular suvda, etil, metil spirtlarida, ba'zilari xloroformda, efirda, benzolda, dixloretanda va boshqa organik erituvchilarda eriydi.

Monoterpen (achchiq) glikozidlarning hammasiga xos sifat reaktsiyalar va ular miqdorini aniqlaydigan usullar hozircha yo'q. Shunga ko'ra monoterpen glikozidlar hozircha achchiq moddalar sifatida standartizatsiya qilinadi, ya'ni ularning achchiqlik ko'rsatkichi organoleptik usul – Vazitskiy usuli bilan aniqlanadi.

Achchiqlik ko'rsatkichi deb, tekshirilayotgan achchiq moddaning suvdagi eritmasining yoki achchiq glikozidli o'simliklardan tayyorlangan qaynatmaning sezilarlik darajada achchiq maza beruvchi eng kichik miqdoriga (yoki kontsentratsiyasiga) aytildi.

Mahsulotdan Vazitskiy usulida tayyorlangan qaynatmadan (yoki achchiq modda eritmasidan) 10 ta probirkada turli kontsentratsiyali eritma tayrlanadi. So'ngra probirkadagi suyuqliklar mazasini (eng kichik kontsentratsiyasidan boshlab) birma-bir tatib ko'rib, standart eritma bo'lmish xinin sulfatning 1:100000 kontsentratsiyali eritmasiga solishtiriladi. Natijada achchiq mazali eng kichik kontsentratsiyali probirka topiladi. Shu probirkadagi eritmaning suyultirilgan darjasini topilsa, achchiqlik ko'rsatkichi kelib chiqadi. Achchiqlik ko'rsatkichi mahsulot (yoki modda) ning og'irlilik (miqdori) birligiga nisbatan hisoblanadi.

MENIANTES (UCHBARG) BARGI –

Folia Menyanthidis trifoliatae

(folium trifolii)

O'simlikning nomi. Uchbargli meniantes (uchbarg) – *Menyanthes trifoliata* L.

Oilasi. Meniantdoshlar – Menyanthaceae



Ko'p yillik, yo'qon, uzun, sudralib o'suvchi, bo'qimli, yuqori qismi ko'tariluvchi ildizpoyali o't o'simlik. Ildizpoyaning yuqori qismidan uzun bandli (bandi qinli), uch plastinkali ildizoldi barglar o'sib chiqadi. Gul o'qi tuksiz, 15–35 sm uzunlikda bo'lib, crta baqorda taraqqiy etadi. Gullari oq yoki och pushti rangli bo'lib, cho'ziq shingilga to'plangan. Gulkosachasi 5 tishli, birlashgan, meva bilan birga saqlanib qoladi. Gultojisi voronkasimon, 5 bo'lakli, och pushti rangli, otaligi 5 ta, onalik tuguni bir xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi – sharsimon, birxonali, o'tkir uchli, ko'p uruqli, pishganda ochiladigan ko'sak. May-iyul oylarida gullaydi, mevasi iyul-avgustda etiladi. Georgafik tarqalishi. Ukraina, Belorus, Boltiqbo'y, Rossiyaning Ovrupo qismining hamma tumanlarida, qarbiy va Sharqiy Sibirda, Uzoq Sharq va Kavkazda ko'lmak suvda, botqoqlikda, ariq, ko'l yoqalarida, botqoqli o'tloqlarda va o'rmonlarda o'sadi. Maqsulot Ukraina, Litva, Belorus respublikalarida hamda Rossiyaning Ovro'po qisminin shimoli-qarbiy viloyatlarida tayyorlanadi Mahsulot tayyorlash. O'simlikni gullaganida barglari kalta bandli qilib qirqib olinadi,

so'ngra yupqa qilib yoyib, havo kirib turadigan joyda quritiladi. Maqsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot uch plastinkali, tuksiz va uzunligi sm bo'lgan bandli bargdan iborat. Bargchalari kalta bandli, yupqa, yashil, ellipssimon yoki cho'ziq – teskari tuxumsimon. tekis yoki biroz notekis qirrali (qirrasida oqish yoki jigar rang quddachalar – suv ustitsalar bor) bo'lib, uzunligi 5–8 sm, eni 3–5 sm. Mahsulot hidsiz, mazasi juda achchiq-qirqilgan mahsulot 1–7 mmli turli shakldagi bo'lakchalardan tashkil topgan bo'ladi. Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida meniantin, 1 % mcliantin, loganin, svcrozid, foliamentin va boshqa achchiqglikozidlar, gentsianinalkaloidi, flavonoidlar (rutin, giperozid), 3% gacha saqlaydi.

QOQI ILDIZI – Radices Taraxaci

O'simlikning nomi. Dorivor qoqi (gulqoqi, momaqaymoq) – *Taraxacum officinale* Web; astradoshla



Ko'p yillik, sut-shirali o't o'simlik. Ildizi kam shoxlangan o'q ildiz. Bargining hamunasi ildizoldi to'pbargdan tashkil topgan. Bargi oddiy, barg plastinkasi lantsetsimon, patsimon kesik bo'lib, usos qismiga tomon torayib boradi. Barg bo'laklarining uchi barg asosiga qarab yo'nalgan. Gul o'qi tuksiz, ichi kovak, silindrsimon, uzunligi 15–30 sm. Gullari savatchuga to'plangan. Savatchaning

o'rma barglari ikki qator joylashgan, gullarining ammasi tilsimon Guljotisi 5 tishli, tilla rangli, otaligi 5 ta, onalik tuguni bir xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi – uchmali pisto. May-iyul oylaridan tortib, to sovuq tushgunga qadar gullaydi. Geografik tarqalishi. Arktika va cho'l tumanlardan tashqari hamma erda uchraydi. Asosan u o'rmon, o'rmon-cho'l va cho'l qududlaridagi (cho'lni shimaliy tumanlarda) o'tloqlar, ko'chalarda, qovli, boq, parklar, ekinzor va boshqa erlarda o'sadi. Maqsulot Ukraina, Belarus respublikalari, Voronej, Kursk, Kuybishev viloyatlari va Boshqirdistonda tayyorlanadi. Mahsulot tayyorlash. O'simlik gullay boshlaganda ildizi bilan birga suqurib olinadi. So'ngra boqlam qilib, ildizi chopib tashlanadi, qolgan er ustki qismini soya erda 40-50 C da quritiladi Kimyoviy tarkibi. Ildizi tarkibida taraksatsin va taraksatserin achchiq glikozidlari, tarakserol, taraksosterol, q - amirin va boshqa triterpen birikmalari, 24 % gacha inulin, 2-3 % gacha kauchuk, yoq va boshqu moddalar bo'ladi. Gul to'plami va bargi tarkibida karotinoidlar, triterpen spirtlardan –arnidiol va faradiol hamda vitamin B2 bor. Mahsulot tarkibida inulin borligi Molish reaksiyasini yordamida quyidagicha aniqlanadi: ildizdan kesib olingan bo'lukchaga q-nastolning spirtdagagi 20 % li eritmasidan 2-3 tomchi va kontsentrlangan sulfat kislotadan 1-2 tomchi tomizilsa, ildiz bo'lakchasi (inulin) binafsha rangga bo'yaladi. Agar q-nastol o'mida rezortsin yoki timolning spirtdagagi 10 % li eritmasi ishlatsa, ildiz bo'lakchasi qizil rangga bo'yaladi. Ishlatilishi. qoqi o'simligining dorivor preparatlari achchiq modda sifatida ishtaqa ochish, ovqat qazm qilish jarayonini yaxshilash uchun qamda o't qaydovchi dori sifatida ishlataladi. Farmatsevtikada qoqi o'simligining quyuq eksrakti xab dori tayyorlashda qo'llaniladi.

TILLABOSH YER USTKI QISMI –

Herba Centaurii

O'simlikning nomi. Oddiy tillabosh – *Centaureum erythraea* Rafn.

chiroyli tillabosh

Oilasi. *Centaureum pulchellum* Erbaqodoshlar (gazako'tdoshlar) – Gentianaceae



Oddiy tillabosh bir yoki ikki yillik o't o'simlik. O'q ildizidan avval ildizoldi tupbarglar, so'ngra tik o'suvchi, to'rt qirrali, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan, bo'yi 10–40 sm ga etudigan poya o'sib chiqadi. Ildizoldi to'pbarglari teskari tuxumsimon, to'mtoq uchli, tekis qirrali, poyadagilari – cho'ziq tuxumsimon yoki lantsetsimon, o'tkir uchli, tekis qirrali bo'lib, poyada bandsiz qarama-qarshi joylashgan. qizil rangli, 5 bo'lakli gullari qalqonsimon ro'vakka tuplangan. Mevasi – silindrsimon, ikki xonali ko'sak.

Chiroyli tillaboshni ildizoldi to'pbarglari bo'lmasligi, poyasi asos qismidan boshlab shoxlanishi bilan oddiy tillaboshdan farqlanadi.

Iyun oyidan boshlab kuzgacha gullaydi.

Geografik tarqalishi. Suq'oriladigan o'tloqlarda, daryolar havzasida, botqoqlar atrofida, kanallar va ariq bo'ylarida, butalar orasida, o'rmon chetlarida o'sadi. Ukraina, Belorus, Moldova va Boltiq bo'yi davlatlarida, Rossiyaning Ovrupo qismining o'rta va janubiy tumanlarida, Kavkaz, Boshqirdiston, qisman O'rta Osiyo va Olttoy o'lkasida uchruydi Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot o'simlikning er ustki qismidan (ba'zan ildizoldi to'pbarglari bo'lmaydi) tashkil topgan. Poyasi to'rt qirrali, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan, yashil yoki sariq-yashil rangli, tuksiz, ichi kovak bo'lib, uzunligi 10–30 sm, yo'qonligi 3 mm. Ildizoldi to'pbarglari teskari tuxumsimon, o'tmas uchli, tekis qirrali, tuksiz, yoysimon joylashgan 5 ta asosiy tomiri bor, uzunligi 4 sm. Poyadagi barglari cho'ziq tuxumsimon yoki lantsetsimon, o'tkir uchli, tekis qirrali, 3–5 ta parallel joylashgan asosiy tomirli, uzunligi 3 sm, eni 1 sm bo'lib, poyada bandsiz qarama- -qarshi joylashgan. Gullari qalqonsimon ro'vakka to'plangan. Gulkosachasi 5 bo'lakli, gultojisi uzun, silindrsimon naychali, qizil, 5 bo'lakka

qirqilgan O'taligi 5 ta, onalik tuguni bir xonali, yuqoriga joylashgan. Mahsulot hidsiz bo'lib, uchchiq mazaga ega ishlatalishi. Tillabosh turlarining dorivor preparatlari ishtaha ochish qamda ovqat hazm qilish organlari funktsiyasini oshirish uchun ishlataladi. Dorivor preparatlari. Damlama, nastoyka

Mustaqill tayyorlanish uchun savollar

1. Achchiqlik ko'rsatkichi organoleptik usul – Vazitskiy usuli bilan aniqlash.
2. Qoqio't o'simligining, mahsulotini va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatalishi va dori turlari.
3. Uchburg o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatalishi va dori turlari.
4. Tillabosho'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatalishi va dori turlari.

Nazorat savollari

1. Achchiq glikozidlar tavsifi, tasnifi, fizik-kimyoviy xossalari.
2. Achchiq glikozidlarning achchiqlik ko'rsatkichini aniqlash printsipi.
3. Inulinga mikrokimyoviy reaksiya.
4. Achchiq glikozidlarning o'simliklar dunyosida tarqalishi.
5. Achchiq glikozidlarning tibbiyotda ishlatalishi.
6. Uchburg o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatalishi va dori turlari.
7. Qoqi o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Anatomik tuzilishi. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatalishi va dori turlari.

8. Tillabosh o'simligi, mahsuloti va oilasining nomi. O'simlik va mahsulotning tashqi ko'rinishi. O'sadigan joylari, yig'ish va quritish. Kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda ishlatilishi va dori turlari.

Nazorat testlar

1. Achchiq glikozidlarni Achchiqlik ko'rsatkichini qansi usulda aniqlanadi?

Organoleptik usul

Xromotografik usul

Morfologik usul

Mikroskopik usul

2. Uchbargli meniantes o'simligini lotincha nomlanishi

Menianthes trifoliata

Taraxakum officinale

Digitalis ciliata

Berberis vulgaris

3. Uchbargli meniantes o'simligi qaysi oilasiga mansub?

menyanthaceae

solanaceae

asteraceae

apocynaceae

4. Uchbargli meniantes o'simligi mevasini shakli

sharsimon

uchmali pista

ko'sakcha

tikanli ko'sakcha

5. Uchbargli meniantes o'simligi kimiyovly tarkibi

foliamentin

yog'

kraxmal

efir

6. . Uchbargli meniantes o'simligi maxsulotini tibbiyotda ishlatalishi

Ovqat hazm qilishda

Bronxial astmada

Balgam ko'chiruvchi

Siydik haydovchi

7. Uchbargli meniantes o'simligi maxsulotini aniqlang

barg

meva

iildizpoya

ldiz

8.Uchbargli meniantes o'sünligi maxsulotini dorivor preparati

damlama

qaynatma

kapsula

tabletka

9.Uchbargli meniantes o'simligini hayotiy shakli

Ko'p yillik o't o'simlik

buta

daraxt

bir yillik o't o'simlik

10.Uchbargli meniantes o'simligini maxsuloti qanday quritiladi?

Havo kirib turadigan joyda

Soya joyda

Quritgicg shkafda

Yopiq joyda

11. Uchbargli meniantes o'simligini maxsuloti qaysi o'lkada taylorlanib eksport qilinadi?

Ukrainada

Qozoqistonda

Xitoyda

Afrikada

12.Qoqi ildizi o'simligini lotincha nomlanishi

Radices taraxaci

Radices rhei

Radices althaeae

Radices glycyrrhiza

13.Dorivor qoqi lotincha nomlanishi

Taraxakum officinale

Viburnum opulus

Zea mays

Calendula officinalis

14. .Dorivor qoqi o'simligi qaysi oilasiga mansub?

asteraceae

lamiaceae

brassicaceae

linaceae

15. .Dorivor qoqi o'simligini hayotiy shakli

Ko'p yillik o't o'simlik

bir yillik o't o'simlik

buta

daraxt

16. Dorivor qoqi o'simligini qaysi payt gullaydi?

May oyidan to sovuq tushguncha

May-iyun oylarida

Aprel-may oylarida

Iyul-avgust oylarida

17. Dorivor qoqi o'simligini maxsuloti nima?

ildizi

mevasi

poyasi

bargi

18.. Dorivor qoqi o'simligini gul qaerga to'plangan?

Savatchaga to'plangan

Ro'vakga to'plangan

Shingilga to'plangan

Soyabonga to'plangan

19. .Qoqi ildizi o'simligini maxsulotlari yllning qaysi paytida yg'ib olinadi?

Kech kuzda

baxorda

yoz oyda

qish faslida

20. Qoqi ildizi o'simligini maxsulotini quritish

Bir qavat qilib yoyib quritiladi

G'aram qilib quritiladi

Bog'lam- Bog'lam qilib quritiladi

Maxsus ilgichlarda osiltirib quritiladi

21. Qoqi ildizining o'ziga xos belgilari

Ildiz hidsiz.achchiq mazali

Ildiz o'tkir xidli

Ildiz shirin hidli , shirin mazali

Ildiz o'tkir o'yuvchi xidga ega

22. Qoqi ildizining mikroskopiyasida sut naylari yod ta'sirida qanday ranga bo'yaladi?

Sariq-qu'nq'ir ranga

Ko'k-binafsha ranga

Qora-ko'kimtir ranga

Qizil-binafsha ranga

23. Qoqi ildizining kimiyoviy tarkibi

taraksatin

apigenin

aralin

smola

24. . Qoqi ildizining tarkibida inulin borligini qaysi reaksiya orqali aniqlash mumkin?

Molish reaksiyasi

Fontan-Kandel reaksiyasi

Mikrosublimatsiya reaksiyasi

Sianidin reaksiyasi

25.. Qoqi ildizining tarkibida inulin necha foizni tashkil etadi?

24%

15%

26%

9%

26. Qoqi ildizining tibbiyotdagi ahamiyati

O't haydovhi sifatida

Antiseptic sifatida

antidepressant sifatida

antikaugulyant sifatida

27. Qoqi ildizining ko'ndalang kesimida sut naylari sudan III eritmasi ta'sirida qanday ranga bo'yaladi?

Qizil rang

Ko'k rang

Binafsha rang

Qo'nq'ir rang

28. gul to'plamida qanday vitamin bor?

B2

C

E

P

29. Qoqi ildizining dorivor preparati .

qaynatma

damlama

shamcha

tabletkä

30. lotincha nomlanishi.

dekoktum

infuzium

suppozitorium

tabulettæ

TARKIBIDA ALKALOIDLAR BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLER VA MAHSULOTLAR

Alkaloidlar farmakogoliya soxasida ta'sir kuchi yuqori bo'lgan tabiiy moddalar qatoriga kiradi. Ular markaziy nerv sistemasini qo'zg'atish, tinchlantiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, qon to'xtatuvchi va boshqa xususiyatlarda ishlataladi. O'simlik to'qimalarida tayyor holda bo'ladigan, azot saqllovchi, asosli (ishqorli) xossaga va kuchli fiziologik ta'sirga ega bo'lgan zaharli murakkab organik birikmalar alkaloidlar deb ataladi. Alkaloid arabcha - alqali - ishqor va yunoncha eydos - o'xshash (simon) so'zlaridan iborat bo'lib, ishqorsimon ma'noni bildiradi. Bu alkaloidlarning asosli xususiyatlari ekanligini ko'rsatadi. O'simliklar tarkibida juda oz miqdordan tortib, 10 - 15 ba'zan 25% gacha alkaloidlar bo'lishi mumkin. O'simliklarda bir - biriga yaqin ko'pincha alkaloidlar bo'ladi. Alkaloidlar soni ba'zan bir o'simlikda 50 tadan ortadi. (*Vinca erecta*, 60 tadan ortiq). Ko'pchilik alkaloidlar rangsiz, optik faol, hidsiz, achchiq mazali, uchmaydigan, kristal yoki amorf modda. Shu bilan birga rangli (berberin), suyuq, hidli va uchuvchan (anabazin, nikotin) alkaloidlar ham bor.

Alkaloidlar o'simliklar tarkibida 3 xil ko'rinishda bo'ladi.

1. Sof - asos holida.
2. Kislotalar bilan birikkan - tuzlar holida.
3. Azot atomi bo'yicha oksidlangan - N-oksid formasida.

BELADONNA O'SIMLIGINING BARGI, YER USTKI QISMI VA ILDIZI -

Folia, herba et radices Belladonnae

O'simlikning nomi: Dorivor belladonna - *Atropa belladonna L.*

Oilasi: Ituzumdoshlar – Solanaceae

Belladonna ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, bo'yi 2 m ga etadi. Ildizpoyasi ko'p boshli, ildizi esa yo'g'on va xershox bo'ladi. Poyasi tik o'suvchi bitta, ba'zan bir nechta, yo'g'on, yashil rangli, pastki qismi shoxlanmagan, yuqori qismida esa



3 ta shox hosil bo'lib, ular o'z navbatida ayrisimon joylashgan to'p shoxchalar chiqaradi. Bargi oddiy, to'q yashil, poyada barglarning littasi doim yirik bo'ladi. Yirik barglari ellipssimon, maydalari esa tuxuinsimon. Gullari barg qo'ltig'ida osilgan holda yakka yoki just bo'lib joylashgan. Gul kosachasi besh tishli, silindrsimon - qo'ng'iroqsimon, meva bilan birga qoladi, gultojisi besh bo'lakli, birlasligan, qo'ng'iroqsimon, uchki qismi binatslia rangga, asos qismi esa sariq - qo'ng'ir rangga bo'yulgan. O'taligi 5 ta, onalik tuguni yuqoriga joylashgan. Mevasi - binafsha - qora rangli, yaltiroq, ikki xonali, bir oz yassi, ko'p urug'li, nordon shirin mazali xo'l meva. Urug'i buyraksimon, qo'ng'ir rangli bo'lib, ustki tomonida chuqurchalari borBargni ishqor eritmasi bilan yoritib, so'ngra tashqi tuzilishi mikroskop ostida ko'rildi. Barg epidermisining yon devorlari egri-bugri bo'lib, undagi kutikula qatlamlari bilinib turadi. Barglarda tomirlari bo'ylab uch-to'rt hujayrali oddiy, bir hujayrali boshchali va uzun oyoqchali hamda boshchasi ko'p hujayrali va kalta (bir hujayrali) oyoqchali tuklar ko'rindi. Bargda kaltsiy oksalat tuzining qumsimon kristallari joylashgan xalta hujayralar bo'lishi uning eng xarakterli belgilaridan biridir. Bu xalta hujayralar bargning mezofill qismida tarqoq holda joylashgan bo'lib, mikroskopning kichik ob'ektivida kichkina qopdog' shaklida, katta ob'ektivida esa aniq ko'rindi. Ba'zan xalta hujayradagi kristallar bargdu kukun (poroshok) holida sochilib ketgan bo'ladi. Ishlatilishi. Belladonna preparatlari oshqozon - ichak kasalliklarida og'riq qoldiruvchi sifatida


ishlatiladi. Bargi antiasmatik preparatlar (astmatol, astmatin) tarkibiga kirib, bronxial astma kasalligida ishlatiladi

BANGIDEVONA O'SIMLIGINING BARGI (лист дурмана) –

Folia Stramonii.

O'simlikning nomi: Bangidevona (дурман обыкновенный) - *Datura stramonium*

Oilasi: Ituzumdoshlar (наследковые) - Solanaceae.



Mahsulotning mikroskopik tuzilishi. Ishqor eritmasi bilan yoritilgan bargning tashqi tuzilishi mikroskop ostida ko'rildi. Barg epidermisining devori egri – bugri bo'ladi. Bargning har ikkala tomonida ust'itsalar bor. Tuklar siyrak bo'lib, barg tomiri bo'ylab joylashgan. Tuklar ikki xil tuzilgan: oddiy – juda yirik (2 - 5 hujayrali), sugalli va oyoqchasi bir hujayrali, boshchasi esa ko'ph hujayrali mayda tuklar. Bargda kristallar juda ko'p bo'lib, ular burchaklari aniq bo'lmasligi shakliga ega. Ba'zan bargda yakka kristallar birlashgan holda uchrashi mumkin.


Kimyoviy tarkibi. Alkaloidlar 0,4% gacha bo'lib, asosiy giostsiamin va skopolamin tashkil etadi. Ishlatilishi. Bangidevona bargi — astmatoll va — astmatinti larni tarkibiga kirib, bronxialastma kasalligida qo'llaniladi.

MINGDEVONA O'SIMLIGINING BARGI-

Folia Hyoscyamus.

O'simlikning nomi: Mingdevona - *Hyoscyamus niger* L.

Oilasi: Ituzumdoshlar - Solanaceae



Ikki yillik, sevtuk, badbo'y o't o'simlik, o'simlik birinchi yil faqat ildiz oldi to'pbarglar hosil qiladi. Ildizoldi barglari bandli, cho'ziq - tuxumsimon, chuqur patsimon bo'lakli bo'ladi. Ikkinci yili poya o'sib chiqadi. Poyasi shoxlangan, bo'yi 50 - 150 sm ga etadi. Poyadagi barglari ildizoldi barglariga nisbatan yumaloqroq va maydarroq, umumiy ko'rinishi tuxumsimon, poyaning pastki qismdagilari 5 - 7 bo'lakli, o'rta qismdagilari 3 bo'lakli, yuqori qismdagilari esa 1 - 2 ta bo'lakli qirqilgan bo'lib, yirikbezli tuklar bilan qoplangan. Mahsulotning makroskopik tuzilishi Ishqor eritmasi bilan yoritilgan bargning tashqi ko'rinishi mikroskop ostida ko'rildi. Mahsulotda har xil yoshdagi burglar bo'ladi. Shu sababli ulardagagi tuklar va kristallarmiq miqdori turlicha. Epidermis hujayralari devori egri - bugri, ust'itsalar bargning har ikki tomoniga joylashgan. Tuklar yupqa devorli, uzun, ko'p hujayrali, oddiy yoki bezli, boshchasi bo'lib, yosh barglarda juda ko'p. Barg chetida mingdevona o'simligiga xos ko'ph hujayrali, cho'zinchoq yoki yumaloq boshli va uzun, ko'p hujayrali oyoqli tuklarni ko'rish mumkin. Barg o'sgan sari tuklar qurib, yo'qola boradi. Kristallar iprizma va kub shaklida bo'lib, yakka holda uchraydi. Juda yirik va qari barglardan esa 2 - 3 tasi

birlashgan kristallami, druzlarni (ba'zan tomirida turli shakldagi kristall qumlarni) uchratish mumkin. Kimyoviy tarkibi. Alkaloidlar yig'indisi 0,1% gacha bo'lib, asosiy giostsiamin va skopolaminindir Ishlatilishi. Bargi, —astmatoll va —astmatini tarkibiga kiradi. Mingdevonamoyi – OlcumHyoscyami og'riq qoldiruvch isifatida surtiladi

EFEDRA (QIZILCHA) O'SIMLIGINING YER USTKI QISMI -

(трава ўфедры) - *Herba Erhedrae*

O'simlikning nomi. Tog' efedrasi - (ўфедра хвоицсая), горная, *Erheda equisetina*.

Oilasi. Kizilchadoshlar - эфедровых - *Erhedoraceae*



Tog' efedrasi *Erheda equisetina* va cho'l efedrasi *Erheda intermedia* dan sanoatda efedrin alkaloidi olinadi. Tog' efedrasi bo'yli 1,5%, ba'zan 2,5 ga etadigan ikki o'yli, sershox buta. Poyasi juda yo'g'on bo'lib, ikki yillik kulrang po'stloq bilan qoplangan. Shox va shoxchalari to'p - to'p, yuqoridagi shoxchalari qarama - qarshi joylashgan. Barglari tangachasimon inayda bo'lib, shoxlarning bo'g'imlarida qarama - qarshi o'mashgan. Gullari bir jnnslik otalik xamda onalik gullari alohida o'simliklarda joylashgan. Otalik gullari boshoqqa (2 - 4 ta guldan iborat) to'plangan bo'lib, har qaysi otalik bir - biriga qo'shilib ketgan ikkita bargcha bilan o'ralgan. Onalik gullari ichki va tashqi (ochiq) qoplag'ich bilan o'ralgan urug' kurtagidan tashkil topgan. Urug' kurtakni mayda gulyonbarglari

o'rabi turadi. Urug' kurtakdan qizil rangli, bitta urug'li g'uddameva paydo bo'ladi. Urug' kurtakning tashqi qoplag'ichi - g'udda mevaning sersuv qismini ichki qoplag'ichi esa qattiq po'stini hosil qiladi. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot yashil rangli shox va shoxchalardan iborat. Shoxchalar g'ovak o'zakli, yog'ochlangan, silindirsimon bug'im oraliqlardan iboratbo'lib. uzunligi 2 sm, diametri 1,5 mil. Bo'g'inda qini bilan birikkan, reduksiyalangan, uchburchakli tangasimon burglar o'marnashgan. Mahsulot hidsiz. Achchiq - o'tkir inazasi bor.

YASSIBARGLI SENETSIO O'SIMLIGINING ILDIZPOYASI BILAN ILDIZI VA YER USTKI QISMI - Rhizomata cum radices et herba Senecionis platyphylloides.

O'simlikning nomi: Yassibargli senetsio - *Saenecio platyphylloides* Som et Zev.

Oilasi: Astradoshlar - Asteraceae (Compositae).

Yassi bargli senetsio ko'p yillik, bo'yisi 150 - 170 sm ga etadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi yo'g'on, er ostida gorizontal joylashgan, ko'p ildizli bo'lib, undan tik o'suvchi, pastki qismi tuklar bilan qoplangan poyalar hamda uzun bandli, shakli buyraksimon - yuraksimon bir nechta ildizoldi barglar o'sib chiqadi.



Poyadagi barglari uchburchaksimon, tishsimon qirrali, qisqa, qanotli bandi yordamida ketma - ket joylashgan. Bu o'simlik barg bandining asos qismidagi poyani o'rab oluvchi qinchasi hamda barg plastinkasining pastki qismidagi bo'lakchasi bilan senetsio avlodining boshqa xillaridan farq qiladi. Gullari ko'p (10 - 15 ta), savatchaga to'plangan, savatchalar esa poyaning yuqori qismida qalqonsimon gul to'plamini tashkil etadi. Savatchani o'rama bargi bir qator joylashgan, gullari naychasimon, gultojisi 4 tishli, sariq rangli, otaliga 4 ta, onalik tuguni bir xonali, pastga joylashgan. Mevasi - pista.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot ko'ng'ir rangli ildizpoyadan iborat. Ildizpoya engil bo'lib, ustki tomonida barg o'sib chiqqan o'rirlari (chuqurchalari) va kalta qilib qirqilgan ildizlari bo'ladi. Ildizpoyaning ichi g'ovak bo'lib, mahsulot hidsiz, achchiqroq mazali bo'ladi.

Alkaloidlar ildizpoyasida 5% gacha, er ustki qisimida (o't) esa 3% gacha bo'ladi.

Ishlatilishi. Platifillin qorin va ichaklarning silliq muskullari tortishib (qisilib) qolganida, me'da yurasi, qabziyatda; ko'krak qisishida, buyrak va jigar sanchilganda, xoletsistitda, bosh miya tomirlari qisilganda, bronxial astma kasalliklarida ishlatiladi.

GLAUTSIUM O'SIMLIGINING YER USTKI QISMI

(травя глауциум желтого) - **Herba Glaucii Flavi.**

O'simlikning nomi: Sariq glautsium - глауциум желтый - *Glaucium flavum*.

Oilasi: Ko'knoridoshlar - (маковые) - papaveraceae - oilasiga kiradi.

Ikki yillik, bo'yi 20 - 30 sm gacha bo'lgan, o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, serbarg, odatda yuqori qisimi shoxlangan bo'lsada. Ildizoldi to'p barglari yirik, juda ko'p kalta ilgaksimon tuklar bilan qoplangan, lirasimon - patsimon ajralgan, barg bo'lakchalari uchburchaksiimon yoki tuxumsiimon, to'g'ri bo'limgan o'tkir tishsimon qirrali. Poyadagi barglari tuksiz, patsimon ajralgan. Barglar poyadda bandsiz, ketma - ket joylashgan. Gullari sariq, rangli bo'lib, yakka - yakka



o'rnashgan. Kosachabargi 2 ta, gullaganida tushib ketadi. Onalik bir xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi - 25 sm uzunlikdagi pinshgan vaqtida uchki tomonidan asos qismiga qarab ochiladigan qozoqsimon - ko'sakcha Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Mahsulot o'simligining er ustki qismi: poyasi, barglari, gullari va xom mevalardan tashkil topgan bo'ladi. Ildizoldi barglari katta. tuklar bilan qoplangan, paisimon ajralgan, barg bo'lakchalari uchburchak shaklda, poyadagi barglari ketma - ket joylashgan. Poyaning yuqoridagi barglari tuksiz, poyani bandsiz o'rabi olgan. Gullari bitta - bitta bo'lib poyaning uchida va barg qo'lting'iga joylashgan. tojbaragi 4 ta bo'lib, sariq rangli. Mevasi - ko'sakcha Ishlatilishi. O'simlikning preparati yo'tal qoldirishda ishlatiladi. Glautsin gidroxlorid tabletkasi chiqariladi, bronxoletin tarkibiga ham kiradi..

QONCHO'P O'SIMLIGINING YER USTKI QISMI -

(трава чистотела) - Herba Chelidonii.

O'simlikning nomi. Qoncho'p - (чистотел большой) - *Chelidonium majus*.

Oilasi: Ko'knoridoshlar - (маковые) - *Papaveraceae*.



Ko'p yillik, bo'yi 30 - 100 sm ga etadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi ko'p boshli va kalta. Poyasi tik o'suvchi, yuqori qisini shoxlangan. Bargi oddiy, ildizoldi va poyaning pastki qismdagilari bandibilan, poyadagilari esa bandsiz, poyada ketma - ket o'mashgan. Gullari poya va shoxlari uchida 4 - 8 tagacha bo'lib, oddiy soyabonni tashkil etada. Mevasi - ko'p urug'li, pishganda ikki xonali ko'sakcha. Urug'i tuxumsimon, qora rangli va eshkaksimon dumchali bo'ladi. O'simlikning hamima qisimidu to'q sariq sut - shira bor.

Mahsulotning tashki ko'rinishi. Tayyor mahsulot poya, barg, gul, ba'zan meva aralashmalaridan iborat bo'ladi. Poyasi bir oz qirrali, uzun va yumshoq tuklar bilan qoplangan Bargi yupqa, mo'rt, chuqur 3 - 5 bo'laka patsimon qirqilgan bo'lib, eng yuqorigi bo'laklari pastdagilariga nisbatan yirikroq, bargning ustki tomoni yashil, pastki tomoni esa zangori, asosiy tomonlari bo'ylab yumshoq tuklar o'mashgan. Guli to'g'ri, och sariq, kosachabargi ikkita, gullaganida tushib ketadi. Tojbargi 4 ga, otaligi ko'p sonli, onalik tuguni bir xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi ko'p urug'li, ikki xonali, cho'ziq (uzunligi 5 sm ga) ko'sakcha. Mahsulotning mikroskopik tuzilishi Ishqor eritmasi bilan yoritilgan barg mikroskop ostida ko'rildi. Bargning har ikkala tomonidagi epidermis hujayrali (pastki tomonidagi epidermis hujayralari yuqori tomonidagi epidermis hujayralariga nisbatan maydarok va ko'proq) egri - bugri devorlidir, ustitsalar bargining faqat pastki tomonidagi epidermisida bo'lib, 4 - 7 tagacha (ayniqsa,

pastki tomonidagi) epidermisida tomirlar bo'ylab 7 - 20 hujayrali oddiy tuklar siyrak holda joylashgan. Tuklarning hujayra devori juda yupqa bo'lganligi uchun ayrim hujayrali buralgan, yopishgan yoki ezilgan. XI DF buyicha: namligi 14%, kuli 15%, organik aralashmalar 1% dan oshmasligi kerak.

Kimyoviy tarkibi. Alkaloidlar 2% gacha bo'ladi. Alkaloidlari berberin, protopin xelidonin unumlariga bo'linadi.

VIKTOR UNGERNIYASINING BARGI VA PIYOZI

(лист и луковица унгерния Виктора) - *Folium et bulbus Ungernia Victoris*
O'simlikning nomi. Viktor ungerniyasi (унгерния Виктора) - (Омонора) -
Ungernia Victoris vied.

Oilasi. Chuchmomadoshlar - (амарилловые) - Amaryllidaceae

Ko'p yillik o't o'simlik. Piyozsi luxumsimon, diametri 4 - 7 sm bo'lib, yuqori qismi qora qo'ng'ir rangli yupqa qobiqlar bilan o'ralgan. Ildizoldi barglari 7 - 10 dona, ingichka, tekis qirrali, 2 - 3 sm kenglikda va 20 - 25 sm uzunlikda bo'lib, ikki qator joylashgan. Erdan qor ketmasdanoq o'simlikning ildizoldi barglari ko'karadi. Yoz oylarda barglari qurib qoladi. Bir - ikki oydan so'ng bargsiz poyasi (gul o'ti) o'sib chiqadi. Poyaning uzunligi 5 - 10 sm, uchida oddiy soyabonga to'plangan (4 - 7 ta) va bir tomoniga egilgan gullar joylashgan. Gulqo'rg'oni oddiy, voronkasimon, 6 ta ingichka lantsetsimon, sariq yoki sariq - pushti, ichki tomoni



qizil rangli tojbargdan tashkil topgan. Otaligi 6 ta, onalik tuguni 3 xonali, yuqorigajoylashgan. Mevasi pishganda ochiladigan uch chanoqli ko'sakcha. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Ungerniya o'simligining bargi sersuv, yo'g'on silliq, chiziqsimon uchi 10'mloq bo'lib, uzunligi 20 - 40 sm, eni 1 - 4 sm. Mahsulotning piyoz qismi esa diametri 12 sm, luxumsimon bo'lib to'q jigarrang, qora rangdagi yupqa qobiq po'stlar bilan qoplangan. Piyozning pastki uchida sariq qizg'ish sersuv ingichka uzunligi 10 - 25 sm kladigan ildizchalari bor.

X DF buyicha: namligi 12% dan, umumiy kuli 7% dan, organik aralashmalar 1% dan, mineral aralashmalar 0,5% dan oshmasligi va galantamin esa 0,08% dan kam bo'limasligi kerak.

Kimyoviy tarkibi. Galaktamin va likorin qatoridagi alkaloidlar bo'lib, asosiylari galantamin va likorindir.

Ishlatilishi va dorivor preparatlari. Poliomielit kasalligidan keyingi paralich kasalligida hamda ichak va siylik qoplari qattik og'riganda qo'llaniladi. Galantamin bromgidmat tabletka holida chiqariladi, likorin gidroxlorid ham.

TERMOPSIS O'SIMLIGINING YER USTKI QISMI VA URUG'I

(трава и семя термопсиса) - *Herba et semina Thermopsidis*

O'simlikning nomi. Lantsetsimon termopsis (Nishtarsimon afsonak) (Термопсис ланцетный) - *Thermopsis lanceolata* R. Br.

Oilasi. Dukkakdoshlar (бобовые) - Fabaceae.



Lantsetsimon termopsis ko'p yillik, bo'yi 10 - 40 sm ga etadigaan o't o'simlik. Ildizpoyasi uzun, kam ildizli bo'lib, undan tik o'suvchi, shoxlanmagan yoki kam shoxlangan bir nechta poya o'sib chikadi. Bargi panjasimon uch bo'lakli bo'lib, poyada qisqa bandi bilan ketma - ket o'rnashgan. Gullari sariq, shingilga to'plangan bo'lib, kapalakguldoshlarga xos tuzilgan. Mevasi cho'ziq, pishganda ochiladigan dukkak. Gullari ketma – ket joylashgan, termopsis lantsetsimon termopsisdan buyining balandligi, sershoxligi, barglarining keng ellipssimon bo'lishi bilan farq qilada. Ushbu termopsisning urug'l silliq, yaltiroq, och - ko'ng'ir bo'lib, tuxumsimon yoki buyraksimon shaklda va eni 3 - 4 mm, uzunligi 5 - 6 mmiga teng bo'ladi

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayeor mahsulot o'simligining er ustki qismidan (poyasi, bargivagullardan) va alohida urug'laridan iborat. Poya 30 smgacha uzunlikda, shoxlanmagan. Ba'zan shoxlangan, jo'yakli bo'lib, siyrak, yumshoq, oqtuklar bilan qoplangan. Bargi qisqa bandli, uchta plastinkali, ikkita qo'shimcha bargli, o'tkiruchli, yuqori tomoni tuksiz, pastki itomoni esa yopishgan tukla bilan qoplangan. Barg bo'laklari cho'ziroq - lantsetsimon, ingichka uzunligi 30 - 60 mm, eni 5 - 12 mm (nambilanganda) qo'shimcha barglari lantsetsimon, barg bandidan uzun va bargidan ikki marta katta. Gullari yirik, sariq rangli, gulkosachasi yopishqoq tukli, qo'ng'iroqsimon, notekis besh tishli, tojbargi qiyshiq, beshta bo'lib, yuqoridagisi elkanni, ikkita yon tomonidagisi eshkakni, pastki ikkitasi birlashib, qayiqchani eslatadi. Otaligi 10 ta hammasi birlashmagan (boshqa dukkaklardan farqi), onalik tuguni bir xonali, yuqoriga joylashgan. Lantsetsimon termopsisning urug'l silliq, yaltiroq, qo'ng'ir rangli, buyraksimon, yumaloq kindikli bo'lib, uzunligi 3,5 - 4 mmga teng.

Mahsulotning mikroskopik tuzilishi. 5% li natriy ishqori eritmasi bilan yoritilgan bargning tashqi tuzilishi mikroskop ostida ko'rgandi. Bargning yuqori epidermis hujayralari ko'pburchakli, yondevori esa biroz egri - bugri, pastki epidermis hujayralari katta va cho'ziq hamda egri-bugri, devorli bo'ladi. Tuklarning asos qismi joylashgan epidermis hujayralari to'g'ri devorli bo'lib, tuklar atrofida rozetkalarni tashkil etadi. Tuklar tushib ketganda, uning birlashgan

o'rni – yumaloq bo'lib ko'rinish qoladi. Bargdag'i tuklar juda ko'p, uch hujayrali, pastki qismi 2 ta asos (bazal) hujayradan tashkil topgan. Asosiy hujayralari kalta, birinchi, ya'ni pastki hujayra epidermisning ichiga kirib ketgan. Un ifaqat bargning ko'ndalang kesganda ko'rish mumkin. Ikkinchi asosiy hujayra sharsimon bo'lib, epidermis ustiga joylashgan. Tuklarning uchinchi – terminal hujayrasi juda uzun, u asos hujayrada to'g'riburchak bo'lib o'mashgan. Shuning uchun bu tuklar ustki tomondan qaraganda bir hujayrali va yopishib ketgandao'xshab ko'rindi. Tuklar kalta va uzun bo'ladi, kalta tuklarning oxirgi hujayrasi tekis, devori yupqa va hujayra bo'shlig'I keng, uzun tuklarning oxirgi hujayrasi esni qalin devorli, hujayra bo'shlig'I tor, ustki tomoni egri - bugridir.

O'simlikning poya, barg meva va yupqa qismlarni kundalangiga kesib yoki tashqi ko'rinishdagi preparati xloralgidrat eritmasi yordamida mikroskop ostida ko'rilminda ular hujayrasidagi germopsilantsin glikozidinin kristallarini ko'rish mumkin. Bu kristallar ishqor eritmasida erib ketadi. (Ishqor bilan yoritilgan preparatlarda ko'rinnmaydi).

XDFbuyicha: namligi 13% dan, umumiy kuli 8% dan, qoraygan barglari va gullari 6% dan, pishmagan mevalari 1% dan, organic aralashmalar 2% dan, mineral aralashmalar 1% dan ko'p bo'lmasligi, alkaloidlar esa 1% dan kam bo'lnasligi kerak.

Kimyoviy tarkibi. O'simlikning er ustki tarkibida 0,5 - 3,6 % alkaloid bo'ladi. Thermopsis, gomotermopsin, metiltsitizin, paxikarpin, sitizin, anagirinlar o'simlikning asosiy alkaloidlaridan hisoblanadi. O'simlikning urug'ida 0,6% gacha sitizin alkaloidi bor. Mahsulot tarkibida alkaloidlardan tashqar isaponinlar, oshlovchi va shilliq moddalar, efir moyi, 28 mg% askorbin kislota hamda termopsilantsin glikozidi bor.

Ishlatilishi. Thermopsis o'simligidan tayyorlangan damlama (nastoy) 1:400 balg'am ko'chiruvchi, sitizin alkaloidi esa nafas markazini qo'zg'atuvchi va qonbosimini ko'taruvch dori sifatida qo'llaniladi.

Dorivorp preparatlari. Damlama – Infusum Thermopsisidis quruq ekstrakt – Extractum herbae Thermopsisidis ciccum.

O'sinlikning yerustki qismi poroshok va tabletka holida ham ishlataladi. Sitizin alkaloidning ampuladagi 0,15 % li eritmasi - sititon Cytitonum nomi bilan chiqariladi.

Toshkeng Farmatsevtika instituti, farmakognoziya kafedrasida S.V.Teslov tomonidan O'zbekistonda o'sadigan termopsisning 3 xil turi (*Thermopsis althermiflora* Rgl et Schmalh, *Thermopsis dolichocarpa* V.Nik, *Thermopsis alpina* (pall) Z.db) o'rjaniladi va ular tarkibida yuqorida aytilgan alkaloidlar borligi aniqlandi. S.V.Teslov 6u turlari Tibbiyotda lantsatsimon termopsis bilan bir qatorda balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatalishni tavsiya etdi.

NUFAR ILDIZPOYASI

(корневые кубишки желтой) - *Rhizomata Nupharis lutea*

O'simlikning nomi. Sariq nufar (кубишка желтая) - *Nuphar luteum*

Oilasi. Nilfiyadoshlar - (кувшинковые) - *Nuphaeaceae*

Ko'p yillik, suvda o'sadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi yo'g'on, ko'p ildizli,



uzunligi 1 - 2 m ga etadi, o'simlikning suv ostki va suv ustki suzuvchi barglari bir - biridan keskin farq qiladi.

Suv ostki bargi - yarim tiniq, yupqa, bir oz burishgan, suv ustki bargi esa qalin, uzun bandli, tekis qirrali, ellipssimon shaklli, chuqur yuraksimon asosli.

Yirik, sariq, sharsimon, hidli gullari suv betidan 5 - 6 sm ko'tarilib turada. Gulkosachasi 5 ta, qo'ng'iroqsimon, yirik, sariq rangli (tojsimon), gulbargi ko'p sonli, ingichka, sariq rangli, otaligi ham ko'p sonli, onaligida ustuncha bo'lmaydi. Unda 10 - 20 tagacha nursimon shaklli. rezavorsimon meva. Urug'i havo saqlaydigan xaltacha bilan o'ralgan. Shuning uchun urug'i suv tagiga cho'kib ketmaydi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot silindrsimon ildizpoya bo'lakchalaridan iborat. Ildizpoyaning tashqi tomoni surg'ish - yashil, ichi esa og bo'lib, unda och jigarang gul o'qi va barg bandi qoldiqlari bor. Mahsulot kuchsiz xidli, sho'rtangroq va achchiqroq imazaga ega.

Kimyoviy tarkibi. Ildizpoya tarkibida alkaloidlar, oz miqdorda oshlovchi moddalar, 44% gacha kraxmal saqlayda. Asosiy alkaloidi nuflein, u nufarin dimeridir.

Ishlatilishi. Nufar o'simligining alkaloidlari protostostatin va protistotsid ta'siriga ega bo'lib, ulardan olingan dorilar trixomonad kasalligini davolashda va xomilador bo'lishdan saklaydigan vosita sifatida ishlatiladi.

Dorivor preparatlari. Lyutcnurin - shamcha, oritma, suyuq surtma yoki sharcha va ko'pik hosil kiluvchi tabletka holida ishlatiladi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Alkaloidlarni tavsifi va tasnifi.
2. Alkaloidlarni fizik – kimyoviy xossalari.
3. Alkaloidlar saqlovchi mahsulotlarni sifat taxlili.
4. Tropan guruhi alkaloidlarini saqlovchi mahsulotlarini Fromme usuli bo'yicha miqdoriy taxlili.
5. Alkaloidlar saqlovchi mahsulotlarni tibbiyotda ishlatilishi.
6. Alkaloidlarni o'rganishda Vatanimiz olimlarining tutgan o'mi.

Mustaqil bajarish uchun vazfalar

Alkaloidlar saqlagan mahsulotlarning kimyoviy taxlili:

- a) umumiy cho'ktiruvchi va xususiy rang xosil qiluvchi (strixnин va brutsinga) reaktsiyalar;
- b) alkaloidlarni xromatografik usulda ochish;
- v) alkaloidlar miqdorini X - DF usulida aniqlash.

Nazorat savollari

1. Alkaloidlar nima va ularni tasnifi (klassifikatsiyasi).
2. Alkaloidlarning fizik va kimyoviy xossalari.
3. Alkaloidlarga xos sifat reaktsiyalar.
4. Mahsulotdagi tropan guruhibi kiruvchi alkaloidlarni miqdorini XI DF bo'yicha aniqlash.
5. Mahsulot tarkibidagi alkaloidlarni qaysi sifat reaktsiyalari yordamida aniqlash mumkin?
6. Alkaloidlar to'grisida umumiy tushuncha; ularning o'simliklar dunyosida tarqalishi va tibbiyotda ishlatalishi.
7. Alkaloidlarning xromatografik analizi.
8. Alkaloidlarning o'simliklar hayotidagi ahamiyati.

Nazorat testlar

1. Datura Stramonium qaysi o'simlikning lotincha nomlanishi?

Bangidevona

Passiflora

Qora mingdevona

Ituzum

2. Quyidagilardan qaysi biri dorivor o'simlik hisoblanadi?

datura stramonium

datura vulgaris

datura officinalis

datura niger

3. Datura stramonium o'simligining mahsulotini ko'rsating.

folia

semena

cormus

herba

4. Bo'lakli ituzum o'simligining oilasi?

solanaceae

asteraceae

papaveraceae

asparagaceae

5. Atropin alkoloidining ishlatalishi...

ko'z qorachig'ini kengaytiruvchi va silliq muskullar spazmida.

nevralgiya va radikulitda sirdan surtish uchun.

yurak qon-tomir yetishmovchiligidagi.

shikastlanishlarda og'riq qoldirish uchun va kuchli og'riqlarni qoldirish uchun.

6. Afsonak termopsis yer ustki qismi mahsuloti qachon tayyorlanadi?

gullashi boshlaganidan keyin.

gullagan paytidan mevasi pishgunga qadar.

urug'i to'liq yetishganidan so'ng.

vegetatsiya davrida.

7. Efedra o'simligining geografik tarqalishi.

O'rta Osiyoda

RF ning Yevropa qismida

uzoq sharqda

Krasnodar o'lkalarida

8. Zirk ildizi mahsulotini tayyorlashda quyidagi jarayonlarning qaysi biri bajarilmaydi?

suv bilan yuvish .

organik aralashmalardan tozalash.

o'simlikning boshqa qismlaridan ajratib olish.

tuproqdan tozalash.

9. Bangidevona bargini quritish jarayoni qanday haroratda olib boriladi?

40-45 °C

50-60 °C

70-80 °C

100-120°C

10. Daturn stramonium mahsuloti qaysi ro'yxat bo'yicha saqlanadi?

umumiyl ro'yxat bo'yicha.

"A" ro'yxat bo'yicha.

"B" ro'yxat bo'yicha.

A va B ro'yxat bo'yicha.

11. Belladonna bargi tarkibidagi alkaloidlar miqdori qaysi usul bilan olib boriladi?

gayta titrlash.

suvsiz muhitda to'g'ridan-to'g'ri titrlash uchun.

gravimetrik usul.

xromatospektrofotometrik usul.

12. Alkaloid saqlovchi mahsulot miqdoriy tahlilda ishqor qanday vazifani bajaradi?

alkaloid tuzlarini asos holiga o'tkazish uchun.

peptid guruhi va murakkab efir gidrolizi uchun.

alkaloid fenometani hosil qilish uchun.

alkaloidlarni yot moddalardan tozalash uchun.

13. "Devinkan" preparati qaysi o'simlikdan olinadi?

kichik bo'rigul yer ustki qismidan.

ilonsimon Rauvolfiya ildizidan.

belladonna bargidan.

bangidevona bargidan.

14. Efedra tarkibida qanday alkaloid saqlaydi?

- efedrin gidroxlorid
- sititon
- atropin sulfat
- paxikarpin gidroyodid

15. Oddiy isiriq o'simligining lotincha nomi?

- peganum harmala
- peganum officinalis
- passiflora incarnata
- passiflora roseus

15. Termopsis o'tidan qanday dori turi tayyorlanadi?

- 1:400 damlama
- nastoyka
- paxikarpin gidroyodid
- sitzin

16 Lansetsimon assonak yer ustki qismi mahsuloti qanday vosita sifatida ishlatiladi?

- yo'talga qarshi
- siylik haydovchi
- yurak kasalliklarini davolovchi
- o't haydovchi

17. Bo'lakli ituzum yer ustki qismi mahsuloti qanday preparat olish uchun ishlatiladi?

- kortikosteroid
- parazitga qarshi
- mikroblarga qarshi
- o't haydovchi

18. Mingdevona barglarini MTH bo'yicha saqlash muddati qancha?

- 3 yil
- 8 yil

5 yil

1 yil

19. Astmatol- bu...

chekish uchun yig'ma

nastoyka

tableika

damlama

21. Lansetsimon afsonak yer ustki qismi va qaysi organi dorivor mahsulot sifatida tayyorlanadi?

urug'i

gullari

po'stlog'i

barglari

22. Quyidagilardan qaysi biri dorivor o'simlik hisoblanadi?

hyoscyamus niger

hyoscyamus pallidus

hyoscyamus mutica

hyoscyamus bogemia

23. Qora mingdevona o'simligining mahsulotini ko'rsating

moyi

urug'i

mevasi

ildizi

24. Vinca Minor qaysi oilaga mansub?

apocynaceae

asteraceae

solanaceae

lamiaceae

25. Qoncho'p mahsuloti qanday o'simliklardan tayyorlanadi?

yovvoyi holda o'suvchi.

madaniy holda o'suvchi.

yovvoyi hamda madaniy holda o'suvchi.

teplitsa sharoitida o'stiriluvchi.

26. IAnsetsimon afsonakni tabiatda tarqalishi...

Qozog'iston va Sibirning janubiy qismida.

Rossiyaning Yevropa qismida.

uzoq sharqda .

kavkaz ortida.

27. Oddiy zirk o'simligi qaysi oilaga mansub?

berberidaceae

asteraceae

solanaceae

papaveraceae

28. “Bahorda va kuzda yig'ilgan, tuproqdan yaxshilab tozalangan, yuvilgan, va quritilgan ildiz va ildizpoya”. Bu ta'rif qaysi o'simlik mahsulotiga tegishli?

belladonna ildizi

zirk

mingdevona

ituzum

29. Bangidevona bargini quritish haroratini ko'rsating.

40-50 °C

50-60 °C

75-80 °C

100-120 °C

30. Dorivor o'simlik mahsulotini tayyorlash jarayoni- bu...

mahsulotni yig'ish, quritish va mahsulotni standart holatga keltirish

mahsulotni yig'ish va quritish

mahsulotni yig'ish va birlamchi tayyorlash

mahsulotni yig'ish, birlamchi tayyorlash quritish,

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Xolmatov X.X, Axmedov U.A Farmakognoziya -Toshkent: Fan, 2007.
2. Пұлатова Т.П, Холматов Х.Х. Фармакогнозия амалиеті - Тошкент: Абу Али Ибн Сино номицдаги тиббиёт наурысті, 2002.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. Toshkent, —O'zbekiston NMIU, 2017.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. —O'zbekiston NMIU, 2017.
3. Фармакогнозия фанни бүйінчи маңрузалар маттии. -2018.
4. Самылина И.А., Яковлев Г.П. Фармакогнозия: учебник / И.А.Самылина, Г.П.Яковлев. – М.: 2013.
5. Самылина И.А., Аносова О.Г. Фармакогнозия. Атлас: учебное пособие в 2-х томах.-М.:ГЭОТАР-Медиа, 2007.
6. Фармакогнозия. Лекарственное сырье растительного и животного происхождения: учебное пособие / под ред. Г.П.Яковлева. – З-е изд., испр. и доп. -СПб.: СпецЛит, 2013.
7. Самылина И.А., Ермакова В.А., Бобкова И.В., Аносова О.Г. Фармакогнозия. Атлас: учебное пособие в 2-х томах.- М.:ГЭОТАР-Медиа, 2009.
8. Ковалев О.У., Павлій Т.У. и др. Фармакогнозія с основами біохімії рослин .- Харків; «Пропор», Видавництво НФАУ, 2000.
9. Гриневич Н.И., Сафонович Л.Н. и др. Химический анализ лекарственных растений. - М.: Высшая школа, 1983.
10. Государственная фармакопея - Изд. XI. - Вып. 1. Общие методы анализа. - М.: Медицина, 1987. - 336 с.
11. Государственная фармакопея - Изд. XI. - Вып. 2. Общие методы анализа. Лекарственные растительные сырье. - М.: Медицина, 1990.
12. Машковский М.Д. Лекарственные средства: В 2 т. -14-е изд., перераб, испр. и доп. - М.: ООО «Новая волна», 2010.
13. Отраслевой стандарт. Стандарты качества лекарственных средств. Основные положения. Издание официальное. Министерство здравоохранения Республики Узбекистан. 2002.
14. WHO monographs on selected medicinal plants. - Vol. 1. - Geneva: World Health Organization, 1999.
15. WHO monographs on selected medicinal plants, Geneva, World Health Organization, 2002.

16. WHO monographs on selected medicinal plants. -Vol. 2. - Geneva: World Health Organization, 2003.

Internet saytlari

- . <http://www.freepatent.ru>.
- . <http://www.rusvrach.ru/articles.com>.
- . <http://www.vmiretrav.ru/travi>
- . www.wikipedia.org.ru.
- . <http://www.pharmax.m/articles>.
- . <http://www.pravoteka.ru>.
- . <http://lektravi.ru/recepty/lechebnye-svoystva-rasteniy/433-veschestva-rasteniy>





